

БАХТИЁР
ОМОН

BAKHTIYOR OMON



ИМКОНЛАРИМ

IMKONLARIM



(тарбиявий-фалсафий бадиалар)

Тошкент
“GLOBAL BOOKS”
2018

УЎК 17
КБК 87.7
О – 56

Омон Б. Имконларим. Тарбиявий-фалсафий бадиалар. Кирил ва лотин алифбосида. Тошкент, “Global Books”, 2018. – 168 бет.

Тақризчилар:

Саъдулла Отамуродов,
фалсафа фанлари доктори, профессор.
Муҳаммад Қуроноов,
педагогика фанлари доктори, профессор.

Адиб ва олим Бахтиёр Омоннинг “Имконларим” китоби уч фаслдан иборат: “Ўзини тарбиялаш одоби” фасли инсоннинг ақл-идроки, мўъжизавий қудрати; “Бошқарув ва суҳбат одоби” фасли нотиклик, мулоқот ва раҳбарлик санъати; “Фикрлашга ўрганиш одоби” фасли муаллифнинг инсон, жамият, сиёсат ҳодисаларига муносабатига бағишланади.

Фарзандларимизнинг очилмаган чексиз имконлари, шахснинг табиати ва моҳияти ҳақида содда тилда ёзилган ушбу китоб тарбиявий-фалсафий бадиалардан ташкил топди.

Китобдан ўрта умумтаълим мактаблари, лицейлар ўқувчилари ва олий таълим даргоҳлари талабалари “Маънавият асослари”, “Иқтисодиёт асослари” фанларида фойдаланиши мумкин.

Omon B. Imkonlarim. Tarbiyaviy-falsafiy badialar. Kiril va lotin alifbosida. Toshkent, “Global Books”, 2018. – 168 bet.

Taqrizchilar:

Sa’dulla Otamurodov,
falsafa fanlari doktori, professor.

Muhammad Quronov,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Adib va olim Baxtiyor Omonning “Imkonlarim” kitobi uch fasldan iborat: “O’zini tarbiyalash odobi” fasli insonning aql-idroki, mo’jizaviy qudrati; “Boshqaruv va suhbat odobi” fasli notiqlik, muloqot va rahbarlik san’ati; “Fikrlashga o’rganish odobi” fasli muallifning inson, jamiyat, siyosat hodisalariga munosabatiga bag’ishlanadi.

Farzandlarimizning ochilmagan cheksiz imkonlari, shxsning tabiati va mohiyati haqida sodda tilda yozilgan ushbu kitob tarbiyaviy-falsafiy badialardan tashkil topdi.

Kitobdan o’rta umumta’lim maktablari, litseylar o’quvchilari va oliy ta’lim dargohlari talabalari “Ma’naviyat asoslari”, “Iqtisodiyot asoslari” fanlarida foydalanishi mumkin.

ИНСОН – МЎЪЖИЗАЛАР
ЯРАТИШГА ҚОДИР
(Сўз боши)

“Мен жўшқин фаолият билан банд бўлмасам, хароб бўлардим”, дейди бир замондошимиз. Кўп ўқиган, чарчашни билмаган, олға интилган одамгина ҳаётда файзу баракка топади. Инсон турмуш икир-чикирлари гирдобидан чиқиб кетолмаса, тунлари ўй-хаёлга ботаверса, тушкунликка тушиб: “Умрим бесамар, мазмунсиз ўтмаяптими?”, деган саволни ўзига беради.

Тиббиётда “Одам дарду ташвишларга кўмилиб яшаса, тез қарийди”, деган фикр мавжуд. Шундай экан, сизу бизга бир марта берилган умрни шодлигу қувончларга тўлдириб яшаш керак. Аммо жамиятда оммавий маданият иллатлари кучайган паллада бунинг имкони топилармикан? “Бўлади!”, деган нидо келади ичимиздан. Инсон – мўъжизалар яратишга қодир!

Ҳамкасбимнинг фикрича, илмий ва бадий ижод билан шуғулланиш модадан қолган эмиш. “Барибир, ёшлар китоб ўқимайди. Телефон ва интернетдан бўшамайди”, дейди у. Бу гапларга унчалик ишонгим

INSON – MO‘JIZALAR
YARATISHGA QODIR
(So‘z boshi)

“Men jo‘shqin faoliyat bilan band bo‘lmasam, xarob bo‘lardim”, deydi bir zamondoshimiz. Ko‘p o‘qigan, charchashni bilmagan, olg‘a intilgan odamgina hayotda fayzu baraka topadi. Inson turmush ikirchikirlari girdobidan chiqib ketolmasa, tunlari o‘y-xayolga botaversa, tushkunlikka tushib: “Umrin besamar, mazmunsiz o‘tmayaptimi?”, degan savolni o‘ziga beradi.

Tibbiyotda “Odam dardu tashvishlarga ko‘milib yashasa, tez qariydi”, degan fikr mavjud. Shunday ekan, sizni bizga bir marta berilgan umrni shodligu quvonchlarga to‘ldirib yashash kerak. Ammo jamiyatda ommaviy madaniyat illatlari kuchaygan pallada buning imkoni topilarmikan? “Bo‘ladi!”, degan nido keladi ichimizdan. Inson – mo‘jizalar yaratishga qodir!

Hamkasbimning fikricha, ilmiy va badiiy ijod bilan shug‘ullanish modadan qolgan emish. “Baribir, yoshlar kitob o‘qimaydi. Telefon va internetdan bo‘shamaydi”, deydi u. Bu gaplarga unchalik ishongim kelmaydi.

келмайди. Ўзбек талабалари электромобилни ихтиро қилишмоқда, дастурий маҳсулотларни патентлаб хорижга сотишмоқда. Юртбошимизнинг назарига тушган магистр йигит эса Туризмни ривожлантириш вазирининг муовини лавозимига тайинланди.

Шахсан ўзим ўз олдига улкан мақсадларни қўйган, билимдон, ғайратли, тиниб-тинчимас ёшларга ҳавасим келади. Машҳур шахсларнинг ҳаётига доир китобларни ўқиганда, юртимизда рўй бераётган яратувчанлик манзарасини кўрганда, бундай фидойилик, жасурликнинг асосида катта билим, заҳматли меҳнатни, сабрлик ва чидамни кўргандек бўламан.

Йигирма йиллик раҳбарлик тажрибамга суяниб ёзилган “Имконларим” китоби сизни ана шундай олийжаноб инсон бўлишга даъват қилади. Асардаги ғоялар, фикрлар, ташаббуслар ўсмир-ёшлар ва катта ёшдаги юртдошларимизнинг ўсиб-улғайиши ҳамда шаклланишига ёрдам беради.



O'zbek talabalari elektromobilni ixtiro qilishmoqda, dasturiy mahsulotlarni patentlab xorijga sotishmoqda. Yurtboshimizning nazariga tushgan magistr yigit esa Turizmni rivojlantirish vazirining muovini lavozimiga tayinlandi.

Shaxsan o'zim o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'ygan, bilimdon, g'ayratli, tinib-tinchimas yoshlarga havasim keladi. Mashhur shaxslarning hayotiga doir kitoblarni o'qiganda, yurtimizda ro'y berayotgan yaratuvchanlik manzarasini ko'rganda, bunday fidoyilik, jasurlikning asosida katta bilim, zahmatli mehnatni, sabrlik va chidamni ko'rgandek bo'laman.

Yigirma yillik rahbarlik tajribamga suyanib yozilgan "Imkonlarim" kitobi sizni ana shunday oliyjanob inson bo'lishga da'vat qiladi. Asardagi g'oyalar, fikrlar, tashabbuslar o'smirlar, yoshlar va katta yoshdagi yurtdoshlarimizning o'sib-ulg'ayishi hamda shakllanishiga yordam beradi.



Биринчи фасл
Birinchi fasl

ЎЗИНИ ТАРБИЯЛАШ ОДОБИ

O'ZINI TARBİYALASH ODOBI



Биринчи фасл
Birinchii fasl

ЎЗИНИ ТАРБИЯЛАШ ОДОБИ

O'ZINI TARBIYALASH ODOBI



1.1. ЎЗИНИ АНГЛАШ ОДОБИ

Мактабда, лицей ёки университетда таълим олаётган азиз дўстим, ҳали сиз ёш ниҳолга ўхшайсиз, чунки ота-она ўғитлари, устоз-мураббийларнинг кўмагига муҳтож бўлиб турибсиз. Ҳадемай, катта ҳаётга йўланма оласиз.

Айтинг-чи, олдингизга қўйган аниқ мақсад, вазифа ва шахсий режаларингиз борми? Ҳали йўқ дейсизми? Унда бир пас тўхтанг-да, нафас ростлаб олинг. Алломаларимиз айтганидек, келгуси буюк ишларга киришишдан олдин ўзингизни руҳан ва маънан тайёрланг. Ички имконлар: билим, тажриба, қобилиятингизга баҳо беринг. Қалбингизга қулоқ солинг. Ақл-идрокин-гиз нималарга етади?

Энди, рухсат берсангиз, узоқ йиллик назарий ва амалий тажрибам, эшитганларим асосида баъзи фикр ва тавсияларимни баён этсам.

Биринчи маслаҳат: сизга дўст, ҳамкор ва маслаҳатчи ўзингиз!

Гапимга ишонинг. Милоддан аввалги VI-V асрда яшаган хитой файласуфи Лао Цзи: “Сиз ичингизда Бутунни туйсангиз, демак, тўғри йўлдан кетаётган бўласиз”, деган экан.

1.1. O'ZINI ANGLASH ODOBI

Maktabda, litsey yoki universitetda ta'lim olayotgan aziz do'stim, hali siz yosh niholga o'xshaysiz, chunki ota-ona o'g'itlari, ustoz-murabbiylarning ko'magiga muhtoj bo'lib turibsiz. Hademay, katta hayotga yo'llanma olasiz.

Ayting-chi, oldingizga qo'ygan aniq maqsad, vazifa va shaxsiy rejalarinigiz bormi? Hali yo'q deysizmi? Unda bir pas to'xtang-da, nafas rostlab oling. Allomalarimiz aytganidek, kelgusi buyuk ishlarga kirishishdan oldin o'zingizni ruhan va ma'nan tayyorlang. Ichki imkonlar: bilim, tajriba, qobiliyatingizga baho bering. Qalbingizga quloq soling. Aql-idrokingiz nimalarga yetadi?

Endi, ruxsat bersangiz, uzoq yillik nazariy va amaliy tajribam, eshitganlarim asosida ba'zi fikr va tavsiyalarimni bayon etsam.

Birinchi maslahat: sizga do'st, hamkor va maslahatchi o'zingiz!

Gapimga ishoning. Miloddan avvalgi VI-V asrda yashagan xitoy faylasufi Lao Szi: "Siz ichingizda Butunni tuysangiz, demak, to'g'ri yo'ldan ketayotgan bo'lasiz", degan ekan.

Бу борада шарқ алломалари Умар Ҳайём (1048-1131), Жалолиддин Румий (1207-1273), Алишер Навоий (1441-1501), Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530), Бобораҳим Машраб (1657-1711) кўплаб ғазаллар, рубоийларни битишган. “Ҳар бир киши олдин ўз айбини кўрсайди, аҳволини тузатармиди? Одамлар ўзларидан беҳабарлар. Шунинг учун бир-бирларининг камчиликларини кўрадилар”, дейди Жалолиддин Румий ҳазратлари. Яна айтади: “Ҳар ким ўзича менга дўст бўлди, аммо ҳеч ким кўнглимдаги сирлар билан қизиқмади”.

Ичингиздаги сирдан фақат ўзингиз огоҳсиз, дўстим. Агар ўзингизни ичдан билмасангиз, бошқалар буни қайдан билсин?!

Иккинчи маслаҳат: босиб ўтган йўлингизни таҳлилдан ўтказиб, кучли ва заиф тарафингизни аниқлаб олинг.

Уларни ушбу тартибда қоғозга туширишни тавсия қилардим:

Кучли тарафим

*Мен сахийман
Мен камгапман
Мен ижодкор шахсман
Мен оптимистман
Мен чиройли кийинаман
Мен ишга вақтида
улгураман
Мен ўз устимда ишлайман*

Заифлигим

*инжиқман
шошқалоқман
телевизорни узоқ кўраман
ишонувчанман
кийимимни кўп алмаштираман
бўш вақтимда чой, кофени
кўп ичаман
соғлиғимга эътибор
бермайман*

Bu borada sharq allomalari Umar Hayyom (1048-1131), Jaloliddin Rumi (1207-1273), Alisher Navoiy (1441-1501), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530), Boborahim Mashrab (1657-1711) ko'plab g'azallar, ruboiylarni bitishgan. "Har bir kishi oldin o'z aybini ko'rsaydi, ahvolini tuzatarmidi? Odamlar o'zlaridan bexabarlar. Shuning uchun bir-birlarining kamchiliklarini ko'radilar", deydi Jaloliddin Rumi hazratlari. Yana aytadi: "Har kim o'zicha menga do'st bo'ldi, ammo hech kim ko'nglimdagi sirlar bilan qiziqmadi".

Ichingizdagi sirdan faqat o'zingiz ogohsiz, do'stim. Agar o'zingizni ichdan bilmasangiz, boshqalar buni qaydan bilsin?!

Ikkinchi maslahat: bosib o'tgan yo'lingizni tahlildan o'tkazib, kuchli va zaif tarafingizni aniqlab oling.

Ularni ushbu tartibda qog'ozga tushirishni tavsiya qilardim:

Kuchli tarafim

Men saxiyman

Men kamgapman

Men ijodkor shaxsman

Men optimistman

Men chiroyli kiyinaman

Men ishga vaqtida

ulguraman

Men o'z ustimda ishlayman

Zaifligim

injiqman

shoshqaloqman

televizorni uzoq ko'raman

ishonuvchanman

kiyimimni ko'p almashtiraman

bo'sh vaqtimda choy, kofeni

ko'p ichaman

sog'lig'imga e'tibor

bermayman

Мен турмуш ўртоғимни рашк қиламан
севаман

Мен оила ишларига бозор-ўчар қилишни
ёрдам бераман билмайман

Ёзилганлардан тегишли хулосани чиқариб олиш, характерни ўзгартириш-ўзгартирмаслик ўзингизга боғлиқ. Агарда кучли тарафингизни кўпайтириб, заиф тарафингизни камайтириб борсангиз, яхши натижаларга эришса бўлади.

Учинчи маслаҳат: китоб – инсонга дўст, ҳамроҳ ва маслаҳатгўй эканлигини унутманг.

Аввал билим, сўнгра ҳаракат бўлиши лозим. “Илм эгалланг! – дейди Муҳаммад (с.а.в.) пайғамбаримиз ўз издошларига. – Илм – саҳрода дўст, ҳаёт йўлларида – таянч, ёлғизлик дамларида – йўлдош, бахтиёр дақиқаларда – раҳбар, қайғули онларда – мададкор, одамлар орасида – зебу зийнат, душманларга қарши курашда – қуролдир”¹.

Мавлоно Жалолиддин Румий “Билим Сулаймон мулкининг муҳри, бутун олам жасад, илм – жондир”², деганида улкан маъно

¹Билқиз Аладдин. Муҳаммад пайғамбар алайҳиссалом қиссаси. –Т.: Камалак, 1991. –43-бет.

²Румий, Жалолиддин. Қалб кўзингни оч. Мавлоно Румийдан ҳикматли сўзлар. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Бозорова. –Т.: “Сано-стандарт”, 2011. –54-бет.

*Men turmush o'rtog'imni
sevaman
Men oila ishlariga
yordam beraman*

*rashk qilaman
bozor-o'char qilishni
bilmayman*

Yozilganlardan tegishli xulosani chiqarib olish, xarakterni o'zgartirish-o'zgartirmaslik o'zingizga bog'liq. Agarda kuchli tarafingizni ko'paytirib, zaif tarafingizni kamaytirib borsangiz, yaxshi natijalarga erishsa bo'ladi.

Uchinchi maslahat: kitob – insonga do'st, hamroh va maslahatgo'y ekanligini unutmang.

Avval bilim, so'ngra harakat bo'lishi lozim. “Ilm egallang! – deydi Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimiz o'z izdoshlariga. – Ilm – sahroda do'st, hayot yo'llarida – tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir”¹.

Mavlono Jaloliddin Rumiy “Bilim Sulaymon mulkinging muhri, butun olam jasad, ilm – jondir”², deganida ulkan ma'no

¹Bilqiz Aladdin. Muhammad payg'ambar alayhissalom qissasi. –T.: Kamalak, 1991. –43-bet.

²Rumiy, Jaloliddin. Qalb ko'zingni och. Mavlono Rumiydan hikmatli so'zlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Bozorova. –T.: “Sano-standart”, 2011. –54-bet.

мужассам. Шоир яна ёзади: “Ўлимимдан сўнг мени қаро ердан эмас, маърифатли инсонларнинг қалбидан изланг”.

Тўртинчи маслаҳат: сизни қийнаган, ширин турмушингизга соя солган нарсаларни миянгиздан чиқариб ташланг.

Турли йўллар билан сизга халақит бераётган ичи қора, ҳасадгўй кимсаларнинг гап-сўзларига эътиборсиз бўлинг. Душмандан ўч олишга уринган одам бебаҳо вақтини йўқотади. Асаблари чарчаб, озор чекади. Бундай касларга тенг бўлманг, баҳслашманг ва қўлингизни силтаб кетаверинг.

Бешинчи маслаҳат: телевизорни камроқ кўринг.

Ҳиндистон аҳли унга “Макр-жодули матоҳ” деб таъриф беришган. Шу боис, сўнгги йилларда бу мамлакат ахборот технологиялари соҳасида илгарилади. Телевизор – инсон миясини ўзига асир қилиб олади, руҳини ўғирлайди. Ундан воз кечсангиз, сизда юрак-қон томир касалликлари ривожланиши имконияти анча камаяди.

Яхшиси, китоб ўқинг. Китоб ўқиган кишининг кўз олдида инсон ва табиат манзаралари гавдаланади: кўк, сариқ, қизил камалак ранглар, ям-яшил далалар, майсазорлар, ўтлоқзор тепаликлар, мовий осмонни тиниқ кўради, воқеа-ҳодисалардан

mujassam. Shoir yana yozadi: “O’limimdan so’ng meni qaro yerdan emas, ma’rifatli insonlarning qalbidan izlang”.

To’rtinchi maslahat: sizni qiynagan, shirin turmushingizga soya solgan narsalarni miyangizdan chiqarib tashlang.

Turli yo’llar bilan sizga xalaqit berayotgan ichi qora, hasadgo’y kimsalarning gap-so’zlariga e’tiborsiz bo’ling. Dushmandan o’ch olishga uringan odam bebaho vaqtini yo’qotadi. Asablari charchab, ozor chekadi. Bunday kaslarga teng bo’lmang, bahslashmang va qo’lingizni siltab ketavering.

Beshinchi maslahat: televizorni kamroq ko’ring.

Hindiston ahli unga “Makr-joduli matoh” deb ta’rif berishgan. Shu bois, so’nggi yillarda bu mamlakat axborot texnologiyalari sohasida ilgariladi. Televizor – inson miyasini o’ziga asir qilib oladi, ruhini o’g’irlyaydi. Undan voz kechsangiz, sizda yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishi imkoniyati ancha kamayadi.

Yaxshisi, kitob o’qing. Kitob o’qigan kishining ko’z oldida inson va tabiat manzaralari gavdalanadi: ko’k, sariq, qizil kamalak ranglar, yam-yashil dalalar, maysazorlar, o’tloqzor tepaliklar, moviy osmonni tiniq ko’radi, voqea-hodisalardan

чексиз завқланади. Ақли, фаросати, диди юксала боради. Бундай машғулот ҳар куни изчил давом этса, оғзаки нутқи ва фикрлаш тарзи бойий бошлайди. Сўзларни ичида пишитиб, чиройли ифода эта билиш маҳорати ҳам ўсади.

Олтинчи маслаҳат: уйда, ишхонада, кўча-кўйда ва меҳмонда тартиб ва озодаликка риоя қилинг.

Покликда ҳикмат кўп, дўстим. Агар гапириш, юриш-туриш, кийинишда, ҳатто дастурхон атрофида сариштали бўлсангиз, бу – атрофдагиларга хуш ёқади. Бунинг акси бўлса, “Эҳ, бетартиб экан-да”, дейишади.

Еттинчи маслаҳат: хатти-ҳаракат ва ўзингизни босган қадамингизни назорат қилинг.

Халқимиз – доно: кўрган, эшитган нарсасини ёддан чиқармайди. Жиддий, носамимий ё енгилтабиат юришингизга қараб, аниқ баҳонгизни беради. Фақат кўнгилга олишингизни ўйлаб, юзингизга айтишни эп билмайди.

Саккизинчи маслаҳат: кимдир яхшилик қилса, унга ўз вақтида жавоб қайтаринг.

Бу ишни асло орқага ташламанг. Ҳаёт равон, текис йўллардан иборат эмас. Пасту баланд довонлардан ошиб, манзилга етиб борилади. Сиз ўзингизга йўл-йўриқ кўрсатган муаллим-у, устозларни унутманг.

cheksiz zavqlanadi. Aqli, farosati, didi yuksala boradi. Bunday mashg'ulot har kuni izchil davom etsa, og'zaki nutqi va fikrlash tarzi boyiy boshlaydi. So'zlarni ichida pishitib, chiroyli ifoda eta bilish mahorati ham o'sadi.

Oltinchi maslahat: uyda, ishxonada, ko'cha-ko'yda va mehmonda tartib va ozodalikka rioya qiling.

Poklikda hikmat ko'p, do'stim. Agar gapirish, yurish-turish, kiyinishda, hatto dasturxon atrofida sarishtali bo'lsangiz, bu – atrofda qilargaga xush yoqadi. Buning aksi bo'lsa, “Eh, betartib ekan-da”, deyishadi.

Yettinchi maslahat: xatti-harakat va o'zingizni bosgan qadamingizni nazorat qiling.

Xalqimiz – dono: ko'rgan, eshitgan narsasini yoddan chiqarmaydi. Jiddiy, nosamimiy yo yengiltabiat yurishingizga qarab, aniq bahongizni beradi. Faqat ko'ngilga olishingizni o'ylab, yuzingizga aytishni ep bilmaydi.

Sakkizinchi maslahat: kimdir yaxshilik qilsa, unga o'z vaqtida javob qaytaring.

Bu ishni aslo orqaga tashlamang. Hayot ravon, tekis yo'llardan iborat emas. Pastu baland dovonlardan oshib, manzilga yetib boriladi. Siz o'zingizga yo'l-yo'riq ko'rsatgan muallim-u, ustozlarni unutmang.

Мисол учун, ўқишда, ишхонада кимдир сизга беминнат, таъмасиз ёрдам кўрсатса, байрамларда йўқлаб туринг. Имкон топилмаса, телефонда табриклаб, яқинда олдига ўтишингизни эслатинг. Шундай қилсангиз, биродарлик ришталари узилиб кетмайди. “Ишим битди, эшагим лойдан ўтди”, дейиш ярашмайди.

Тўққизинчи маслаҳат: феъл-атворингизни даврга мосланг.

“Замон сенга боқмаса, сен замонга боқ”, деган мақол бор. Ширинкалом, хушмуомала бўлинг. Баланд овозда гапирманг. Бозор иқтисоди шароитида, ўта хушмуомала, уддабурон кишиларнинг омади чопгани сири ҳам шунда, деб ўйлаймиз.

Ўнинчи маслаҳат: бой-бадавлат бизнесмен бўлсангиз ҳам ўзингизга бино қўйманг!

Қўлга мўмай пул тушганда, ўзини баланд тутган, оёғи ердан узилган кишига айланманг. Чунки, пул – қўлнинг кири: бугун бор-у, эртага йўқ. Бугунги тўқ одам эртага тақдирида нима бўлишини ўзи билмайди.

Мавлоно Шамси Табризий (1185-1248) шундай деганлар: “Ҳаммаси қалбингга боғлиқ: қалбингни ўзгартир, дунёинг ҳам ўзгарсин. Баъзан ортингга қараб қўй: шунда қаердан келганингни унутмайсан”.

Misol uchun, o'qishda, ishxonada kimdir sizga beminnat, ta'masiz yordam ko'rsatsa, bayramlarda yo'qlab turing. Imkon topilmasa, telefonda tabriklab, yaqinda oldiga o'tishingizni eslating. Shunday qilsangiz, birodarlik rishtalari uzilib ketmaydi. "Ishim bitdi, eshagim loydan o'tdi", deyish yarashmaydi.

To'qqizinchi maslahat: fe'l-atvoringizni davrga moslang.

"Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq", degan maqol bor. Shirinkalom, xushmuomala bo'ling. Baland ovozda gapirmang. Bozor iqtisodi sharoitida, o'ta xushmuomala, uddaburon kishilarning omadi chopgani siri ham shunda, deb o'ylaymiz.

O'ninchi maslahat: boy-badavlat biznesmen bo'lsangiz ham o'zingizga bino qo'ymang!

Qo'lga mo'may pul tushganda, o'zini baland tutgan, oyog'i yerdan uzilgan kishiga aylanmang. Chunki, pul – qo'lning kiri: bugun bor-u, ertaga yo'q. Bugungi to'q odam ertaga taqdirida nima bo'lishini o'zi bilmaydi.

Mavlono Shamsi Tabriziy (1185-1248) shunday deganlar: "Hammasi qalbingga bog'liq: qalbingni o'zgartir, dunyoing ham o'zgarsin. Ba'zan ortingga qarab qo'y: shunda qayerdan kelganingni unutmaysan".

1. 2. ЎЗИНИ САҚЛАШ ОДОБИ

Ўн биринчи маслаҳат: болалик ва ўсмирликда содир бўлган воқеаларни унутманг.

Эсдаликка тушган фотосуратларингизни сақлаб қўйинг. Варрак учирган, кўчаларни чангитиб копток тепган кунларингизни ёдга олиб туринг.

Дорилфунунда таҳсил олаётганда ётоқхонага ташриф буюрган Абдулла Ориповга ўхшаш шоирнинг юракларни ларзага солган шеърлари эсингиздами?

*Мен ёлғон ёздимми шеърда атайлаб,
Ёхуд мартаба деб гапимдан қайтдим?
Ёхуд сўз келганда – жонни авайлаб –
Нодон шеваларда мадҳия айтдим?
Қара, куйиб битган жонимга, қара,
Сўзимга қарагин: ушласанг – олов.
Оташин туйғулар – умримни қамраб –
Аланга ичига отар – беаёв.
Бўғзимга ёпишган дунё билан баҳс,
Ҳаётни ичаман – оғудир асру..
Мен – умрим тонгидан –
шеър ёзишимас,
Шеърдай яшамоқни этганман орзу.*

1. 2. O'ZINI SAQLASH ODOBI

O'n birinchi maslahat: bolalik va o'smirlikda sodir bo'lgan voqealarni unut-mang.

Esdalikka tushgan fotosuratlaringizni saqlab qo'ying. Varrak uchirgan, ko'chalarni changitib ko'ptok tepgan kunlaringizni yodga olib turing.

Dorilfununda tahsil olayotganda yotoqxonaga tashrif buyurgan Abdulla Oripovga o'xshash shoirning yuraklarni larzaga solgan she'rlari esingizdami?

*Men yolg'on yozdimmi she'rda ataylab,
Yoxud martaba deb gapimdan qaytdim?*

*Yoxud so'z kelganda – jonni avaylab –
Nodon shevalarda madhiya aytdim?*

Qara, kuyib bitgan jonimga, qara,

So'zimga qaragin: ushlang – olov.

Otashin tuyg'ular – umrimni qamrab –

Alanga ichiga otar – beayov.

Bo'g'zimga yopishgan dunyo bilan bahs,

Hayotni ichaman – og'udir asru...

Men – umrim tongidan –

she'r yozishnimas,

She'rday yashamoqni etganman orzu.

Таваллуд кунингизда ёнингизга ийманибгина келиб ўтирган бодом гулли кўйлак кийган қизнинг дил изҳори, машҳур ҳофизнинг никоҳ оқшомида билдирган тилаклари ёдингиздами?

Ўн иккинчи маслаҳат: Сиз ўзи кимсиз? Қайга кетмоқдасиз?

Ўзингиз ҳақингизда билганларингизни қоғозга туширсангиз, фойдали иш бўларди. Бу юмушни камина айтганидай бажаришга урининг:

Ушалган орзуларим

Институтда ўқидим

Яхши идорада ишладим

Дўстлар орттирдим

Севдим ва севилдим

Оила қурдим

Фарзандлар орттирдим

Камчилигим

*Ўртоқларим билан
борди-қилди қилолмадим*

*Тўй-маъракаларга
боролмадим*

*Дўстимни кўргани
касалхонага ўтолмадим*

*Эъозланганимда
яқинимнинг
қадрига етмадим*

*Оила, қариндошлар билан
самимий гаплашолмадим*

*Болаларимга мулоим
гапирмадим*

Дўстим, энди шу нуқсонларингизни тузатиш пайида бўлинг.

Ўн учинчи маслаҳат: олдингизга ҳамisha катта мақсадлар қўйинг.

Уларга ҳар куни ва ҳар сонияда интилиб яшанг. Ёру-дўстлардан орқада қолмаслик

Tavallud kuningizda yoningizga iyma-nibgina kelib o'tirgan bodom gulli ko'ylak kiygan qizning dil izhori, mashhur hofizning nikoh oqshomida bildirgan tilaklari yodin-gizdami?

O'n ikkinchi maslahat: Siz o'zi kimsiz? Qayga ketmoqdasiz?

O'zingiz haqingizda bilganlaringizni qog'ozga tushirsangiz, foydali ish bo'lardi. Bu yumushni kamina aytganiday bajarishga urining:

Ushalgan orzularim

Institutda o'qidim

Yaxshi idorada ishladim

Do'stlar orttirdim

Sevdim va sevildim

Oila qurdim

Farzandlar orttirdim

Kamchiligim

*O'rtoqlarim bilan
bordi-qildi qilolmadim*

*To'y-ma'arakalarga
borolmadim*

*Do'stimni ko'rgani
kasalxonaga o'tolmadim*

*E'zozlanganimda
yaqinimning
qadriga yetmadim*

*Oila, qarindoshlar bilan
samimiy gaplasholmadim*

*Bolalarimga muloyim
gapirmadim*

Do'stim, endi shu nuqsonlaringizni tuzatish payida bo'ling.

O'n uchinchi maslahat: oldingizga hamisha katta maqsadlar qo'ying.

Ularga har kuni va har soniyada intilib yashang. Yoru-do'stlardan orqada qolmaslik

илинжида янада юксакроқ мақсадни – уйли-жойли бўлиш, ўн-юз кишилик идорага бошлиқ бўлиш, инглиз тилини мукамал ўрганиш, илмий даража олишни ният қилинг.

Бирон бир ишга киришсангиз, бутун зеҳнингиз, ақл-вужудингиз билан киришинг. Токи уни битирмагунча, ортга қайтманг.

Ўн тўртинчи маслаҳат: уйда, кўчада, ишхонада чеҳрангизни очиб, кулиб юришга одатланинг.

Бу борада японлардан ўрганса арзийди. Негаки, одатда улар дўст, биродар, ҳамкорлари билан учрашганда, майин жилмайиб ва тизза бўйи букилиб, ишларини битирадилар. Шуни билингки, тажанг ва инжиқ одамнинг дўсти кам бўлади.

Ўн бешинчи маслаҳат: ҳаётда кичик, майда-чуйда юмушлар билан ўралашиб қолманг.

Қисқагина умрингизни арзимаган, пуч нарсаларга сарфлаш яхши эмас.

Дарвоқе, телевизордаги киносериаллар, интернет кўп вақтингизни ўғирлайди. Кўпчилик ўқишдан ё ишдан уйга келган заҳоти, телевизордан узоқлашмайди. Бу – кундалик таомилга айланди. Юртдошларимизнинг Ишани, Хуррам тақдирига қайғуриб, йиғлаб ўтиришганига нима дейсиз?! Бу – инсоннинг майдалашиши, диди пастлигининг далолати эмасми? Дўстим, олтинга тенг вақтингизни керакли машғулотларга сарфланг.

ilinjida yanada yuksakroq maqsadni – uyli-joyli bo'lish, o'n-yuz kishilik idoraga boshliq bo'lish, ingliz tilini mukammal o'rganish, ilmiy daraja olishni niyat qiling.

Biron bir ishga kirishsangiz, butun zehningiz, aql-vujudingiz bilan kirishing. Toki uni bitirmaguncha, ortga qaytmang.

O'n to'rtinchi maslahat: uyda, ko'chada, ishxonada chehrangizni ochib, kulib yurishga odatlaning.

Bu borada yaponlardan o'rgansa arziydi. Negaki, odatda ular do'st, birodar, hamkorlari bilan uchrashganda, mayin jilmayib va tizza bo'yi bukilib, ishlarini bitiradilar. Shuni bilingki, tajang va injiq odamning do'sti kam bo'ladi.

O'n beshinchi maslahat: hayotda kichik, mayda-chuyda yumushlar bilan o'ralashib qolmang.

Qisqagina umringizni arzimagan, puch narsalarga sarflash yaxshi emas.

Darvoqe, televizordagi kinoseriallar, internet ko'p vaqtingizni o'g'irlyadi. Ko'pchilik o'qishdan yo ishdan uyga kelgan zahoti, televizordan uzoqlashmaydi. Bu – kundalik taomilga aylandi. Yurtdoshlarimizning Ishani, Xurram taqdiriga qayg'urib, yig'lab o'tirishganiga nima deysiz?! Bu – insonning maydalashishi, didi pastligining dalolati emasmi? Do'stim, oltinga teng vaqtingizni kerakli mashg'ulotlarga sarflang.

Дейлик, Нобель мукофотига сазовор бўлган олимлар, адиблар, ихтирочиларнинг ҳаётига бағишланган ибратли фильмларни томоша қилишга одатланинг.

Ўн олтинчи маслаҳат: ўзингизни ҳамиша банд одам, деб ҳисобламанг.

Бекорчидан худо безор. Зериккан пайтингизда уй юмушлари билан машғул бўлинг. Томорқада мазза қилиб ишланг. Домда ҳам машғулотлар топилади: гул кўчатларини суғоринг, хомток қилинг, электр асбобини тузатинг.

Бўш вақтингизда китоб ўқинг. Абдулла Қодирий, Чўлпон, Достоевский, Айтматов, Тоғай Муроднинг китобларини мутолаа қилсангиз, маънавий оламингиз бойийди, фикрингиз ва зеҳнингиз чархланади. Чингиз оға қаҳрамони Жўломондай (“Асрни қаритган кун”) авлодларини унутган манқурт, овсар кимсага айланишдан Ўзи асрасин.

Ўн еттинчи маслаҳат: ҳаётда ўзингизни банд этишнинг йўлларини излаб топинг.

Мисол учун Малайзия, Сингапур каби Осиё мамлакатларида одамлар “Ўзини-ўзи ривожлантиришнинг 100 та усули”ни ўйлаб топишган. “Мия хужуми” деб аташади уни. “Мия хужуми” – инсон онги, тафаккурини бойитадиган, вазиятдан чиқиш йўлларини ўргатадиган ўйин. Бунинг учун қизиқарли саволларни тузинг: ота-онага ҳурмат, оилада таълим-тарбия, ишбилармонликка

Deylik, Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan olimlar, adiblar, ixtirochilarning hayotiga bag'ishlangan ibratli filmlarni tomosha qilishga odatlaning.

O'n oltinchi maslahat: o'zingizni hamisha band odam, deb hisoblamang.

Bekorchidan xudo bezor. Zerikkan paytinzda uy yumushlari bilan mashg'ul bo'ling. Tomorqada mazza qilib ishlang. Domda ham mashg'ulotlar topiladi: gul ko'chatlarini sug'oring, xomtok qiling, elektr asbobini tuzating.

Bo'sh vaqtinzda kitob o'qing. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Dostoyevskiy, Aytmatov, Tog'ay Murodning kitoblarini mutolaa qilsangiz, ma'naviy olamingiz boyiydi, fikringiz va zehningiz charxlanadi. Chingiz og'a qahramoni Jo'lomunday ("Asrni qaritgan kun") avlodlarini unutgan manqurt, ovsar kimsaga aylanishdan O'zi asrasin.

O'n yettinchi maslahat: hayotda o'zingizni band etishning yo'llarini izlab toping.

Misol uchun Malayziya, Singapur kabi Osiyo mamlakatlarida odamlar "O'zini-o'zi rivojlantirishning 100 ta usuli"ni o'ylab topishgan. "Miya hujumi" deb atashadi uni. "Miya hujumi" – inson ongi, tafakkurini boyitadigan, vaziyatdan chiqish yo'llarini o'rgatadigan o'yin. Buning uchun qiziqarli savollarni tuzing: ota-onaga hurmat, oilada ta'lim-tarbiya, ishbilarmonlikka

ўрганиш... Уларга жавобларни дарҳол ёзиб ташланг. Бошида ўнта саволга жавоб бериш қийин кечмайди, аммо кейингилари...

Биз тахминан тузган “Йигирматалик” (30-40 та савол тузиш ҳам ихтиёрингизда) саволлари қуйидагича бўлади:

1. Мен миннатдор бўлган 20 та нарса
2. Менда мавжуд бўлган 20 та фазилат
3. Мен ёмон кўрадиган 20 та нарса
4. Мени зериктирадиган 20 та нарса
5. Мен қадрлайдиган 20 та нарса
6. Мени йўлдан чалғитган 20 та “маслаҳат”
7. Ҳаётимни ўзгартирган 20 та усул
8. Болалигимдан эсда қолган 20 та ёрқин хотира
9. Талабалик йиллари кечган 20 та қизиқ воқеа
10. Ҳаётимда қабул қилган 20 та тўғри қарорим
11. Ҳаётимда олган 20 та сабоғим
12. Менинг 20 та муҳим ҳаётий принципим
13. Мен жуда яхши биладиган 20 та киши
14. Одамлар мендан кутадиган 20 та нарса
15. Онамга (отамга) айтадиган 20 та заҳур гапим
16. Онамга (отамга) умрбод айта олмаган 20 та сирим
17. Ҳаётимда йўл кўйган 20 та хатойим
18. Ўзимдан кутган 20 та умидим
19. Илм ўрганишдан олган 20 та сабоғим
20. Келгусидаги 20 та мақсадим

o'rganish... Ularga javoblarni darhol yozib tashlang. Boshida o'nta savolga javob berish qiyin kechmaydi, ammo keyingilari...

Biz taxminan tuzgan “Yigirmatalik” (30-40 ta savol tuzish ham ixtiyoringizda) savollari quyidagicha bo'ladi:

1. Men minnatdor bo'lgan 20 ta narsa
2. Menda mavjud bo'lgan 20 ta fazilat
3. Men yomon ko'radigan 20 ta narsa
4. Meni zeriktiradigan 20 ta narsa
5. Men qadrlaydigan 20 ta narsa
6. Meni yo'ldan chalg'itgan 20 ta “maslahat”
7. Hayotimni o'zgartirgan 20 ta usul
8. Bolaligidan esda qolgan 20 ta yorqin xotira
9. Talabalik yillari kechgan 20 ta qiziq voqea
10. Hayotimda qabul qilgan 20 ta to'g'ri qarorim
11. Hayotimda olgan 20 ta sabog'im
12. Mening 20 ta muhim hayotiy prinsipim
13. Men juda yaxshi biladigan 20 ta kishi
14. Odamlar mendan kutadigan 20 ta narsa
15. Onamga (otamga) aytadigan 20 ta zarur gapim
16. Onamga (otamga) umrbod ayta olmagan 20 ta sirim
17. Hayotimda yo'l qo'ygan 20 ta xatoyim
18. O'zimdanda kutgan 20 ta umidim
19. Ilm o'rganishdan olgan 20 ta sabog'im
20. Kelgusidagi 20 ta maqsadim

Юқоридаги саволларга жавоб топиш анча вақтингизни олишини биламан. Ўзингизни ёмон кўриб қоларсиз, балким. Лекин жавобларнинг таҳлили ва хулосалардан сўнг, анча енгил тортасиз, назаримда.

Энди бўш вақтнинг ўзи қолмайди. Сизга яхши машғулот топилди. Аммо шу баҳона яхши ва ёмон тарафларингизни илғаб олдингиз. “Мен кимман ўзи?”, деган ички нидо пайдо бўлганининг ўзиёқ ижобий тарафга ўзгарганингизни билдиради.

Ўн саккизинчи маслаҳат: соғлиғингиз ҳақида доимо қайғуринг.

Инсон бу ёруғ оламда зиммасига тушадиган вазифаларни бажариши учун руҳий ва жисмонан бақувват бўлмоғи лозим. “Бадантарбияни тарк этган одам хароб бўлади. Ҳаракатсиз қолган аъзоларнинг қуввати заифлашади”, дейди буюк табиб Абу Али ибн Сино.

Донишманд бобомиз таъкидлаганидек, овқатланиш қоидасини бузманг. Овқат вақтида гўштни яхшилаб чайнаб, кейин ютинг. Секин овқатланинг. Кечқурун кўп овқат ейиш соғлиққа зарар эканлигини унутманг.

Ичкилик ичишдан ўзингизни тийинг. Мабодо шаробга ружў қўйсангиз, қирқ-эллик ёшингизда юрак хуружи, жигар ё буйрак касалига мубтало бўлиб қоласиз. Ўшанда

Yuqoridagi savollarga javob topish ancha vaqtingizni olishini bilaman. O'zingizni yomon ko'rib qolarsiz, balkim. Lekin javoblarning tahlili va xulosalardan so'ng, ancha yengil tortasiz, nazarimda.

Endi bo'sh vaqtning o'zi qolmaydi. Sizga yaxshi mashg'ulot topildi. Ammo shu bahona yaxshi va yomon taraflaringizni ilg'ab oldingiz. "Men kimman o'zi?", degan ichki nido paydo bo'lganining o'ziyoq ijobiy tarafga o'zgarganingizni bildiradi.

O'n sakkizinchi maslahat: sog'lig'ingiz haqida doimo qayg'uring.

Inson bu yorug' olamda zimmasiga tushadigan vazifalarni bajarishi uchun ruhiy va jismonan baquvvat bo'lmog'i lozim. "Badantarbiyani tark etgan odam xarob bo'ladi. Harakatsiz qolgan a'zolarining quvvati zaiflashadi", deydi buyuk tabib Abu Ali ibn Sino.

Donishmand bobomiz ta'kidlaganidek, ovqatlanish qoidasini buzming. Ovqat vaqtida go'shtni yaxshilab chaynab, keyin yuting. Sekin ovqatlaning. Kechqurun ko'p ovqat yeyish sog'liqqa zarar ekanligini unutmang.

Ichkilik ichishdan o'zingizni tiying. Mabodo sharobga rujo' qo'ysangiz, qirq-ellik yoshingizda yurak xuruji, jigar yo buyrak kasaliga muhtalo bo'lib qolasiz. O'shanda

ҳарчанд йиғлаб-сиқтаманг, даста-даста пулларни сарфламанг – олдинги куч-мадорни тополмай, ғафлатда қоласиз.

Яқинда бир китоб тасодифан кўлимга илинди. “Маст қилувчи ичимликларни лаънатлаш сутраси” номли қадимги сўғд ёзувидаги асарда ёзилишича: “Маст қилувчи ичимлик кўзни хира, тилни дудуқ, қулоқни кар, қўлни қувватсиз, оёқни эса акашак қилади ва ўзи сезмаган ҳолда одамни ўлим томон етаклайди. Бундан ҳам баттари: одамнинг маст қилувчи ичимликларни ичиши – эриб турган мисни ичиш билан баробар. Лекин эриб турган мис одам ҳаётини бир марта куйдирса, маст қилувчи ичимлик ҳаёт кетидан ҳаётни куйдиради...”³.

Гапнинг очиғи, инсонга лаънат келтирувчи бу сўзларга изоҳ топа олмадим. “Ҳаёт кетидан ҳаётни (зурриёдни) куйдиради”, деган сўзларнинг маъносини тушунганимдан кейин ичимни қандайдир изтироб, ваҳима қоплагандай бўлди.

Алломаи замонлар, ислом таълимотчилари шароб ичишни беҳуда ман қилишмаган экан, деган хулосага келдим.

³Қаюмов А., Исҳоқов М., Отахўжаев А., Содиқов Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.: Ёзувчи, 2000. 100-101-бет.



harchand yig'lab-siqtamang, dasta-dasta pullarni sarflamang – oldingi kuch-madorni topolmay, g'aflatda qolasiz.

Yaqinda bir kitob tasodifan qo'limga ilindi. "Mast qiluvchi ichimliklarni la'natlash sutrasi" nomli qadimgi so'g'd yozuvidagi asarda yozilishicha: "Mast qiluvchi ichimlik ko'zni xira, tilni duduq, quloqni kar, qo'lni quvvatsiz, oyoqni esa akashak qiladi va o'zi sezmagani holda odamni o'lim tomon yetaklaydi. Bundan ham battari: odamning mast qiluvchi ichimliklarni ichishi – erib turgan misni ichish bilan barobar. Lekin erib turgan mis odam hayotini bir marta kuydirsa, mast qiluvchi ichimlik hayot ketidan hayotni kuydiradi..."³.

Gapning ochig'i, insonga la'nat keltiruvchi bu so'zlarga izoh topa olmadim. "Hayot ketidan hayotni (zurriyodni) kuydiradi", degan so'zlarning ma'nosini tushunganimdan keyin ichimni qandaydir iztirob, vahima qoplaganday bo'ldi.

Allomai zamonlar, islom ta'limotchilari sharob ichishni behuda man qilishmagan ekan, degan xulosaga keldim.

³Qayumov A., Is'hoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000. 100-101-bet.

1.3. ЎЗИНИ ТУТИШ ОДОБИ

Ўрни келди, энди меҳмондорчиликда ўзини тутиш одоби ҳақида фикр юритамиз.

Ўн тўққизинчи маслаҳат: биронта кишиникига меҳмонга ташриф буюрсангиз, эшик қўнғироғини босиб киринг.

Ташрифингиз ҳақида олдиндан огоҳлантисангиз, мезбон хижолат чекмайди. Аммо бировнинг уйига сигаретни бурқситиб кирманг.

Йигирманчи маслаҳат: ёши ёки мавқеи баланд кишига, хусусан аёлга, токи унинг ўзидан ҳаракат бўлмагунча, қўлингизни узатманг.

Уйга киргач, соҳибнинг ишора таклифни кутинг. Хотиржам жойлашиб олгандан кейин мезбон билан ҳол-аҳвол сўрашинг. Аммо сўзамоллик қилманг.

Йигирма биринчи маслаҳат: тўй-ҳашамга борганингизда, эркак кишига аёлингизни таништирманг.

Кимгадир ёнингиздаги кишини таништиришдан аввал у тараф буни хоҳлашига ишонч ҳосил қилинг.

Хонага киришда ва чиқишда аёлдан олдинга ўтиб кетманг.

1.3. O'ZINI TUTISH ODOBI

O'rni keldi, endi mehmondorchilikda o'zini tutish odobi haqida fikr yuritamiz.

O'n to'qqizinchi maslahat: bironta kishinikiga mehmonga tashrif buyursangiz, eshik qo'ng'irog'ini bosib kiring.

Tashrifingiz haqida oldindan ogohlantirsangiz, mezbon xijolat chekmaydi. Ammo birovning uyiga sigaretni burqsitib kirmang.

Yigirmanchi maslahat: yoshi yoki mavqei baland kishiga, xususan ayolga, toki uning o'zidan harakat bo'lmaguncha, qo'lingizni uzatmang.

Uyga kirgach, sohibning ishora taklifini kuting. Xotirjam joylashib olgandan keyin mezbon bilan hol-ahvol so'rashing. Ammo so'zamollik qilmang.

Yigirma birinchi maslahat: to'y-hashamga borganingizda, erkak kishiga ayolingizni tanishtirmang.

Kingadir yoningizdagi kishini tanishtirishdan avval u taraf buni xohlashiga ishonch hosil qiling.

Xonaga kirishda va chiqishda ayoldan oldinga o'tib ketmang.

Йигирма иккинчи маслаҳат: жамоат жойларида, айниқса, ресторанларда кўп гапирманг.

Агар танишингиз учраб, зарур масалада у билан гаплашмоқчи бўлсангиз, чеккароққа ўтинг. Кўпчилик олдида бир киши билан узоқ суҳбат қурсангиз, ёнингиздагилар ранжийди. Меҳмондорчиликда пичирлаб гаплашсангиз бошқаларга эриш туюлади. Кимгадир “нозик” гапларингиз бўлса, қулай пайтни пойланг.

Меҳмонда ўзингиз ва ишхонангиз тўғрисида камроқ гаплашинг. Касал ётган ёки омадсиз кунларингиз хусусида оғиз очманг, чунки дардингизни барибир тушунишмайди.

Даврадагилар танимаган одам тўғрисида мақтов сўзларни келтириб ўтирманг.

Йигирма учинчи маслаҳат: меҳмонда кўп ичкилик ичманг.

Бундай “нохуш” ҳолатнинг муттасил давом этиши – субутсизлик аломати, деб баҳоланади. “Ичганда ақл қочади”, деган гап бор. Ҳозирги кунда илм, маърифат ўсган шаҳару қишлоқларда ичкилик сони камайди, улар ўрнини исломий, маърифий тадбирлар эгаллади.

Йигирма тўртинчи маслаҳат: уй соҳиби ёки бекаси бўлсангиз, овқатни ҳаммадан олдин еб тугатмасдан, меҳмонларни кутинг.

Yigirma ikkinchi maslahat: jamoat joylarida, ayniqsa, restoranlarda ko'p gapirmang.

Agar tanishingiz uchrab, zarur masalada u bilan gaplashmoqchi bo'lsangiz, chekkaroqqa o'ting. Ko'pchilik oldida bir kishi bilan uzoq suhbat qursangiz, yoningizdagilar ranjiydi. Mehmondorchilikda pichirlab gaplashsangiz boshqalarga erish tuyuladi. Kimgadir "nozik" gaplaringiz bo'lsa, qulay paytni poylang.

Mehmonda o'zingiz va ishxonangiz to'g'risida kamroq gaplashing. Kasal yotgan yoki omadsiz kunlaringiz xususida og'iz ochmang, chunki dardingizni baribir tushunishmaydi.

Davrada gilar tanimagan odam to'g'risida maqtov so'zlarni keltirib o'tirmang.

Yigirma uchinchi maslahat: mehmonda ko'p ichkilik ichmang.

Bunday "noxush" holatning muttasil davom etishi – subutsizlik alomati, deb baholanadi. "Ichganda aql qochadi", degan gap bor. Hozirgi kunda ilm, ma'rifat o'sgan shaharu qishloqlarda ichkilik soni kamaydi, ular o'rnini islomiy, ma'rifiy tadbirlar egalladi.

Yigirma to'rtinchi maslahat: uy sohibi yoki bekasi bo'lsangiz, ovqatni hammadan oldin yeb tugatmasdan, mehmonlarni kuting.

Бу, айниқса, иккинчи овқат тортилганда билинади. Меҳмонлар пиёладаги чойни ичмагунча, ўзингизга қуймай ўтиринг.

Меҳмон сифатида дастурхонга тортилган таомга, ноз-неъматларга эътироз билдирманг.

Йигирма бешинчи маслаҳат: бировнинг шаънига тегадиган қаттиқ ҳазиллар кимгадир ёмон таъсир этиши, ҳатто ўртада гап қочишини эътиборга олинг.

Бошқаларнинг феъл-атвори ёки юриш-туриши борасида кулиш одобсизликка киради.

Меҳмонда “Менга ҳеч ким эътибор бермади”, деб иззатталаблик билан қовоғингизни уюб ўтирманг. Асабингиз бузилганини сездирманг. Ёнингизда ўтирган ёши улут кишиларга, албатта, илтифот кўрсатинг.

Йигирма олтинчи маслаҳат: зиёфатда узоқ вақт қолиб кетманг.

Меҳмондорчиликда соатингизга дамба-дам қараш яхши эмас. Ундан кўра, кетадиган вақтингизни аниқ белгиланг. Агар ҳамма тарқашидан олдин кетмоқчи бўлсангиз, уй эгасидан узр сўрасангиз, шунинг ўзи кифоя қилади.



Bu, ayniqsa, ikkinchi ovqat tortilganda bilinadi. Mehmonlar piyoladagi choyni ichmaguncha, o'zingizga quymay o'tiring.

Mehmon sifatida dasturxonga tortilgan taomga, noz-ne'matlarga e'tiroz bildirmang.

Yigirma beshinchi maslahat: birovning sha'niga tegadigan qattiq hazillar kimgadir yomon ta'sir etishi, hatto o'rtada gap qochishini e'tiborga oling.

Boshqalarning fe'l-atvori yoki yurish-turishi borasida kulish odobsizlikka kiradi.

Mehmonda "Menga hech kim e'tibor bermadi", deb izzattalablik bilan qovog'ingizni uyub o'tirmang. Asabingiz buzilganini sezdirang. Yoningizda o'tirgan yoshi ulug' kishilarga, albatta, iltifot ko'rsating.

Yigirma oltinchi maslahat: ziyofatda uzoq vaqt qolib ketmang.

Mehmondorchilikda soatingizga dambadam qarash yaxshi emas. Undan ko'ra, ketadigan vaqtingizni aniq belgilang. Agar hamma tarqashidan oldin ketmoqchi bo'lsangiz, uy egasidan uzr so'rasangiz, shuning o'zi kifoya qiladi.



1.4. ЎЗИНИ НАМОЁН ЭТИШ ОДОБИ

Инсон ўзида мавжуд бўлган барча хислат ва фазилатларни яхши билмагани учун ўзини намоён эта олмайди. Келинг, шу мавзуда ҳам озгина сўз юритайлик.

Йигирма еттинчи маслаҳат: ички ва ташқи оламингиз қандайлигини билмоқчи бўлсангиз, кўзгуга нигоҳ ташлаб олинг.

Соғлом қиёфа, бу – куч-қудрат, салобатлилик белгиси саналади.

Сиз бемор ётган ё қаттиқ шамоллаб, ўзингизни олдирган вақтингизда “нозик” феълли танишлар ёки мансабдор кишиларнинг қабулига бора кўрманг. Негаки, хастаҳол ҳолатингизда сиз ҳақингизда шаклланган “таассурот”ни ўзгартириш учун кейин кўп вақтингиз кетади.

Йигирма саккизинчи маслаҳат: фарзандингизга биронта яхши ҳунарни ўргатинг.

Масалан, фотографик, рассомлик, кўшиқчилик, ошпазлик оммабоп ҳунарлар сирасига кирази. Яна дурадгор, электрик, автомобилни созлаш ҳам рўзғорбоп, фойдали касблардир.

Ўғил-қизлар, ука-сингилларимизга болаликдан ҳунарлар ўргатиб борилса, истеъдоди ва малакаси ошиб боради.

1.4. O'ZINI NAMOYON ETISH ODOBI

Inson o'zida mavjud bo'lgan barcha xislat va fazilatlarni yaxshi bilmagani uchun o'zini namoyon eta olmaydi. Keling, shu mavzuda ham ozgina so'z yuritaylik.

Yigirma yettinchi maslahat: ichki va tashqi olamingiz qandayligini bilmoqchi bo'lsangiz, ko'zguga nigoh tashlab oling.

Sog'lom qiyofa, bu – kuch-qudrat, salobatlilik belgisi sanaladi.

Siz bemor yotgan yo qattiq shamollab, o'zingizni oldirgan vaqtingizda “nozik” fe'lli tanishlar yoki mansabdor kishilarning qabuliga bora ko'rmang. Negaki, xastahol holatingizda siz haqingizda shakllangan “taassurot”ni o'zgartirish uchun keyin ko'p vaqtingiz ketadi.

Yigirma sakkizinchi maslahat: farzandingizga bironta yaxshi hunarni o'rgating.

Masalan, fotograflik, rassomlik, qo'shiqchilik, oshpazlik ommabop hunarlar sirasiga kiradi. Yana duradgor, elektrik, avtomobilni sozlash ham ro'zg'orbop, foydali kasblardir.

O'g'il-qizlar, uka-singillarimizga bolalikdan hunarlar o'rgatib borilsa, iste'dodi va malakasi oshib boradi.

Йигирма тўққизинчи маслаҳат: қирқ ёшга киргунча соғлиқ кўтарса, дам олиш, чарчаш нималигини ўйламасдан, жаҳд билан меҳнат қилаверинг.

Жамиятнинг ишларида, тадбирларида фаол иштирок этинг. Ишбилармон, ғайратли, ташкилотчи кишилар билан ҳамсуҳбат бўлиб, уларнинг бой ҳаётий тажрибасини ўрганинг.

Йигит қирқ ёшгача орзусига етолмаса, кейин кечикади. Юнонистонлик ҳукмдор Искандар Зулқарнайн (Александр Македонский) устози Арасту (Аристотель)нинг таълим-тарбияси туфайли 30 ёшида Европа, Осиё ва Яқин Шарқнинг жами мамлакатларини ўзига бўйсундирган эди!

Донғи кетган давлат арбоблари, sanoat магнатлари, миллиардерлар кунига ўн олти соатлаб ишлаш ҳисобига юқори мавқега эришдилар. Америкалик машҳур миллиардер Жон Рокфеллернинг “Ўз-ўзингизга золим бўлинг!” деган гапи менга ёқади. У иродасини тинимсиз чархлаган, ўзини ҳис-туйғулари ва истакларини бошқаришга ўргатган, қатъий жадвал асосида ишлаган. Ўз олдига катта мақсадлар қўйган, сўнг уларни амалга ошириш учун максимал даражадаги тартиб-қоидага риоя этган. Натижада 25 ёшида мамлакатдаги энг йирик нефтни қайта

Yigirma to‘qqizinchi maslahat: qirq yoshga kirguncha sog‘liq ko‘tarsa, dam olish, charchash nimaligini o‘ylamasdan, jahd bilan mehnat qilavering.

Jamiyatning ishlarida, tadbirlarida faol ishtirok eting. Ishbilarmon, g‘ayratli, tashkilotchi kishilar bilan hamsuhbat bo‘lib, ularning boy hayotiy tajribasini o‘rganing.

Yigit qirq yoshgacha orzusiga yetolmasa, keyin kechikadi. Yunonistonlik hukmdor Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) ustozlari Arastu (Aristotel)ning ta‘lim-tarbiyasi tufayli 30 yoshida Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharqning jami mamlakatlarini o‘ziga bo‘ysundirgan edi!

Dong‘i ketgan davlat arboblari, sanoat magnatlari, milliarderlar kuniga o‘n olti soatlab ishlash hisobiga yuqori mavqega erishdilar. Amerikalik mashhur milliarder Jon Rokfellerning “O‘z-o‘zingizga zolim bo‘ling!” degan gapi menga yoqadi. U irodasini tinimsiz charxlagan, o‘zini his-tuyg‘ulari va istaklarini boshqarishga o‘rgatgan, qat‘iy jadval asosida ishlagan. O‘z oldiga katta maqsadlar qo‘ygan, so‘ng ularni amalga oshirish uchun maksimal darajadagi tartib-qoidaga rioya etgan. Natijada 25 yoshida mamlakatdagi eng yirik neftni qayta

ишловчи заводни бошқарган, 38 ёшида АҚШдаги нефтни қайта ишлаш саноатининг 90 фоизига эгалик қилган. 58 ёшида нафақага чиқаётганида у дунёнинг энг бадавлат кишиларидан бирига айланган экан.

Ўттизинчи маслаҳат: эллик ёшга қадар давлат ва халқнинг манфаати йўлида астойдил хизмат қилинг.

Эллик ёшдан кейин илмли, иродали, оқибатли шогирдларни излаб топиб, уларга билим ва тажрибангизни сингдириг. Боғ яратган, шогирд етиштирган киши савоб ва шарафга муяссар бўлади. Шогирдлар – мисли фарзандингиз кабидир.

Шогирдларнинг оилавий аҳволи, шарт-шароитидан хабар олиб туриш даркор. Саховатпеша инсон, академик Сойибжон Негматовнинг бу борадаги тўплаган тажрибаси юртимизда оммалашса, фойдали иш бўларди. Ҳозирда саксонга яқинлашган отахон Талабалар шаҳарчасидаги йирик илмий-амалий марказни бошқариб, нефть-газ, кимё саноатига иқтисодий фойда келтириш билан бирга, қирқ йилдан бери юзлаб ёшларни қанотлари остига олиб, илмий ва инновацион тадқиқотларга раҳбарлик қилиб келади.

Устоз бўлсангиз, албатта, ёшларга ёрдам қўлини чўзинг, илмий ва амалий ишла-

ishlovchi zavodni boshqargan, 38 yoshida AQSHdagi neftni qayta ishlash sanoatining 90 foiziga egalik qilgan. 58 yoshida nafaqaga chiqayotganida u dunyoning eng badavlat kishilaridan biriga aylangan ekan.

O'ttizinchi maslahat: ellik yoshga qadar davlat va xalqning manfaati yo'lida astoydil xizmat qiling.

Ellik yoshdan keyin ilmi, irodali, oqibatli shogirdlarni izlab topib, ularga bilim va tajribangizni singdiring. Bog' yaratgan, shogird yetishtirgan kishi savob va sharafiga muyassar bo'ladi. Shogirdlar - misli farzandingiz kabidir.

Shogirdlarning oilaviy ahvoli, shart-sharoitidan xabar olib turish darkor. Saxovatpesha inson, akademik Soyibjon Negmatovning bu boradagi to'plagan tajribasi yurtimizda ommalashsa, foydali ish bo'lardi. Hozirda saksonga yaqinlashgan otaxon Talabalar shaharchasidagi yirik ilmiy-amaliy markazni boshqarib, neft-gaz, kimyo sanoatiga iqtisodiy foyda keltirish bilan birga, qirq yildan beri yuzlab yoshlarni qanotlari ostiga olib, ilmiy va innovatsion tadqiqotlarga rahbarlik qilib keladi.

Ustoz bo'lsangiz, albatta, yoshlarga yordam qo'lini cho'zing, ilmiy va amaliy ishla-

рини қўллаб юборинг. Қобилиятли, иқтидорли шогирдларни масъул лавозимларга тавсия этинг. Шуни билингки, фарзанди ва шогирдларини одоб-ахлоқли, билимли, ишбилармон қилиб тарбиялаган устознинг ҳаёт шаъми ҳеч қачон ўчмайди.

Ўттиз биринчи маслаҳат: душманингиз билан яқинлашиш йўллари қидиринг.

“Ақлли душман жоҳилу нодон дўстдан яхшироқ”, деганди буюк бобомиз Амир Темури (1336-1405). Яна дейдики, “Агар душманинг паноҳингга бош уриб келгудай бўлса, яхшилик қил, унга мурувват кўрсат”⁴. Соҳибқироннинг ўзлари шу гапларга амал қилиб яшаган. Яхши маълумки, Моҳон (Мари) ҳокими Алибек Жонқурбоний бир пайтлар бобомизни аҳлу аёли билан тутиб, 62 кун зиндонбанд қилади. Лекин вақт ўтиб, бир куни унинг ўзи асир тушиб қолди. Соҳибқирон ўртада ҳеч гап бўлмагандай, уни очиқ қаршилади, бошдан-оёқ сарпо берди. Яхши отлардан бирини инъом қилиб, амирлик мартабасига тайинлади⁵.

Ўттиз иккинчи маслаҳат: инсонни ёшаришга хизмат қилувчи жисмоний машқларни бажариб туринг.

⁴Амир Темури. Танбеҳлар. Тўғловчи ва таржимон Б. Аҳмедов. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси, 1996. –13-бет.

⁵Ўша жойда. –11-бет.

rini qo'llab yuboring. Qobiliyatli, iqtidorli shogirdlarni mas'ul lavozimlarga tavsiya eting. Shuni bilingki, farzandi va shogirdlarini odob-axloqli, bilimli, ishbilarmon qilib tarbiyalagan ustozning hayot sha'mi hech qachon o'chmaydi.

O'ttiz birinchi maslahat: dushmaningiz bilan yaqinlashish yo'llarini qidiring.

“Aqlli dushman johilu nodon do'stdan yaxshiroq”, degandi buyuk bobomiz Amir Temur (1336-1405). Yana deydi, “Agar dushmaning panohingga bosh urib kelguday bo'lsa, yaxshilik qil, unga muruvvat ko'rsat”⁴. Sohibqironning o'zlari shu gaplarga amal qilib yashagan. Yaxshi ma'lumki, Mohon (Mari) hokimi Alibek Jonqurboniy bir paytlar bobomizni ahlu ayoli bilan tutib, 62 kun zindonband qiladi. Lekin vaqt o'tib, bir kuni uning o'zi asir tushib qoldi. Sohibqiron o'rtada hech gap bo'lmaganday, uni ochiq qarshiladi, boshdan-oyoq sarmo berdi. Yaxshi otlardan birini in'om qilib, amirlik martabasiga tayinladi⁵.

O'ttiz ikkinchi maslahat: insonni yosharishga xizmat qiluvchi jismoniy mashqlarni bajarib turing.

⁴Amir Temur. Tanbehlar. To'plovchi va tarjimon B. Ahmedov. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1996. –13-bet.

⁵O'sha joyda. –11-bet.

Масалан, тибетликларнинг минг йиллик ёшариш сирларига оид инглиз адиби Питер Кэлдер китобининг⁶ бешта олтин қоидасига амал қилсангиз, ҳаммавақт ёш, бақувват ва соғлом юрасиз. Ўзини ёшлардай тутиш манбасини билган тибетликлар бошқа халқларга қараганда 30-35 йил ёшроқ кўринишининг сир-асрорлари кўп. Камина ҳам неча йилдирки, шу машқлардан баҳраманддир.

Ўттиз учинчи маслаҳат: одамларнинг қалбига йўл топиш санъатини пухта эгалланг.

Қайси лавозимда ишлашингиздан қатъи назар, халқни алдаманг ва ҳалол хизмат қилинг. Ҳозирда 95 ёшни қаршилаган устоз муаллим, республика халқ таълими тизими собиқ раҳбари бўлган Насриддин ота Раҳмоновнинг таъкидича, “Ҳамма билан хушмуомала, кўпчилик билан дилкаш, айримлар билан эса бетакаллуф бўлинг”. Шунда эл-улуснинг назаридан қолмайсиз, халқ ҳам сизни узоқ вақт эслаб юради.

Яхши раҳбар – одамларни эшитадиган раҳбардир. Амир Темур одат қилганидек: “Маслаҳат, кенгаш, тадбиркорлик, фаоллик ва хушёрлик билан иш тутинг”.

⁶Қаранг.: Кэлдер П. Тибет ламаларининг минг йиллик ёшариш сирлари. Тошкент, Наврўз, 2013.

Masalan, tibetliklarning ming yillik yosharish sirlariga oid ingliz adibi Piter Kelder kitobining⁶ beshta oltin qoidasiga amal qilsangiz, hammavaqt yosh, baquvvat va sog'lom yurasiz. O'zini yoshlarday tutish manbasini bilgan tibetliklar boshqa xalqlarga qaraganda 30-35 yil yoshroq ko'rinishining sir-asrorlari ko'p. Kamina ham necha yildirki, shu mashqlardan bahramanddir.

O'ttiz uchinchi maslahat: odamlarning qalbiga yo'l topish san'atini puxta egallang.

Qaysi lavozimda ishlashingizdan qat'i nazar, xalqni aldamang va halol xizmat qiling. Hozirda 95 yoshni qarshilagan ustoz muallim, respublika xalq ta'limi tizimi sobiq rahbari bo'lgan Nasriddin ota Rahmonovning ta'kidicha, "Hamma bilan xushmuomala, ko'pchilik bilan dilkash, ayrimlar bilan esa betakalluf bo'ling". Shunda el-ulusning nazaridan qolmaysiz, xalq ham sizni uzoq vaqt eslab yuradi.

Yaxshi rahbar – odamlarni eshitadigan rahbardir. Amir Temur odat qilganidek: "Maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyorlik bilan ish tuting".

⁶ Qarang.: Kelder P. Tibet lamalarining ming yillik yosharish sirlari. Toshkent, Navro'z, 2013.

Иккинчи фасл
Ikkinchi fasl

БОШҚАРУВ
ВА СУҲБАТ ОДОБИ
BOSHQARUV VA SUHBAT ODOBI



Иккинчи фасл
Ikkinchi fasl

БОШҚАРУВ
ВА СУҲБАТ ОДОБИ
BOSHQARUV VA SUHBAT ODOBI



2.1. РАҲБАРЛИК ОДОБИ

Ўттиз тўртинчи маслаҳат: кам ухланг ва кўп ишланг.

Бу ҳикмат буюк тариқат пешвоси Абдулҳолиқ Ғиждувоний (1103-1179)дан бизга мерос қолган. Уйқу – ярим ўлим, дегани.

Ўзининг руҳий камолоти устида кечаю кундуз меҳнат қилган киши камолга етади. Абу Наср Форобий (873-950) юнон файласуфи Арастунинг (мил. ав. 384 – мил. ав. 322) “Жон ҳақида” деб номланган асарни қўлёзмасининг устига: “Мен бу асарни 200 марта ўқидим”, – деб ёзиб қўйган экан. Охир-оқибат, ўзи ҳам илм йўлида заҳмат чекиб, “иккинчи Аристотель”, Шарқ алломаси унвонига сазовор бўлди. Тинимсиз меҳнат бир куни ҳақиқий мевасини беради-да.

Ўттиз бешинчи маслаҳат: ҳаётда шахсий режа ва дастурларингиз бўлсин!

Инсон қисқа умрининг ҳар бир дақиқасидан унумли фойдаланиши лозим. “Мен ҳақиқатни ёзаётганимга ишонч ҳосил қил: вақтимизнинг бир қисмини куч билан тортиб оладилар, қолганини ўғирлайдилар, яна бир қисми бекорга ўтади”,– деб афсус чекканди қадимги Рим олими Сенека.

2.1. RAHBARLIK ODOBI

O'ttiz to'rtinchi maslahat: kam uxlang va ko'p ishlang.

Bu hikmat buyuk tariqat peshvosi Abdulxoliq G'ijduvoni (1103-1179)dan bizga meros qolgan. Uyqu – yarim o'lim, degani.

O'zining ruhiy kamoloti ustida kechayu kunduz mehnat qilgan kishi kamolga yetadi. Abu Nasr Forobiy (873-950) yunon faylasufi Arastuning (mil. av. 384 – mil av. 322) “Jon haqida” deb nomlangan asari qo'lyozmasining ustiga: “Men bu asarni 200 marta o'qidim”, – deb yozib qo'ygan ekan. Oxir-oqibat, o'zi ham ilm yo'lida zahmat chekib, “ikkinchi Aristotel”, Sharq allomasi unvoniga sazovor bo'ldi. Tinimsiz mehnat bir kuni haqiqiy mevasini beradi-da.

O'ttiz beshinchi maslahat: hayotda shaxsiy reja va dasturlaringiz bo'lsin!

Inson qisqa umrining har bir daqiqasidan unumli foydalanishi lozim. “Men haqiqatni yozayotganimga ishonch hosil qil: vaqtimizning bir qismini kuch bilan tortib oladilar, qolganini o'g'irlyadilar, yana bir qismi bekorga o'tadi”, – deb afsus chekkandi qadimgi Rim olimi Seneka.

Уйкуга кетишдан олдин эртанги ишларни тақсимлаб олсангиз, уларни бажариш анча осон кечади.

Пала-партишлик, тарқоқлик, бепарволик кишини таназзулга бошлайди.

Ўттиз олтинчи маслаҳат: ёнингизда ёзув дафтари, блокнот ва ручкани олиб юринг.

Кундалик учрашув, суҳбатларни унга қайд этиб борсангиз, ўтаётган ой, йилларингиз ҳақида сон-саноқсиз далиллар йиғилиб бораверади.

Ўзим ҳам Янги йил арафасида йил давомида амалга оширган ишларимни сарҳисоб қиламан. Камчилигимни эринмай қоғозга тушираман. Келажакда уларни такрорламаслик учун ўзимга сўз бераман.

Ўттиз еттинчи маслаҳат: сабр-қаноатли, чидамли киши ҳаётда ютади.

Бошингга оғир кун тушганда, ногаҳон касалга чалинганда, жарроҳлик столига ётганда нималарга қодирлигинг синов ва имтиҳондан ўтади. Бу курашларда ғолиб бўлишга интилиш керак!

Мусулмонликни қабул қилгунича исми шарифи Кассиус Клей бўлган америкалик машҳур боксчи Муҳаммад Али (1942-2016) қирқ ёшга тўлмасдан Паркинсон касалига чалинади. Довдюрак Али учун

Uyquga ketishdan oldin ertangi ishlarni taqsimlab olsangiz, ularni bajarish ancha oson kechadi.

Pala-partishlik, tarqoqlik, beparvolik kishini tanazzulga boshlaydi.

O'ttiz oltinchi maslahat: yoningizda yozuv daftari, bloknot va ruchkani olib yuring.

Kundalik uchrashuv, suhbatlarni unga qayd etib borsangiz, o'tayotgan oy, yillaringiz haqida son-sanoqsiz dalillar yig'ilib boraveradi.

O'zim ham Yangi yil arafasida yil davomida amalga oshirgan ishlarimni sarhisob qilaman. Kamchiligimni erinmay qog'ozga tushiraman. Kelajakda ularni takrorlamalik uchun o'zimga so'z beraman.

O'ttiz yettinchi maslahat: sabr-qanoatli, chidamli kishi hayotda yutadi.

Boshingga og'ir kun tushganda, nogahon kasalga chalinganda, jarrohlik stoliga yotganda nimalarga qodirliging sinov va imtihondan o'tadi. Bu kurashlarda g'olib bo'lishga intilish kerak!

Musulmonlikni qabul qilgunicha ismi sharifi Kassius Kley bo'lgan amerikalik mashhur bokschi Muhammad Ali (1942-2016) qirq yoshga to'lmasdan Parkinson kasaliga chalinadi. Dovyurak Ali uchun

машаққатли дамлар бошланади. Аммо у барча қийинчиликларни мардонавор енгиб ўтиб, ҳаётсевар ва дардга бўйсунмаслигини исботлайди. Муҳаммад Али ўз эътиқодига содиқ қолди. Беш вақт намозни канда қилмади, Пайғамбаримиз (с.а.в.) суннатларига садоқат билан эргашиб, хайрия тadbирларини ўтказди. Сўнг, ҳаёт йўли ҳақида “Шифо топиш: Бағрикенглик ва англашувлик ҳақида хотиранома” номили китобни ёзиб, босмадан чиқарди.

Ўзбек заминида туғилиб ўсган таниқли боксчи, жаҳон чемпиони Руфат Рисқиев ҳам жароҳат олгандан кейинги сабр-қаноати, букилмас иродаси, камтарона турмуш тарзи билан ёшларга ибрат бўлгулик умр кечирмоқда.

Ўттиз саккизинчи маслаҳат: танқидга тўғри муносабатда бўлинг.

“Дўст ачитиб гапиради, душман кулдириб”, дейди халқимиз. “Мураккаб” характерингиз, юриш-туриш ва ишларингиз ҳақида юзингизга ҳақ гапни айтишса, бундан хафа бўлманг. Уйга келганда “Тўғри гапирдими шу одам?”, деб танангизга бир ўйлаб кўринг. Жаҳл устида “кўрпани куйдириб қўйманг”. Айбини тан олиш – мардларнинг иши. Яхшиси, холис танқидни қабул қилиб, ўз камчилигингизни тузатишга ҳаракат қилинг.

mashaqqatli damlar boshlanadi. Ammo u barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tib, hayotsevar va dardga bo'ysunmasligini isbotlaydi. Muhammad Ali o'z e'tiqodiga sodiq qoldi. Besh vaqt namozni kanda qilmadi, Payg'ambarimiz (s.a.v.) sunnatlariga sadoqat bilan ergashib, xayriya tadbirlarini o'tkazdi. So'ng, hayot yo'li haqida "Shifo topish: Bag'rikenglik va anglashuvlik haqida xotiranoma" nomli kitobni yozib, bosmadan chiqardi.

O'zbek zaminida tug'ilib o'sgan taniqli bokschi, jahon chempioni Rufat Risqiyev ham jarohat olgandan keyingi sabr-qanoati, bukilmaz irodasi, kamtarona turmush tarzi bilan yoshlarga ibrat bo'lgulik umr kechirmoqda.

O'ttiz sakkizinchi maslahat: tanqidga to'g'ri munosabatda bo'ling.

"Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib", deydi xalqimiz. "Murakkab" xarakteringiz, yurish-turish va ishlaringiz haqida yuzingizga haq gapni aytishsa, bundan xafa bo'lmang. Uyga kelganda "To'g'ri gapirdimi shu odam?", deb tanangizga bir o'ylab ko'ring. Jahl ustida "ko'rpani kuydirib qo'ymang". Aybini tan olish - mardlarning ishi. Yaxshisi, xolis tanqidni qabul qilib, o'z kamchiligingizni tuzatishga harakat qiling.

Ўттиз тўққизинчи маслаҳат: атрофингизни қуршаган ҳамкасбларнинг мақтовига учманг.

Раҳбарлик курсисига ўтирсангиз, қўл остидагилар хушомадгўйликни ошириб юборади. Сиз бундайларнинг кирар йўлларига дарҳол ғовларни қўйиб ташланг. Мақтов – ташаббусни ўлдиради! Хушомадгўй, мадҳиябозларнинг тўрига лаққа тушиб, манманлик ва бепарволик касалига йўлиқманг. Хушомадсеварлик касалига чалинсангиз – бу иллат сизни тўғри йўлдан тойдириб, ишдан ҳайдалишга, ҳатто шармандаликка олиб келади.



O'ttiz to'qqizinchi maslahat: atrofingizni qurshagan hamkasblarning maqtoviga uchmang.

Rahbarlik kursisiga o'tirsangiz, qo'l ostidagilar xushomadgo'ylikni oshirib yuboradi. Siz bundaylarning kirar yo'llariga darhol g'ovlarni qo'yib tashlang. Maqtov - tashabbusni o'ldiradi! Xushomadgo'y, madhiyabozlarning to'riga laqqa tushib, manmanlik va beparvolik kasaliga yo'liqmang. Xushomadsevarlik kasaliga chalinsangiz - bu illat sizni to'g'ri yo'ldan toydirib, ishdan haydalishga, hatto sharmandalikka olib keladi.



2.2. НУТҚ ОДОБИ

Нутқ маданияти ҳақидаги таълимот Миср, Бобил ва Ҳиндистонда, кейинроқ Рим ва Афинада шаклланди. Ўша даврларда юқори лавозимни истаган давлат арбоби нотиқлик маҳоратига эга бўлган.

XVII-XVIII асрларда нотиқлик санъатига эътибор кучайди. Бу соҳада сарой нотиқлиги, диний нотиқлик, ҳарбий нотиқлик, дипломатик нотиқлик, сиёсий нотиқлик сингари янги йўналишлар вужудга келди. Европа мамлакатларида сиёсий нотиқлик, мусулмон оламида диний нотиқлик юксак мавқега кўтарилди.

Тилнинг яратувчиси – донишманд халқ. Инсон турли товушлардан сўз ясайди, сўзлардан жумлалар тузади, жумлаларни бир-бирига боғлаб, нутқини ирод этади. Нутқ – инсоннинг ўз ҳис-туйғулари, хотира ва таассуротларини гап орқали баён қилиш қобилияти.

Туркигўй шоир, мутафаккир Юсуф Хос Ҳожиб (1020 - ваф. номаълум) “Кутадғу билиг” (“Саодатга бошловчи билим”) асарида тилнинг фазилатлари, фойда ва зарарлари ҳақида гапириб: “Одамни тил улуғлайди,

2.2. NUTQ ODOBI

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot Misr, Bobil va Hindistonda, keyinroq Rim va Afinada shakllandi. O'sha davrlarda yuqori lavozimni istagan davlat arbobi notiqlik mahoratiga ega bo'lgan.

XVII-XVIII asrlarda notiqlik san'atiga e'tibor kuchaydi. Bu sohada saroy notiqligi, diniy notiqlik, harbiy notiqlik, diplomatik notiqlik, siyosiy notiqlik singari yangi yo'nalishlar vujudga keldi. Yevropa mamlakatlarida siyosiy notiqlik, musulmon olamida diniy notiqlik yuksak mavqega ko'tarildi.

Tilning yaratuvchisi - donishmand xalq. Inson turli tovushlardan so'z yasaydi, so'zlardan jumlar tuzadi, jumalarni bir-biriga bog'lab, nutqini irod etadi. Nutq - insonning o'z his-tuyg'ulari, xotira va taassurotlarini gap orqali bayon qilish qobiliyati.

Turkigo'y shoir, mutafakkir Yusuf Xos Hojib (1020 - vaf. noma'lum) "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asarida tilning fazilatlarini, foyda va zararlari haqida gapirib: "Odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi,

уни бахтиёр қилади, шунингдек, тил одамини беқадр ҳам қилади, унинг бошига балолар келтиради”, дейди. Китобда ёзилишича, бир куни подшо вазиридан сўзнинг ози ёки кўпининг чегараси қанақа бўлишини сўрайди. Вазир Ойтўлди шундай жавоб қайтаради: “Сўралмаган нарсалар ҳақида кўп гапириб кўнгилга тегилса, сўзнинг кўпи шу бўлади. Сўралган сўзга лойиқ сўз билан жавоб қайтарилса, сўзнинг ози шу бўлади. Сен сўраганларида сўзлагин ва дарҳол сўзни тугатгин. Кўпроқ тинглагин, лекин ўзинг кўп сўзламагин, заковат билан сўзлагин, билим билан сўзни андазалагин”⁷.

Йирик нотик ва тарихчи Хусайн Воиз Кошифий (1440-1505)нинг эътирофича, “Одамзоднинг шарафи нутқи билан ва нутқ одобига риоя қилмаган одам бу шарафдан бебахрадир”.

Юқоридагиларга таянган ҳолда, қуйидаги қайдларимизни баён қиламиз:

Биринчидан, яхши сўзлай олиш (нутқ) қобилиятини нафақат санъат, ҳаттоки ноёб ҳунар, десак ҳам бўлади. Бу зўр ҳунарни эгаллашни болалик ва ўсмирлик давридан бошланг.

⁷Қаранг.: Қадимий ҳикматлар. Қиссалар. Тузувчи Н. Раҳмонов.–Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 134-135-бет.

shuningdek, til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi”, deydi. Kitobda yozilishicha, bir kuni podsho vaziridan soʻzning ozi yoki koʻpining chegarasi qanaqa boʻlishini soʻraydi. Vazir Oytoʻldi shunday javob qaytaradi: “Soʻrilmagan narsalar haqida koʻp gapirib koʻngilga tegilsa, soʻzning koʻpi shu boʻladi. Soʻralgan soʻzga loyiq soʻz bilan javob qaytarilsa, soʻzning ozi shu boʻladi. Sen soʻraganlarida soʻzlagin va darhol soʻzni tugatgin. Koʻproq tinglagin, lekin oʻzing koʻp soʻzlamagin, zakovat bilan soʻzlagin, bilim bilan soʻzni andazalagin”⁷.

Yirik notiq va tarixchi Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505)ning eʼtiroficha, “Odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir”.

Yuqoridagilarga tayangan holda, quyidagi qaydlarimizni bayon qilamiz:

*Birinchi*dan, yaxshi soʻzlay olish (nutq) qobiliyatini nafaqat sanʼat, hattoki noyob hunar, desak ham boʻladi. Bu zoʻr hunarni egallashni bolalik va oʻsmirlik davridan boshlang.

⁷ Qarang.: Qadimiy hikmatlar. Qissalar. Tuzuvchi N. Rahmonov.–T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. 134-135-bet.

Иккинчидан, нутқ маданияти, сўз бойлигини китоблар мутолааси билан ошириб боринг. Гапни тушунарли ва таъсирли ифодалаш, товуш, сўз, оҳанг ва тин олиш (пауза)лардан тўғри фойдаланиш, ифода ва ибораларни ҳадеб қайтаравермасликни болалиқдан ўрганинг.

Учинчидан, нотиқнинг тингловчиларни оҳанграбодек ўзига тортиши бадий тасвир воситаларидан фойдаланишига боғлиқ. Шахсий кузатишларим асосида, нафис қалб соҳибаси Турсуной Содиқовани (охирати обод бўлсин), истеъдодли шоир Абдували Қутбиддинни, тилшунос олим Раҳим Жуманиёзни яхши нотиқ, дегим келади.

Тўртинчидан, инсоннинг сўзлаш оҳанги, нутқининг савия даражаси унинг нақадар одоб-ахлоқли одамлигини белгилаб беради. Ҳассос адиблар Тоҳир Малик, Хуршид Дўстмуҳаммад гапириш услубида уларнинг ички оламини кўргандай бўламиз.

Бешинчидан, нутқ – фикримиз, билимимиз, дунёқарашимизнинг сўзлар орқали намоён бўлиши, деган фикрга келганман.

Биз бир қатор тадқиқотларимиз, жумладан “Сиёсий етакчининг нотиқлик маҳорати” (Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти, 2000),

Ikkinchidan, nutq madaniyati, soʻz boyligini kitoblar mutolaasi bilan oshirib boring. Gapni tushunarli va taʼsirli ifodalash, tovush, soʻz, ohang va tin olish (pauza)lardan toʻgʻri foydalanish, ifoda va iboralarni hadeb qaytaravermaslikni bolalikdan oʻrganing.

Uchinchidan, notiqning tinglovchilarni ohangrabodek oʻziga tortishi badiiy tasvir vositalaridan foydalanishiga bogʻliq. Shaxsiy kuzatishlarim asosida, nafis qalb sohibasi Tursunoy Sodiqovani (oxirati obod boʻlsin), isteʼdodli shoir Abduvali Qutbiddinni, tilshunos olim Rahim Jumaniyozni yaxshi notiq, degim keladi.

Toʻrtinchidan, insonning soʻzlash ohangi, nutqining saviya darajasi uning naqadar odob-axloqli odamligini belgilab beradi. Hassos adiblar Tohir Malik, Xurshid Doʻstmuhammad gapirish uslubida ularning ichki olamini koʻrganday boʻlamiz.

Beshinchidan, nutq – fikrimiz, bilimimiz, dunyoqarashimizning soʻzlar orqali namoyon boʻlishi, degan fikrga kelganman.

Biz bir qator tadqiqotlarimiz, jumladan “Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati” (Toshkent, “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2000),

“Нотиқнинг нуфузи” (Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2001) номли китобларимизда нотиқлик маданиятининг айрим сир-асрорларига алоҳида тўхталиб ўтганмиз. Бу борада янги-янги тадқиқотлар яратишни давр талаб қилмоқда. Сабаби, нутқ, муомила ва сўзлаш санъатини эгаллаган ёшларнинг униб-ўсиши ва жамиятда ўрнини топиши осон кечади.



“Notiqning nufuzi” (Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2001) nomli kitoblarimizda notiqlik madaniyatining ayrim sir-asrorlariga alohida to‘xtalib o‘tganmiz. Bu borada yangi yangi tadqiqotlar yaratishni davr talab qilmoqda. Sababi, nutq, muomala va so‘zlash san’atini egallagan yoshlarning unib-o‘shishi va jamiyatda o‘rnini topishi oson kechadi.



2.3. СУХБАТ ОДОБИ

Сухбат одоби дейилганда – содда ва ўринли гапириш, қисқа ва мазмундор сўзлаш, эзмалик ва лақмаликдан қочиш, устоз-мураббийлар олдида одобни сақлаш, тўғри ва рост гапириш, ёлғончилик ва тил-ёғмаликдан тийилиш тушунилади.

Сухбат одоби – ўғил-қизларимиз учун зарур бўлган ахлоқий қоидалардан бири. Фарзандларимиз ахлоқ-одобни аввало оилада ўрганишади. Ота-онанинг сухбат чоғида майин, баланд ё паст овозда гапириши, мулойим ёки жаҳлдорлиги, ўзини қандай тутиши, уйда бир-бирига ён босиш ё босмаслиги, ҳатто мимикалари ҳам болаларнинг онги ва психологиясига сингиб боради. “Қуш уясида кўрганини қилади”, деган мақол беҳуда айтилмаган.

Уч ёшдан олти ёшгача – боғча, олти-етти ёшдан – мактаб, ўн етти ёшдан – институтга борган ўғил-қизларимизда сухбатлашиш одоби ва расм-русумлари шаклланади. Улар “Қуръони Карим” ўзбекча матни, Ҳадиси шариф, Алишер Навоийнинг “Хамса” дostonлари, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”, Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар”, Чўлпоннинг “Кеча

2.3. SUHBAT ODOBI

Suhbat odobi deyilganda – sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik va laqmalikdan qochish, ustoz-murabbiylar oldida odobni saqlash, to‘g‘ri va rost gapirish, yolg‘onchilik va tilyog‘malikdan tiyilish tushuniladi.

Suhbat odobi – o‘g‘il-qizlarimiz uchun zarur bo‘lgan axloqiy qoidalardan biri. Farzandlarimiz axloq-odobni avvalo oilada o‘rganishadi. Ota-onaning suhbat chog‘ida mayin, baland yo past ovozda gapirishi, muloyim yoki jahldorligi, o‘zini qanday tutishi, uyda bir-biriga yon bosish yo bosmasligi, hatto mimikalari ham bolalarning ongi va psixologiyasiga singib boradi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan maqol behuda aytilmagan.

Uch yoshdan olti yoshgacha – bog‘cha, olti-yetti yoshdan – maktab, o‘n yetti yoshdan – institutga borgan o‘g‘il-qizlarimizda suhbat-lashish odobi va rasm-rusumlari shakllanadi. Ular “Qur‘oni Karim” o‘zbekcha matni, Hadisi sharif, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Cho‘lponning “Kecha

ва кундуз” романлари, машҳур олим, даврининг имоми, собиқ шўро ҳудудидаги мусулмон умматининг виждони Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуфнинг суҳбат, маъруза, рисолалари, замондош адибимиз Тоҳир Маликнинг “Одамийлик қиссаси” каби китобларида баён этилган шарқона одоб-ахлоқ қоидаларидан бохабар бўлиб борадилар.

Шайх Саъдий Шерозий издоши Муъин Жувайнийнинг “Нигористон” асарида (XIV аср) ёзилганидек, “Сўзни ҳакимлардан эшит, машҳур кишилар билан суҳбатда бўл, билмаганингни олимдан сўра, чунки мулойим одамларнинг сўзларида ҳотамлик бор. Машҳур кишилар билан суҳбатда зарурат бордир”⁸.

Хусайн Воиз Кошифий “Футувватномаи султоний” асарида суҳбат бобида сўз юритаётиб, шайхларни – “мартабага эришганлар”, муридлар ва бошқаларни – “мартабага эришмаганлар” тоифасига бўлган экан.

Мартабага эришганлар: *биринчидан*, ҳар кимнинг аҳволига қараб муносиб сўзни айтиш; *иккинчидан*, дағаллик қилмасдан, лутф ва мулойимлик билан гапириш; *учинчидан*, гапираётганда, табассум билан очилиб

⁸Қаранг.: Аждодлар ўғити. Ҳикоятлар, ҳикматлар, тамсиллар. Тўпловчи ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. – Т.: Чўлпон, 1990. 89-90 бет.

va kunduz” romanlari, mashhur olim, davrning imomi, sobiq sho‘ro hududidagi musulmon ummatining vijdoni Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning suhbat, ma‘ruza, risolalari, zamondosh adibimiz Tohir Malikning “Odamiylik qissasi”kabi kitoblarida bayon etilgan sharqona odob-xloq qoidalaridan boxabar bo‘lib boradilar.

Shayx Sa‘diy Sheroziy izdoshi Mu‘in Juvayniyning “Nigoriston” asarida (XIV asr) yozilganidek, “So‘zni hakimlardan eshit, mashhur kishilar bilan suhbatda bo‘l, bilmaganingni olimdan so‘ra, chunki muloyim odamlarning so‘zlarida hotamlik bor. Mashhur kishilar bilan suhbatda zarurat bordir”⁸.

Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomayi sultoniy” asarida suhbat bobida so‘z yuritayotib, shayxlarni – “martabaga erishganlar”, muridlar va boshqalarni – “martabaga erishmaganlar” toifasiga bo‘lgan ekan.

Martabaga erishganlar: *birinchidan*, har kimning ahvoliga qarab munosib so‘zni aytish; *ikkinchidan*, dag‘allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirish; *uchinchidan*, gapirayotganda, tabassum bilan ochilib

⁸Qarang.: Ajdodlar o‘giti. Hikoyatlar, hikmatlar, tamsillar. To‘plovchi va izohlar muallifi B. Ahmedov. – T.: Cho‘lpon, 1990. 89-90 bet.

сўзлашиш; *тўртинчидан*, овозни баланд кўтармасдан, эшитувчиларга малол келтирмайдиган қилиб гапириш; *бешинчидан*, одамларга нафи тегадиган маъноли гапларни гапириш; *олтинчидан*, агар сўзнинг қиммати ва қадри бўлмаса, уни тилга олмаслик одобини билиши лозим.

Мартабага эришмаганлар: *биринчидан*, сўрамагунларича гапирмаслик; *иккинчидан*, гапираётганда овозини кўтармаслик; *учинчидан*, гапираётганда ўнгу сўлга қарайвермаслик; *тўртинчидан*, ғаразли ва кинояли гапларни айтмаслик; *бешинчидан*, қаттиқ гапирмаслик ва бетга чопарлик қилмаслик; *олтинчидан*, пушаймон бўлмаслик учун ўйлаб гапириш; *еттинчидан*, одамларнинг гапини бўлиб ёки менсимаган оҳангда сўз қотмаслик; *саккизинчидан*, кўп гапирмаслик одобини эгаллаши даркор⁹.

Ушбу ибратли фикрларга қўшилган ҳолда, суҳбат одобига тааллуқли баъзи тавсияларимизни сизга ҳавола этамиз:

1. Уйда, кўча-кўйда ва идорада ёлғон сўзламанг. Ёлғончилик – ёмон иллатдир.

2. Бировларни ғийбат қилманг. Орқадан гапириш марднинг иши эмас. Мабодо шундай

⁹Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Н. Комилов таржимаси. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси, 1994. 58-бет.

so'zlashish; *to'rtinchidan*, ovozni baland ko'tarmasdan, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirish; *beshinchidan*, odamlarga nafi tegadigan ma'noli gaplarni gapirish; *oltinchidan*, agar so'zning qimmati va qadri bo'lmasa, uni tilga olmaslik odobini bilishi lozim.

Martabaga erishmaganlar: *birinchidan*, so'ramagunlaricha gapirmaslik; *ikkinchidan*, gapirayotganda ovozini ko'tarmaslik; *uchinchidan*, gapirayotganda o'ngu so'lga qarayvermaslik; *to'rtinchidan*, g'arazli va kinoyali gaplarni aytmaslik; *beshinchidan*, qattiq gapirmaslik va betga choparlik qilmaslik; *oltinchidan*, pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirish; *yettinchidan*, odamlarning gapini bo'lib yoki mensimagan ohangda so'z qotmaslik; *sakkizinchidan*, ko'p gapirmaslik odobini egallashi darkor⁹.

Ushbu ibratli fikrlarga qo'shilgan holda, suhbat odobiga taalluqli ba'zi tavsiyalarimizni sizga havola etamiz:

1. Uyda, ko'cha-ko'yda va idorada yolg'on so'zlamang. Yolg'onchilik – yomon illatdir.
2. Birovlarni g'iybat qilmang. Orqadan gapirish mardning ishi emas. Mabodo shunday

⁹ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyyohud javonmardlik tariqati. N. Komilov tarjiması. – T.: A. Qodiriyy nomidagi xalq merosi, 1994. 58-bet.

қилсангиз, эртага ўзингиз тўғрисида ғийбат гапларни эшитиб қолсангиз, асло ажабланманг. “Беайб – парвардигор” дейдилар.

3. Ишхонада ҳамкасблар ҳақида ножоиз сўзларни айтманг.

4. Ҳаётда оқ ва қора ранг бирга юради. Шундай экан, ўзингизни мақташ касалидан сақланинг. Мақтаниш – такаббурлик меvasи. “Такаббурлик – шайтон иши, ўзини катта олиш – нодон иши”, дейди ҳазрат Навоий.

5. Ўзингизга бино қўйманг! Бу учта сўз ҳаётда дастурингиз ва шиорингиз бўлсин! Зеро, инсоннинг мансабдан тойиб кетиши, тубанликка юз буриши аввало ўзига бино қўйиш касалидан бошланади.

(Кейинги йилларда юртимизда сохта “арбоб”лар, “бойваччалар” иш фаолиятининг фожиаи тугагани фикримизни тасдиқлайди – Б.О.).

6. Омонат, сирли сўзларни ичингизда сақланг ва уни оммага ошкор этишдан тийилинг.

7. Ҳар қандай ишда танглик қилманг. Зотан, бағрикенг одамнинг дўсти жуда бисёр бўлади.

8. Мажлис ва учрашувларда фикрингизни баён қилмоқчи бўлсангиз, олдин уни пишитиб, кейин сўзлашга ўрганинг.

qilsangiz, ertaga o'zingiz to'g'risida g'iybat gaplarni eshitib qolsangiz, aslo ajablanmang. "Beayb – parvardigor" deydilar.

3. Ishxonada hamkasblar haqida nojoiz so'zlarni aytmang.

4. Hayotda oq va qora rang birga yuradi. Shunday ekan, o'zingizni maqtash kasalidan saqlaning. Maqtanish – takabburlik mevasi. "Takabburlik – shayton ishi, o'zini katta olish – nodon ishi", deydi hazrat Navoiy.

5. O'zingizga bino qo'ymang! Bu uchta so'z hayotda dasturingiz va shioringiz bo'lsin! Zero, insonning mansabdan toyib ketishi, tubanlikka yuz burishi avvalo o'ziga bino qo'yish kasalidan boshlanadi.

(Keyingi yillarda yurtimizda soxta "arbob"lar, "boyvachchalar" ish faoliyatining fojiali tugagani fikrimizni tasdiqlaydi – B.O.).

6. Omonat, sirli so'zlarni ichingizda saqlang va uni ommaga oshkor etishdan tiyiling.

7. Har qanday ishda tanglik qilmang. Zotan, bag'rikeng odamning do'sti juda bisyor bo'ladi.

8. Majlis va uchrashuvlarda fikringizni bayon qilmoqchi bo'lsangiz, oldin uni pishitib, keyin so'zlashga o'rganing.

2.4. БОШҚАРУВ ОДОБИ

Энди бошқарув санъати, раҳбарликнинг одоблари ҳақида озгина гаплашамиз. Агар омадингиз чопиб, сиз бир идорага бўлим бошлиғи ё раҳбар этиб тайинлансангиз, ишни нимадан бошлаган бўлардингиз?

Таниш манзара... Дўстлар, биродарлар сизни телефонда табриклашга тушади. Яқин кишилар кабинетингиз олдида аллақачон пайдо бўлишди.

Дўстим, сиз қутлов ва мақтовларга ҳеч берилманг. Яхшиси, идоранинг муаммолари устида кўпроқ бош қотиринг.

Шахсий тажрибамдан келиб чиқиб, бу борада айрим маслаҳатларимни сиз билан ўртоқлашаман.

1

Адолатли раҳбар бўлинг! Амир Темур бобомиз ёзганидек, “Бир кунлик адолат юз кунлик тоат-ибодатдан афзалроқ”.

Сиз раҳбарлик курсисига ўтиргандан кейин ишни жамоанинг ҳар бир ходими билан яккама-якка суҳбат қуришдан бошланг. Кадрларнинг туғилган жойи, келиб чиқиши, оилавий шароитини билинг. Кейин махсус билими ва тажрибаси ҳақида ахборот йиғсангиз, келгуси ишларни юриштишда фойдадан холи бўлмайди.

2.4. BOSHQARUV ODOBI

Endi boshqaruv san'ati, rahbarlikning odoblari haqida ozgina gaplashamiz. Agar omadingiz chopib, siz bir idoraga bo'lim boshlig'i yo rahbar etib tayinlansangiz, ishni nimadan boshlagan bo'lardingiz?

Tanish manzara... Do'stlar, birodarlar sizni telefonda tabriklashga tushadi. Yaqin kishilar kabinetingiz oldida allaqachon paydo bo'lishdi.

Do'stim, siz qutlov va maqtovlarga hech berilmang. Yaxshisi, idoraning muammolari ustida ko'proq bosh qotiring.

Shaxsiy tajribamdan kelib chiqib, bu borada ayrim maslahatlarimni siz bilan o'rtoqlashaman.

1

Adolatli rahbar bo'ling! Amir Temur bobomiz yozganidek, "Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzalroq".

Siz rahbarlik kursisiga o'tirgandan keyin ishni jamoaning har bir xodimi bilan yakkama-yakka suhbat qurishdan boshlang. Kadrlarning tug'ilgan joyi, kelib chiqishi, oilaviy sharoitini biling. Keyin maxsus bilimi va tajribasi haqida axborot yig'sangiz, kelgusi ishlarni yuritishda foydadan xoli bo'lmaydi.

2

Шахсан ўзингиз бошқалардан фарқ қиладиган бошқарув услубини қўллашни бошланг. Одамлар ишлаш принципингиз – қаттиққўл, талабчан, айтганини қилдирадиган ёки юмшоқ киши эканлигингизни англагач, шундай “шароит”га мослашишни ўйлаб қолишади.

3

Ходимларни ишга қабул қилишда уларнинг билим савияси, ишчанлиги, имон-этиқоди ва ички маданиятига ҳам этибор беринг.

Таниш-билишчилик, қариндош-уруғчилик – раҳбарнинг ишдан кетишини тезлаштиради, холос. Олдинги тузумларга хос бўлган иллатга урғу бериб, яна панд еб қолманг.

4

Қўрқитиш, пўписа усуллари ишлатмаган маъқул. Бу ҳам эскирган, истиқболсиз иш услуби. Ҳар ишда оқибатни ўйланг.

Ҳар кунги ишингизни ширин муомала, такаллуф билан бошланг. Қобилиятли кишиларни топиб, уларни қўлланг, аммо истеъдодсиз, саводи йўқ, дангаса, сафсатабоз кадрларни тарбиялашга уринманг.

5

Идорангиз молиявий жиҳатдан бақувват бўлса, ходимларни рағбатлантириб туринг.

2

Shaxsan o'zingiz boshqalardan farq qiladigan boshqaruv uslubini qo'llashni boshlang. Odamlar ishlash prinsipingiz – qattiqqo'l, talabchan, aytganini qildiradigan yoki yumshoq kishi ekanligingizni anglagach, shunday “sharoit”ga moslashishni o'ylab qolishadi.

3

Xodimlarni ishga qabul qilishda ularning bilim saviyasi, ishchanligi, imon-e'tiqodi va ichki madaniyatiga ham e'tibor bering.

Tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik – rahbarning ishdan ketishini tezlashtiradi, xolos. Oldingi tuzumlarga xos bo'lgan illatga urg'u berib, yana pand yeb qolmang.

4

Qo'rqitish, po'pisa usullarini ishlatmagan ma'qul. Bu ham eskirgan, istiqbolsiz ish uslubi. Har ishda oqibatni o'ylang.

Har kungi ishingizni shirin muomala, takalluf bilan boshlang. Qobiliyatli kishilarni topib, ularni qo'llang, ammo iste'dodsiz, savodi yo'q, dangasa, safsataboz kadrlarni tarbiyalashga urinmang.

5

Idorangiz moliyaviy jihatdan baquvvat bo'lsa, xodimlarni rag'batlantirib turing.

Эскидан келаётган шу усул қўлланилса, ишингизда самара кўрина бошлайди.

6

Беш бармоқ баравар бўлмаганидек, ходимлар ичида мулойим, шартаки, хушомадгўй, инжиқ ва худбин кишилар учрайди. Сиз уларни феъл-хўйи, характериға қараб ишлатинг.

7

Топшириқни аниқ ва тушунарли ифода этинг. Ишхонада бу жуда муҳим омил. Агар самарани тезроқ кўришни истасангиз, ходимларға ўз шартларингизни дангал айтинг ва гапларингизни блокнотға ёздилинг. Нимани кутишингиз ва яхши удалашса, ҳатто рағбатлантиришингиз мумкинлигини айтинг. Шунда ходимлар жонини жабборға бериб ишлайди.

8

Сиз ўзингиз учун қисқа (минимум) ва узоқ муддатли (максимум) режа дастурларни тузинг.

Уларни муовинлар ва жамоа аъзолари билан муҳокама қилиб, “пишитгандан” сўнггина, дадил ҳаракатни бошланг. Маслаҳат ва кенгаш ишда кўп асқотади.

9

Шарқона дипломатияға кўра, ходимларни мулойимлик, “устамонлик” билан ўз

Eskidan kelayotgan shu usul qo'llanilsa, ishingizda samara ko'rina boshlaydi.

6

Besh barmoq baravar bo'lmaganidek, xodimlar ichida muloyim, shartaki, xushomadgo'y, injiq va xudbin kishilar uchraydi. Siz ularni fe'l-xo'yi, xarakteriga qarab ishlatib.

7

Topshiriqni aniq va tushunarli ifoda eting. Ishxonada bu juda muhim omil. Agar samarani tezroq ko'rishni istasangiz, xodimlarga o'z shartlaringizni dangal ayting va gaplaringizni bloknotga yozdiring. Nimani kutishingiz va yaxshi uddalashsa, hatto rag'batlantirishingiz mumkinligini ayting. Shunda xodimlar jonini jabborga berib ishlaydi.

8

Siz o'zingiz uchun qisqa (minimum) va uzoq muddatli (maksimum) reja dasturlarni tuzing.

Ularni muovinlar va jamoa a'zolari bilan muhokama qilib, "pishitgandan" so'nggina, dadil harakatni boshlang. Maslahat va kengash ishda ko'p asqotadi.

9

Sharqona diplomatiyaga ko'ra, xodimlarni muloyimlik, "ustamonlik" bilan o'z

тарафингизга “оғдириб” олинг. Билимдон, шижоатли кишилардан жанговар “команда”ни тузинг.

Хушомадгўй, қуллуқ қилувчи одамлардан қочинг. Агар фидойи, садоқатли ходимлардан жамоани шакллантира олсангиз, ишларингиз силлиқ, самарали ва сифатли кечади.

10

Буйруқ, фармойишлар тайёрлаганда, қисқа муддатларни қўйинг. Унинг натижасини олдинроқ кўришни хоҳласангиз, муовинлар билан ишларнинг назоратини тўхтатманг.

11

Жамоа аъзолари руҳини кўтаришга ҳаракат қилинг. Ходимлар орасида аҳил, дўстона муҳитни яратинг. Айниқса, байрам кунлари бундай имкондан унумли фойдаланган маъқул. Байрам зиёфатларида жамоа билан бирга бўлинг.

12

Тажрибали, ишчан ходимларнинг ютуғини бошқаларга ўрнак қилиб кўрсатишни одат қилинг. Жамоа қўлга киритган улкан ишларни эътироф эта бошласангиз, одамларнинг руҳи кўтарилиб, меҳнатга иштиёқи ошади.

tarafingizga “og‘dirib” oling. Bilimdon, shijoatli kishilardan jangovar “komanda”ni tuzing.

Xushomadgo‘y, qulluq qiluvchi odamlardan qoching. Agar fidoyi, sadoqatli xodimlardan jamoani shakllantira olsangiz, ishlaringiz silliq, samarali va sifatli kechadi.

10

Buyruq, farmoyishlar tayyorlaganda, qisqa muddatlarni qo‘ying. Uning natijasini oldinroq ko‘rishni xohlasangiz, muovinlar bilan ishlarning nazoratini to‘xtatmang.

11

Jamoa a‘zolari ruhini ko‘tarishga harakat qiling. Xodimlar orasida ahil, do‘stona muhitni yarating. Ayniqsa, bayram kunlari bunday imkondan unumli foydalangan ma‘qul. Bayram ziyofatlarida jamoa bilan birga bo‘ling.

12

Tajribali, ishchan xodimlarning yutug‘ini boshqalarga o‘rnak qilib ko‘rsatishni odat qiling. Jamoa qo‘lga kiritgan ulkan ishlarni e‘tirof eta boshlasangiz, odamlarning ruhi ko‘tarilib, mehnatga ishtiyoqi oshadi.

13

Ҳар бир ходимнинг рейтинг даражаси ва маълумот-харитасини тузиб чиқинг. Уларда жамоа аъзоларининг шахсий лаёқати, хислатлари, ички имкониятини қайд этиб боринг.

Қарс икки қўлдан чиқади, дейишади. Сиз ходимлардан билими, хоҳиш-истаги, шароитига қараб ишни талаб этсангиз, ишхонага қут-барака ёғилади.

14

Одамларнинг истеъдоди, касб-хунарини бемалол, беҳижолат намоён эта олишига шароит туғдиринг. Иш вақтида тепасига бориб ўтирманг. Чунки инсон ўзини четдан кузатиб туришганини сезса, ишлагиси келмайди.

15

Кексаларга ва ёшларга ҳар бирига ўзига хос услубда иззат-икром, ғамхўрлик кўрсатинг. Ўзингиз ҳам бошқаларга ўрнак бўлинг. Раҳбарнинг шахсий ибрати ва гўзал муомаласи ишхонага хайру барака келтиради, деган гап бежиз айтилмаган.

16

Тепадан тезкор топшириқлар бўлган пайтларда жамоа бирлашади, жипслашади. Уларни бажариш чоғида жамоа аъзоларининг фикрлари, таклифлари инобатга олинса,

13

Har bir xodimning reyting darajasi va ma'lumot-xaritasini tuzib chiqing. Ularda jamoa a'zolarining shaxsiy layoqati, xislatlari, ichki imkoniyatini qayd etib boring.

Qars ikki qo'ldan chiqadi, deyishadi. Siz xodimlardan bilimi, xohish-istagi, sharoitiga qarab ishni talab etsangiz, ishxonaga qut-baraka yog'iladi.

14

Odamlarning iste'dodi, kasb-hunarini bemalol, bexijolat namoyon eta olishiga sharoit tug'diring. Ish vaqtida tepasiga borib o'tirmang. Chunki inson o'zini chetdan kuzatib turishganini sezsa, ishlagisi kelmaydi.

15

Keksalarga va yoshlarga har biriga o'ziga xos uslubda izzat-ikrom, g'amxo'rlik ko'rsating. O'zingiz ham boshqalarga o'rnak bo'ling. Rahbarning shaxsiy ibrati va go'zal muomalasi ishxonaga xayru baraka keltiradi, degan gap bejiz aytilmagan.

16

Tepadan tezkor topshiriqlar bo'lgan paytlarda jamoa birlashadi, jiplashadi. Ularni bajarish chog'ida jamoa a'zolarining fikrlari, takliflari inobatga olinsa,

ходимлар: “Бошлиқ биз билан ҳисоблашади”, деган хулосага келади.

17

Ишхона равнақи учун янги ғоялар, таклифлар берган ташаббускор, ақлли ходимларнинг фикрини эшитинг. Аммо бундайларни қўллаб-қувватлаб туришни ҳам асло унутманг.

18

Асосли танқид – келажакнинг меваси. Баъзи ёш ходимлар кўпинча нотўғри йўлдан кетаётганини ўзлари сезмай қолади. Уларнинг хатосини топсангиз, ҳамманинг олдида айтиб ўтирманг. Олдингизга чақириб, камчилигини ўзига тушунтиринг.

19

Раҳбарлик – масъулиятли вазифа. Унинг қуёшли, қор-бўронли, тўполонли кунлари бўлади. Соҳасини яхши билган, ташкилотчи раҳбар эса қоқилмайди.

Сиз ҳам уларга ўхшаб, қийинчилик ва синовларга чиданг. Шу билан бирга, ютуқлардан кўп ҳам шодланманг. Оғир, вазмин бўлинг, пастга тойиб кетишдан ўзингизни асранг.

20

Юксак орзуларга ҳамиша интилиб яшанг. Бошқалардан ҳам оптимист бўлишни талаб қилинг. Ишни қойилмақом адо

xodimlar: “Boshliq biz bilan hisoblashadi”, degan xulosaga keladi.

17

Ishxona ravnaqi uchun yangi g'oyalar, takliflar bergan tashabbuskor, aqlli xodimlarning fikrini eshiting. Ammo bundaylarni qo'llab-quvvatlab turishni ham aslo unutmang.

18

Asosli tanqid – kelajakning mevasi. Ba'zi yosh xodimlar ko'pincha noto'g'ri yo'ldan ketayotganini o'zlari sezmay qoladi. Ularning xatosini topsangiz, hammaning oldida aytib o'tirmang. Oldingizga chaqirib, kamchiligini o'ziga tushuntiring.

19

Rahbarlik – mas'uliyatli vazifa. Uning quyoshli, qor-bo'ronli, to'polonli kunlari bo'ladi. Sohasini yaxshi bilgan, tashkilotchi rahbar esa qoqilmaydi.

Siz ham ularga o'xshab, qiyinchilik va sinovlarga chidang. Shu bilan birga, yutuqlardan ko'p ham shodlanmang. Og'ir, vazmin bo'ling, pastga toyib ketishdan o'zingizni asrang.

20

Yuksak orzularga hamisha intilib yashang. Boshqalardan ham optimist bo'lishni talab qiling. Ishni qoyilmaqom ado etayotgan

этаётган ходимларнинг марра “нарвонча”-сини сал кўтариб қўйинг, токи тўхтаб қолишмасин.

21

Касбингизга қаттиқ меҳр қўйинг! Чунки шу касб-ҳунар оилангизни боқиб турган экан, кундалик иш-юмушларни завқ-шавқ билан бажаришдан толманг. Бу хатти-ҳаракатингизни кўрган ходимлар сиздан андоза олади.

22

Ходимларга барча шароитни яратиб қўйсангиз, тилингиз узун бўлади. Телефон, интернет, факс сингари замонавий техникаларни улаб беринг, Бундай зарур омиллар, шубҳасиз, ишларга ижобий таъсир этади.

23

Турли-туман тадбир, туғилган кун, байрамларда ёки ҳар чорак ва йилнинг якуний йиғилишларида энг яхши ишловчи ходимларни мукофотлаш, совға-саломлар, раҳматномалар топширишни канда қилманг. Бундай рағбатланиш одамларда ишонч, умидни уйғотади.

24

Ходимлардан ҳар доим зерикарли, бир хил ишни талаб этманг. Ишхонада ранг-баранглик, янги фикрлар, инновациялар бўл-

xodimlarning marra “narvoncha”sini sal ko‘tarib qo‘ying, toki to‘xtab qolishmasin.

21

Kasbingizga qattiq mehr qo‘ying! Chunki shu kasb-hunar oilangizni boqib turgan ekan, kundalik ish-yumushlarni zavq-shavq bilan bajarishdan tolming. Bu xatti-harakatingizni ko‘rgan xodimlar sizdan andoza oladi.

22

Xodimlarga barcha sharoitni yaratib qo‘ysangiz, tilingiz uzun bo‘ladi. Telefon, internet, faks singari zamonaviy texnikalarni ulab bering, Bunday zarur omillar, shubhasiz, ishlarga ijobiy ta‘sir etadi.

23

Turli-tuman tadbir, tug‘ilgan kun, bayramlarda yoki har chorak va yilning yakuniy yig‘ilishlarida eng yaxshi ishlovchi xodimlarni mukofotlash, sovg‘a-salomlar, rahmatnomalar topshirishni kanda qilmang. Bunday rag‘batlanish odamlarda ishonch, umidni uyg‘otadi.

24

Xodimlardan har doim zerikarli, bir xil ishni talab etmang. Ishxonada rang-baranglik, yangi fikrlar, innovatsiyalar bo‘lgani tuzuk.

гани тузук. Имкон топилса, табиат қўнига сайр-саёҳатлар уюштиринг. Ҳордиқдан кейин ходимларингиз ўз таассуротини узоқ вақт гапириб юради. Булар ҳаммаси – ишхонада ижодий муҳитни яхшилайти.

Ишонч қозонган ёшларни янги лавозимларга ўтказинг. Айрим шогирдларни давлат органларидаги муносиб ишларга тавсия қилинг. Уларнинг униб-ўсишига кўмаклашинг.

Ана шу саъй-ҳаракат ва заҳматлар бир куни мевасини беради, деб ҳисоблаймиз.

Омон бўлинг, азизлар.

Кўришгунча, хайр.



Imkon topilsa, tabiat qo'yniga sayr-sayohatlar uyushtiring. Hordiqdan keyin xodimlaringiz o'z taassurotini uzoq vaqt gapirib yuradi. Bular hammasi – ishxonada ijodiy muhitni yaxshilaydi.

Ishonch qozongan yoshlarni yangi lavozimlarga o'tkazing. Ayrim shogirdlarni davlat organlaridagi munosib ishlarga tavsiya qiling. Ularning unib-o'sishiga ko'maklashing.

Ana shu sa'y-harakat va zahmatlar bir kuni mevasini beradi, deb hisoblaymiz.

Omon bo'ling, azizlar.

Ko'rishguncha, xayr.



Учинчи фасл
Uchinchi fasl

ФИКРЛАШГА ЎРГАНИШ ОДОБИ

FIKIRLASHGA O'RGANISH ODOBI



Учинчи фасл
Uchinchi fasl

**ФИКРЛАШГА
ЎРГАНИШ ОДОБИ**

FIKIRLASHGA O'RGANISH ODOBI



Азиз авлиёлар инсон умрини тўрт фаслга ўхшатишади: баҳор, ёз, куз, қиш. Нимага-лигини билмайман-у, улар ичида боши ва охирини кўпроқ эслашади. Сабаби, киши ёшлигида ҳаётга ташна, кўнгли тоза, ўзи самимий бўлади. Ўртада неки ўтса ўтади – билмайди, эътибор бермайди, вақт бор-ку, улгураман, тузаламан, яхши одам бўламан, деб телбаворларча яшайверади. Бир куни қарасаки, соқолига оқ оралабди, бобо бўлибди. Ёзи ва кузи шамолдай елиб ўтибди. Бор-йўғи қиши қолибди. Э, кўп нарсага ақлим, фаросатим етар экан-ку, нега адашиб, улоқиб вақтимни беҳуда ўтказибман, дейди афсус чекиб.

Ушбу битиклар бир инсоннинг яхши-ёмон кунларидан чиқарган сабоқлари, ўзи тўқиган ҳикматларидир. Марҳамат, мутолаа қилинг.

НИДОЛАР

Қалб нидоси, фарёди, кўпириши, тиниши – инсоннинг ўз йўлидан чекиниши, ожизлигини билдирмайди, балки бу – ўзликка қайтиш, юракдан мадад ва малҳам топа олишдир.

Aziz avliyolar inson umrini to'rt faslga o'xshatishadi: bahor, yoz, kuz, qish. Nimagaligini bilmayman-u, ular ichida boshi va oxirini ko'proq eslashadi. Sababi, kishi yoshligida hayotga tashna, ko'ngli toza, o'zi samimiy bo'ladi. O'rtada neki o'tsa o'tadi – bilmaydi, e'tibor bermaydi, vaqt bor-ku, ulguraman, tuzalaman, yaxshi odam bo'laman, deb telbavorlarcha yashayveradi. Bir kuni qarasaki, soqoliga oq oralabdi, bobo bo'libdi. Yozi va kuzi shamolday yelib o'tibdi. Bor-yo'g'i qishi qolibdi. E, ko'p narsaga aqlim, farosatim yetar ekan-ku, nega adashib, uloqib vaqtimni behuda o'tkazibman, deydi afsus chekib.

Ushbu bitiklar bir insonning yaxshi-yomon kunlaridan chiqargan saboqlari, o'zi to'qigan hikmatlaridir. Marhamat, mutolaa qiling.

N I D O L A R

Qalb nidosi, faryodi, ko'pirishi, tinishi – insonning o'z yo'lidan chekinishi, ojizligini bildirmaydi, balki bu – o'zlikka qaytish, yurakdan madad va malham topa olishdir.

Инсон. Тангри яратган мураккаб ҳилқат у. Инсоннинг кучли тарафларини сафдошлари, ҳамкасблари негадир тан олмайди, ожиз томонларини ўзи билмайди, қусурларини эса мансаб курсиси ёпиб туради.

Ҳаёт. Шахмат тахтасига ўхшаган ўйин у. Ё ютасан, ё ютқазасан. Пиёда кучсиз бўлса-да, отлиқ, вазир ва подшо билан курашишдан қайтмайди.

Умр йўлида. Йигирма ёш – телбавор хаёлларга берилиш;

ўттиз ёш – югурик ташвишларга кўмилиш;

қирқ ёш – сокинликка юз буриш;

эллик ёш – тозариш ва эврилиш;

олтмиш ёш – саждага бош қўйиш;

етмиш ёш – умрни тарозига солиш;

саксон ёш – болаликка қайтиш;

тўқсон ёш – минг ойликдан сакраб ўтиш;

юз ёш – ўлимга тик боқиш.

Ўттизга кирмаган, ёш кўнглим, дунёнинг баланд-паст йўлларида юришга, аччиқ-тиззиқ кунларга бардошинг етадимми? Бир ёқдан аканг бақирса, бир ёқдан ҳамкасбинг ўртага низо солмоқчи бўлса, раҳбаринг туриб ўдағайласа, рўзғор ташвиши тишингни қайраса, буларга чидай оласан-

Inson. Tangri yaratgan murakkab hilqat u. Insonning kuchli taraflarini safdoshlari, hamkasblari negadir tan olmaydi, ojiz tomonlarini o'zi bilmaydi, qusurlarini esa mansab kursisi yopib turadi.

Hayot. Shaxmat taxtasiga o'xshagan o'yin u. Yo yutasan, yo yutqazasan. Piyoda kuchsiz bo'lsa-da, otliq, vazir va podsho bilan kurashishdan qaytmaydi.

Umr yo'lida. Yigirma yosh – telbavor xayollarga berilish;

o'ttiz yosh – yugurik tashvishlarga ko'milish;

qirq yosh – sokinlikka yuz burish;

ellik yosh – tozarish va evrilish;

oltmish yosh – sajdaga bosh qo'yish;

yetmish yosh – umrni taroziga solish;

sakson yosh – bolalikka qaytish;

to'qson yosh – ming oylikdan sakrab o'tish;

yuz yosh – o'limga tik boqish.

O'ttizga kirmagan, yosh ko'nglim, dunyoning baland-past yo'llaridan yurishga, achchiq-tizziq kunlarga bardoshing yetadimi? Bir yoqdan akang baqirsa, bir yoqdan hamkasbing o'rtağa nizo solmoqchi bo'lsa, rahbaring turib o'dag'aylasa, ro'zg'or tashvishi tishingni qayrasa, bularga chiday olasanmi?

ми? Ҳали кичик, дарз етмаган қалбинг имтиҳонга дош берадими?!

Элликка кирган, кўнглим, дунёнинг югур-югурларидан чарчаб, ниҳоят, эмин-эркинликни, хотиржамликни ўзингга эп кўрдинг-а. Энди деворларга урилган бошингни асрашни ҳам ўргангин.

Рақиб ким? У сен сиғинган Каъбага бош урмаган, доно фикрлару теран ўйларингдан олисда юрган танишинг.

Рақиб – сени кибр-ҳаводан асраган, дам-ба-дам қамчилаб, тўғри йўлга бошлаган ҳамроҳинг.

Рақиб – манманлик ва разиллик кўчасига кирганингда, юзингга ҳақни айтган, огоҳликка чақирган ўз дўстинг.

Пул. Пулни пул чақиради, дейди тадбиркор, аммо қўлидаги пуллар қай йўл билан топилганидан Аллоҳ бохабар эканлигини билмайди. Ҳаром пуллар наслни – авлодларини бузиб қўяжagini у ўйламайди.

Ароқ. Инсоният ўйлаб топган энг зарарли ичимлик, фожиаларнинг боши, йигит умрининг заволи.

Китоб – қуёш. Кимнидир тарбиялаб улуғликка бошласа, баъзи бир китоб кимнидир ҳаётдан бездириб қўйиши ҳам мумкин. Ақлий салоҳият ген орқали зурриёд-

Hali kichik, darz yetmagan qalbing imtihonga dosh beradimi?!

Ellikka kirgan, ko'nglim, dunyoning yugur-yugurlaridan charchab, nihoyat, eminerkinlikni, xotirjamlikni o'zingga ep ko'rding-a. Endi devorlarga urilgan boshingni asrashni ham o'rgangin.

Raqib kim? U sen sig'ingan Ka'baga bosh urmagan, dono fikrlaru teran o'ylaringdan olisda yurgan tanishing.

Raqib – seni kibr-havodan asragan, dambadam qamchilab, to'g'ri yo'lga boshlagan hamrohing.

Raqib – manmanlik va razillik ko'chasiga kirganingda, yuzingga haqni aytgan, ogohlikka chaqirgan o'z do'sting.

Pul. Pulni pul chaqiradi, deydi tadbirkor, ammo qo'lidagi pullar qay yo'l bilan topilganidan Alloh boxabar ekanligini bilmaydi. Harom pullar naslni – avlodlarini buzib qo'yajagini u o'ylamaydi.

Aroq. Insoniyat o'ylab topgan eng zararli ichimlik, fojialarning boshi, yigit umrining zavoli.

Kitob – quyosh. Kimnidir tarbiyalab ulug'likka boshlasa, ba'zi bir kitob kimnidir hayotdan bezdirib qo'yishi ham mumkin. Aqliy salohiyat gen orqali zurriyodga ko'chadi.

га кўчади. Китобдан безиб улғайган бола сўкахон бўлиб ўсади.

Ноқобил фарзанд. Боланг гап қайтарса, кўнглингга озор берса, кишига алам қилади. Ўзингники шундай бўлгач...ўзгадан хафа бўлиш ўринлими, инсон.

Уруғ. Танишингнинг ўзбек ёки тожик уруғидан эканлигини билиш сенга шунчалик зарилмиди? Ўтмишдаги қайси қабила ва қавмнинг хислати ва аъмоли бизга етиб келибди, болам.

Келин. Ақли калта келин – оила сирини ёйиш, гап-сўзларни уйдан уйга ташиш, қудаларни уриштиришга қодир бўлади. Улкан деворни қулата олади у.

Ақли келин – хонадон бахти, буюк зурриёдлар манбаи ва давомчиси, миллатнинг фахри. Президентларни ҳам, ботирларни ҳам, даҳоларни ҳам у тукқан.

Ғулом. Хизматкор азалдан бой-бадавлат одамларга хизмат қилиш учун яралган. Унинг фикри-ёди фақир кулбасига нон, овқат, кийим-кечак олиб келишдир. Шунини билинки, ақл-идрокдан жисмоний меҳнатни устун қўйган ғулом фикрламайди. Бу машғулоти у ўзига эп билмайди.

“Боғбон”. Бу номнинг маъно-мазмунини англашимда, ёшлигимда кўрган ҳиндларнинг “Боғбон” фильми яхшигина сабоқ бўлган.

Kitobdan bezib ulg'aygan bola so'kaxon bo'lib o'sadi.

Noqobil farzand. Bolang gap qaytarsa, ko'nglingga ozor bersa, kishiga alam qiladi. O'zingniki shunday bo'lgach...o'zgan xafa bo'lish o'rinlimi, inson.

Urug'. Tanishingning o'zbek yoki tojik urug'idan ekanligini bilish senga shunchalik zarilmidi? O'tmishdagi qaysi qabila va qavmning xislati va a'moli bizga yetib kelibdi, bolam.

Kelin. Aqli kalta kelin – oila sirini yoyish, gap-so'zlarni uydan uyga tashish, qudalarni urishtirishga qodir bo'ladi. Ulkan devorni qulata oladi u.

Aqli kelin – xonadon baxti, buyuk zurriyodlar manbai va davomchisi, millatning faxri. Prezidentlarni ham, botirlarni ham, daholarni ham u tuqqan.

G'ulom. Xizmatkor azaldan boy-badavlat odamlarga xizmat qilish uchun yaralgan. Uning fikri-yodi faqir kulbasiga non, ovqat, kiyim-kechak olib kelishdir. Shuni bilinki, aql-idrokdan jismoniy mehnatni ustun qo'ygan g'ulom fikrlamaydi. Bu mashg'ulotni u o'ziga ep bilmaydi.

“Bog'bon”. Bu nomning ma'no-mazmunini anglashimda, yoshligimda ko'rgan hindlarning “Bog'bon” filmi yaxshigina saboq bo'lgan.

“Боғбон” – оиладаги меҳр-оқибат ришталари узилиши рамзи, тимсоли.

“Боғбон” – тошбағир ўғиллар, бешафқат келинларнинг ота-онага, қайнота ва қайнонага ётсирай бошлашидан мужда беради, огоҳлантиради.

Рамазон. Меҳр-шафқат, мурувват, рағбат, шафоат ойи. Рўзадорлар оға-ини, сирдош, маслакдош ва биродар бўладиган муқаддас ой.

Рўза тута олмаган мусулмон ислом нури, ибодати, илоҳий мўъжизасидан бенаиб, бир бирининг дарди, ички кечинмаларидан йироқ, ҳар ишда сабрсиз, ўзи ирода-сиз, нафсга тобе кимса.

Жим. Ул зот суҳбатларда жим, даврада жим, кўчада жим юришни одат қилганига йигирма йиллардан ошди. Гунг-соқов одамга ўхшайди. У ўзини нега бунчалар сирли-синоатли тутишини ёлғиз Парвардигор билади.

Баъзан жимликни бузгиси келади, даврадан фикр истаб қолади. Аммо биладики, фикрини очиқ билдирганни ёқтиришмайди. “Замондан орқада қолган”, дейишади.

Жим юриш яхши, фойдали одат. Биродарим ўн йил жим юрди, ичида сақлаган дард, исёнларни яширди. Кунларнинг якунида “Жим” деган роман ҳам битди. Ўқи-

“Bog‘bon” – oiladagi mehr-oqibat rishtalari uzilishi ramzi, timsoli.

“Bog‘bon” – toshbag‘ir o‘g‘illar, beshafqat kelinlarning ota-onaga, qaynota va qaynonaga yotsiray boshlashidan mujda beradi, ogohlantiradi.

Ramazon. Mehr-shafqat, muruvvat, rag‘bat, shafolat oyi. Ro‘zadorlar og‘a-ini, sirdosh, maslakdosh va birodar bo‘ladigan muqaddas oy.

Ro‘za tuta olmagan musulmon islom nuri, ibodati, ilohiy mo‘jizasidan benasib, bir birining dardi, ichki kechinmalaridan yiroq, har ishda sabrsiz, o‘zi irodasiz, nafsga tobe kimsa.

Jim. Ul zot suhbatlarda jim, davrada jim, ko‘chada jim yurishni odat qilganiga yigirma yillardan oshdi. Gung-soqov odamga o‘xshaydi. U o‘zini nega bunchalar sirli-sinoatli tutishini yolg‘iz Parvardigor biladi.

Ba‘zan jimlikni buzgisi keladi, davradan fikr istab qoladi. Ammo biladiki, fikrini ochiq bildirganni yoqtirishmaydi. “Zamondan orqada qolgan”, deyishadi.

Jim yurish yaxshi, foydali odat. Birodarim o‘n yil jim yurdi, ichida saqlagan dard, isyonlarni yashirdi. Kunlarning yakunida “Jim” degan roman ham bitdi. O‘qiganlar hayratdan

ганлар хайратдан ёқа ушладилар. Жасур, мард одам экан, деб мақташди. Пахтадай юмшоқ бўлса-да, юраги йўлбарсникидан бақувват экан, дегувчилар ҳам бўлди.

Муомала. Ҳаётда сув ва ҳаводай зарур нарса. Мен билган йигит хоксор бўлгани, дардини ичида сақлагани, ўта эҳтиёткорлиги туфайли омади чопмади.

Аммо яқин ўртоғининг билими, савияси ўн чандон паст бўлса-да, сўзамоллиги, хушомадгўйлиги сабабли... юқорига кўтарилди.

Мансаб театр томошасига ўхшайди. Ҳаётда ролингни қойилмақом бажармасанг, жамият сени... бошқаси билан алмаштиради.

Раҳбарликда узоқ ўтирган киши буюклик касалига, халқ ичида танилган шахс оддийлик касалига дучор бўлади.

Бировнинг сир ва гапини раҳбарларга ташиб юриб лавозимга ўтирган киши – энг тубан кимсадир.

Бошингга оғир кун тушганда юқори лавозимдаги танишингни қошига борма, аҳволинг баттарлашади.

Кино ақлни ўтмаслаштиради, китоб ақлни чархлайди. Бекорчилик одамни сафсатабозга айлантиради, бозорда ишлаш – пул касалига йўлиқтиради.

yoqa ushladilar. Jasur, mard odam ekan, deb maqtashdi. Paxtaday yumshoq bo'lsa-da, yuragi yo'lbarsnikidan baquvvat ekan, deguvchilar ham bo'ldi.

Muomala. Hayotda suv va havoday zarur narsa. Men bilgan yigit xoksor bo'lgani, dardini ichida saqlagani, o'ta ehtiyotkorligi tufayli omadi chopmadi.

Ammo yaqin o'rtog'ining bilimi, saviyasi o'n chandon past bo'lsa-da, so'zamolligi, xushomadgo'yligi sababli... yuqoriga ko'tarildi.

Mansab teatr tomoshasiga o'xshaydi. Hayotda rolingni qoyilmaqom bajarmasang, jamiyat seni... boshqasi bilan almashtiradi.

Rahbarlikda uzoq o'tirgan kishi buyuklik kasaliga, xalq ichida tanilgan shaxs oddiylik kasaliga duchor bo'ladi.

Birovning siri va gapini rahbarlarga tashib yurib lavozimga o'tirgan kishi – eng tuban kimsadir.

Boshingga og'ir kun tushganda yuqori lavozimdagi tanishingni qoshiga borma, ahvoling battarlashadi.

Kino aqlni o'tmaslashtiradi, kitob aqlni charxlaydi. Bekorchilik odamni safsatabozga aylantiradi, bozorda ishlash – pul kasaliga yo'liqtiradi.

Телевизор балои офат: олдин танангни, кейин онгни, сўнг қалбингни захарлайди. Охирги иши – умрингни қисқартиради.

Олимлар телевизор томоша қилишнинг 8 та салбий оқибатини аниқлашган. Яъни, у бош мия фаоллигини кучсизлантиради, артериал босимни, асабийликни, онкологик касалликлар ривожланиши эҳтимолини 9 фоизга оширади. Агар цивилизациянинг бу ютуғидан кунига 1,5 – 2 соат баҳраманд бўлсак, жисмоний ва руҳий саломатлигимизни сақлаган бўламиз.

Пулнинг кучи. Агар оилада пул кўпайса, хотин эрини топармон-тутармон киши сифатида қўшнилардан юқори қўяди, бировларга паст назар билан қарайди. Пулга зориқса... эрини ёмон кўради ва уни ёмонлашга тушади.

Пул, бойлик – хотиннинг кўзини ёпади. Яна кўпроқ пул йиғишга эрини кўндиради, кейин қурган ҳовли-жойи, қўша-қўша машиналари билан мақтанишдан тийилмайди.

Пул, бойлик – камбағал ва бойлар ўртасида меҳр-оқибатни камайтиради. Пулнинг кучи одамларни табақага бўлади: “юқори” табақа тез-тез учрашиб, бизнесни юргизади “паст” табақа – бизнестан йироқ кимсалар оддий умргузаронлик қилиб юраверади. Улар олтин ўрталикни танлайди. Лекин

Televizor baloi ofat: oldin tanangni, keyin ongni, so'ng qalbingni zaharlaydi. Oxirgi ishi – umringni qisqartiradi.

Olimlar televizor tomosha qilishning 8 ta salbiy oqibatini aniqlashgan. Ya'ni, u bosh miya faolligini kuchsizlantiradi, arterial bosimni, asabiylikni, onkologik kasalliklar rivojlanishi ehtimolini 9 foizga oshiradi. Agar sivilizatsiyaning bu yutug'idan kuniga 1,5 – 2 soat bahramand bo'lsak, jismoniy va ruhiy salomatligimizni saqlagan bo'lamiz.

Pulning kuchi. Agar oilada pul ko'paysa, xotin erini toparmon-tutarmon kishi sifatida qo'shnilardan yuqori qo'yadi, birovlarga past nazar bilan qaraydi. Pulga zoriqsa... erini yomon ko'radi va uni yomonlashga tushadi.

Pul, boylik – xotinning ko'zini yopadi. Yana ko'proq pul yig'ishga erini ko'ndiradi, keyin qurgan hovli-joyi, qo'sha-qo'sha mashinalari bilan maqtanishdan tiyilmaydi.

Pul, boylik – kambag'al va boylar o'rtasida mehr-oqibatni kamaytiradi. Pulning kuchi odamlarni tabaqaga bo'ladi: "yuqori" tabaqa tez-tez uchrashib, biznesni yurgizadi "past" tabaqa – biznesdan yiroq kimsalar oddiy umrguzaronlik qilib yuraveradi. Ular oltin o'rtalikni tanlaydi. Lekin topgan-tutgan

топган-тутган луқмалари ҳалол бўлади. Пул, бойлик кетидан қувган кимсанинг ҳаёти қандай яқун топиши ёлғиз Аллоҳга аён.

Душман ким? Чин дўстни тополмаган, дўстликни қадрламаган пайтингда рўпарангда душман пайдо бўлади. Ўзингни тополмасанг, билимсиз, ғўр, ҳавойи бўлсанг душманлар сени излаб келаверади. Ана, шароит туғдирдинг, энди у сени назорат қилишга тушади. Яхшиликка юз бурсанг, ақлинг, билиминг, муомаланг, самимийлигинг билан ажралиб турсанг, бу хислатларни мужассам қилиб олишда “душман”ингни ҳам хизмати бор, деб билгин. Ишораси, танқиди ва турткиси билан кўзингни очади у.

Товуш. У баланд, йўғон бўлса, ҳаётда кўп қийналасан, хижолат чекасан, чунки оддий гапларинг жаҳлдорлик ва ғазабга ўхшаб туюлади. Шунда суҳбатдош: “Овозингизни кўтарманг, қулоғим эшитади”, дейди хафа бўлиб.

Товуш мулойим, секин айтилса, хижолат чекмайсан, ҳатто бундан роҳатланасан, тананг яйрайди. Хушмуомала, ширин гапирган кишини ҳамма ҳурмат қилади, сабаби оҳанграбодай нутқ одамларни ўзига жалб қилади, қалбларга ором бағишлайди.

Йўғон, бақироқ овозли киши юракларга билинар-билинемас озор етказади.

luqmalari halol bo'ladi. Pul, boylik ketidan quvgan kimsaning hayoti qanday yakun topishi yolg'iz Allohga ayon.

Dushman kim? Chin do'stni topolmagan, do'stlikni qadrlamagan paytingda ro'parangda dushman paydo bo'ladi. O'zingni topolmasang, bilimsiz, g'o'r, havoyi bo'lsang dushmanlar seni izlab kelaveradi. Ana, sharoit tug'dirding, endi u seni nazorat qilishga tushadi. Yaxshilikka yuz bursang, aqling, biliming, muomalang, samimiyliging bilan ajralib tursang, bu xislatlarni mujassam qilib olishda "dushman"ingni ham xizmati bor, deb bilgin. Ishorasi, tanqidi va turtkisi bilan ko'zingni ochadi u.

Tovush. U baland, yo'g'on bo'lsa, hayotda ko'p qiynalasan, xijolat chekasan, chunki oddiy gaplaring jahldorlik va g'azabga o'xshab tuyuladi. Shunda suhbatdosh: "Ovozingizni ko'tarmang, qulog'im eshitadi", deydi xafa bo'lib.

Tovush muloyim, sekin aytilsa, xijolat chekmaysan, hatto bundan rohatlanasan, tanang yayraydi. Xushmuomala, shirin gapirgan kishini hamma hurmat qiladi, sababi ohangraboday nutq odamlarni o'ziga jalb qiladi, qalblarga orom bag'ishlaydi.

Yo'g'on, baqiroq ovozli kishi yuraklarga bilinar-bilinmas ozor yetkazadi.

Димоғ. Ҳайвоний манмансираш, кибру ҳавонинг бир тури. Димоғдор киши бурнидан пастини кўрмайди, сал бундайроқ одамни писанд ҳам қилмайди... У калонпони – ўздан юқори мансабдаги “зот”ни кўрса, бирдан турланади, тусланади, ҳатто ўзини йўқотиб қўйгудай бўлади.

Булар ва улар. Бу тушунча содда, тушунарли. “Булар”нинг “Ватан мадҳи”ни қўшиғимда куйлайман”, деган сўзига ишонгим келмайди. Чунки юриш-туриши, кийиши, дили, дарди – енгил, ҳаёти – енгиллик устига қурилган. Шу боисдан, “...жоним фидо” деб куйлаши қалбларга етиб бормайди. Юрак жиз этмаса, бу санъат эмас-да.

Узоқ йиллар бурун саҳналарни тўлдирган “Улар”ни ҳам ҳозир эслолмай туролмаймиз. Юрти учун жонини тиккан, камтар яшаган, жонфидо зотлар эди “Улар”. Фикрлари ўзидек тоза, қўшиқлари оҳори тўкилмаган, дилга яқин, дилтортар, соғинчли эди. “Дўппи тикдим ипаклари тиллодан” деб куйлашарди. Халқ лапарлари, куйлари, қўшиқлари мангулик лаззат; пок зийнатлари, сиймолари қадрли; гаплари самимий, ички туғёни элга яқин эди уларнинг.

“Булар” (Бугунги қўшиқлар) “Улар”дан юз баробар тўкин яшаса-да, юлдуз бўла олмайди. Энг кучли фонограмма ҳам,

Dimog'. Hayvoniy manmansirash, kibru havoning bir turi. Dimog'dor kishi burnidan pastini ko'rmaydi, sal bundayroq odamni pisand ham qilmaydi... U kalonponi – o'zidan yuqori mansabdagi “zot”ni ko'rsa, birdan turlanadi, tuslanadi, hatto o'zini yo'qotib qo'yguday bo'ladi.

Bular va ular. Bu tushuncha sodda, tushunarli. “Bular”ning “Vatan madhi”ni qo'shig'imda kuylayman”, degan so'ziga ishongim kelmaydi. Chunki yurish-turishi, kiyinishi, dili, dardi – yengil, hayoti – yengillik ustiga qurilgan. Shu boisdan, “...jonim fido” deb kuylashi qalblarga yetib bormaydi. Yurak jiz etmasa, bu san'at emas-da.

Uzoq yillar burun sahnalarni to'ldirgan “Ular”ni ham hozir eslolmay turolmaymiz. Yurti uchun jonini tikkan, kamtar yashagan, jonfido zotlar edi “Ular”. Fikrlari o'zidek toza, qo'shiqlari ohori to'kilmagan, dilga yaqin, diltortar, sog'inchli edi. “Do'ppi tikdim ipaklari tillodan” deb kuylashardi. Xalq laparlari, kuylari, qo'shiqlari mangulik lazzat; pok ziynatlari, siymolari qadrli; gaplari samimiy, ichki tug'yoni elga yaqin edi ularning.

“Bular” (Bugungi qo'shiqchilar) “Ular”dan yuz barobar to'kin yashasa-da, yulduz bo'la olmaydi. Eng kuchli fonogramma ham,

улкан технологиялар ҳам, қоп-қоп пуллари ҳам буларни юлдуз қилишга куч-қудрати етмайди.

Уйқу. Бепарво одам эрталаб мириқиб ухлайди. Бошқалар нонуштага ўтирганда ҳам, пешинда ҳам ухлайди. Шом маҳали кимлардир намоз ўқиётганда уйқуга чўмади, тунда олим ва шоирлар учқур илҳом отига миниб, ажойиб ғояларини қоғозга тушираётганда ҳам улар ширин уйқуда бўлади.

Уйқу – даҳшатли туш, зерикарли эртак ва сароб аралаш ҳаёт.

Уйқу –узоқ давом этадиган алаҳсираш, адашиш, нимадандир бебаҳра қолиш, бена-сиб бўлиш дамлари.

Уйқу инсон ҳаёти мазмунини жўнлаштиради ва сийқалаштиради.

Совға. Таваллуд, юбилей, тўй маросимида чин дилдан ёки сохталик билан топширилган туҳфа. Ҳажми шоҳона, ўртамиёна ё оддий бўлади. Узоқни кўра билгувчи раҳбар катта совғани қабул қилмайди. Чунки яхши туҳфани олгудек бўлса, ўзини ўша одамга ипсиз боғлаб беради.

Совға – эркинликни чеклаб қўядиган матоҳ.

Мулойим одам. Баланд бўйли, юмшоқ ўта мулойим, сал соддароқ бу одам билан

ulkan texnologiyalar ham, qop-qop pullari ham ularni yulduz qilishga kuch-qudrati yetmaydi.

Uyqu. Beparvo odam ertalab miriqib uxlaydi. Boshqalar nonushtaga o'tirganda ham, peshinda ham uxlaydi. Shom mahali kimlardir namoz o'qiyotganda uyquga cho'madi, tunda olim va shoirlar uchqur ilhom otiga minib, ajoyib g'oyalarini qog'ozga tushirayotganda ham ular shirin uyquda bo'ladi.

Uyqu – dahshatli tush, zerikarli ertak va sarob aralash hayot.

Uyqu –uzoq davom etadigan alahsirash, adashish, nimadandir bebahra qolish, benasib bo'lish damlari.

Uyqu inson hayoti mazmunini jo'nlashtiradi va siyqalashtiradi.

Sovg'a. Tavallud, yubiley, to'y marosimida chin dildan yoki soxtalik bilan topshirilgan tuhfa. Hajmi shohona, o'rtamiyona yo oddiy bo'ladi. Uzoqni ko'ra bilguvchi rahbar katta sovg'ani qabul qilmaydi. Chunki yaxshi tuhfani olgudek bo'lsa, o'zini o'sha odamga ipsiz bog'lab beradi.

Sovg'a – erkinlikni cheklab qo'yadigan matoh.

Muloyim odam. Baland bo'yli, yumshoq o'ta muloyim, sal soddaroq bu odam bilan

тоғ бағридаги санаторийда танишдим. Оғир-вазмин, ҳис-ҳаяжондан холи, мулоҳазали одам. Камина билган, учрашган зиёли шахсларнинг деярли барини таниганига қойил қолдим.

Шаҳарга қайтиб келганимдан кейин саволларимга жавоб топгандай бўлдим. Узоқни кўра оладиган, уддабуррон танишим ҳаётда ҳеч кимни хафа қилмаган, бирон кишига ақалли қарши бормаган экан. Англашимча, у ишини хамирдан қил суғургандай осон битиради, лекин ишхонада, давраларда инқилобий фикрлар-у, ўткир ғояларни айтмайди. “Домла” ўзига ёрдами тегадиган, фойдали шахслар билан борди-келди қилади, тўй-маъракалардан қолмайди, ёру биродарлари шифохонага ётса, кунора ҳолидан хабар олади. Унинг “замонасоз” характериға, сабр-қаноатига тан бердим. Жамиятнинг талаб-қоидаларини бекаму кўст адо этгани сабабли, уйда ҳам, ишхонада ҳам уни эъзозлар эдилар.

Камина эллик ёшга кирган бўлса-да, “Мулойимликнинг олтин қонуни”дан мутлақо беҳабар эканман, азизлар. Эҳ, шу илмни яхши эгаллаганимда борми...

– Тўғри гап одамларға ёқмаслигини отам қулоғимға қуйган ўн икки яшарлигимдан бошлаб, пластинкани дарҳол бош-

tog' bag'ridagi sanatoriyda tanishdim. Og'ir-vazmin, his-hayajondan xoli, mulohazali odam. Kamina bilgan, uchrashgan ziyoli shaxslarning deyarli barini taniganiga qoyil qoldim.

Shaharga qaytib kelganimdan keyin savollarimga javob topganday bo'ldim. Uzoqni ko'ra oladigan, uddaburron tanishim hayotda hech kimni xafa qilmagan, biron kishiga aqalli qarshi bormagan ekan. Anglashimcha, u ishini xamirdan qil sug'urganday oson bitiradi, lekin ishxonada, davralarda inqilobiy fikrlar-u, o'tkir g'oyalarni aytmaydi. "Domla" o'ziga yordami tegadigan, foydali shaxslar bilan bordi-keldi qiladi, to'y-ma'arakalardan qolmaydi, yoru birodarlari shifoxonaga yotsa, kunora holidan xabar oladi. Uning "zamonasoz" xarakteriga, sabr-qanoatiga tan berdim. Jamiyatning talab-qoidalarini bekamu ko'st ado etgani sababli, uyda ham, ishxonada ham uni e'zozlar edilar.

Kamina ellik yoshga kirgan bo'lsa-da, "Muloyimlikning oltin qonuni"dan mutlaqo bexabar ekanman, azizlar. Eh, shu ilmni yaxshi egallaganimda bormi...

- To'g'ri gap odamlarga yoqmasligini otam qulog'imga quygan o'n ikki yasharligimdan boshlab, plastinkani darhol boshqa tomonga

қа томонга ўзгартирдим, – дейди танишим.
– Дадамнинг васиятлари менга йўлчи юлдуз бўлди: хизмат пиллапоясидан юқорилаб боравердим. Ҳозирда катта бир илмий тадқиқот даргоҳининг раҳбариман.

– Отангиз буюк экан, – дедим домлага.

Менинг ибодатхонам. Атоқли қирғиз адиби Чингиз Айтматов. “Ҳар бир ёзувчи одам ўз ибодатхонасини қуришни истайди ва уни ёлғиз ўзи қуради”, деган эди. Айтматовнинг буюклиги шундаки, у инсон, табиат, она юрт, туркий халқларнинг буюк-содда турмуши, ғаройиб маросимлари, анъаналари, ритуали, психикаси, одатларининг энг нозик, теша тегмаган жиҳатларини ғоят гўзал тасвирлайди, ёш севишганларнинг қалб тебраниши, азобларини, дарди ва армонларини гўзал талқинда бера олади.

Чингиз Айтматов – миллийликдан умумбашарий воқеа-ҳодисаларга туташадиган дардларни куйлагувчи сўз сеҳргари. “Юзма-юз”, “Жамила”, “Оқ кема”, “Асрни қаритган кун”, “Қиёмат” асарлари фикримизга жонли далил.

Чингиз Айтматов – чўл ва дашт одамлари турмушини нозик тасвирловчи адиб.

Мўъжизакор нутқ. Менинг назаримда, бундай нутқ – инсон тафаккури, руҳияти, ички олами, тебранишлари, ғалаёнлари,

o'zgartirdim, – deydi tanishim. – Dadamning vasiyatlari menga yo'lchi yulduz bo'ldi: xizmat pillapoyasidan yuqorilab boraverdim. Hozirda katta bir ilmiy tadqiqot dargohining rahbariman.

– Otangiz buyuk ekan, – dedim domlaga.

Mening ibodatxonam. Atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov. “Har bir yozuvchi odam o'z ibodatxonasini qurishni istaydi va uni yolg'iz o'zi quradi”, degan edi. Aytmatovning buyukligi shundaki, u inson, tabiat, ona yurt, turkiy xalqlarning buyuk-sodda turmushi, g'aroyib marosimlari, an'analari, rituali, psixikasi, odatlarining eng nozik, tesha tegmagan jihatlarini g'oyat go'zal tasvirleydi, yosh sevishganlarning qalb tebranishi, azoblarini, dardi va armonlarini go'zal talqinda bera oladi.

Chingiz Aytmatov – milliylikdan umumbashariy voqea-hodisalarga tutashadigan dardlarni kuylaguvchi so'z sehgari. “Yuzma-yuz”, “Jamila”, “Oq kema”, “Asrni qaritgan kun”, “Qiyomat” asarlari fikrimizga jonli dalil.

Chingiz Aytmatov – cho'l va dasht odamlari turmushini nozik tasvirlovchi adib.

Mo'jizakor nutq. Mening nazarimda, bunday nutq – inson tafakkuri, ruhiyati, ichki olami, tebranishlari, g'alayonlari, iztiroblari,

изтироблари, дарди-армонлари, орзуси, идеали, ҳатто кимлиги, қайдан келаётганлиги ва қайга отланиб турганлиги ҳақида тўлиқ тасаввур беришга қодирдир. Мен шундай эҳтиросли, таъсирчан нутқ ҳақида баҳс юритаётиб, сўнгги ўттиз йилда илмий, адабий жамоатчилик йиғилган тадбирларда юксак мақомда, баланд савияда айтилган, миллатимизга ўрнак бўлгулик шундай нутқларни халқ орзиқиб кутаётганини жуда ҳис этаман. Стокгольм шаҳрида Нобель мукофотини қўлга олаётган ҳаяжонли дақиқаларда совриндорлар сўзлаган ўта чуқур маъноли нутқларга ошиқ бўлиб қолганман...

Гўзал нутқ – инсон ўз “мен”ини тўла намоён қилишининг чексиз имкони. Кундалик ҳаётимизга оммавий коммуникация шитоб билан кириб келгандан кейин маданият ва санъат соҳасида ақлли, зийрак зиёлилар ўрнини замонасоз актёрлар, фонограммачи артистлар, саёз кўшиқчилар эгаллагани сир бўлмай қолди. ZO’R TVни кўйсангиз, “Божалар”, “Куёвлар”, “Келинлар”, “Қайноналар” номли кўрсатувларда оилавий актёрларнинг сохта кулгуси, сунъий гапларини эшитиб қоласиз. Ҳиринг-ҳиринг кулиш, бачкана қилиқлар... Меҳрсиз қалб, ёлғон сўз халқни савиясини тушира-

dardi-armonlari, orzusi, ideali, hatto kimligi, qaydan kelayotganligi va qayga o'tlanib turganligi haqida to'liq tasavvur berishga qodirdir. Men shunday ehtirosli, ta'sirchan nutq haqida bahs yuritayotib, so'nggi o'ttiz yilda ilmiy, adabiy jamoatchilik yig'ilgan tadbirlarda yuksak maqomda, baland saviyada aytilgan, millatimizga o'rnak bo'lgulik shunday nutqlarni xalq orziqib kutayotganini juda his etaman. Stokgolm shahrida Nobel mukofotini qo'lga olayotgan hayajonli daqiqalarda sovrindorlar so'zlagan o'ta chuqur ma'noli nutqlarga oshiq bo'lib qolganman...

Go'zal nutq – inson o'z “men”ini to'la namoyon qilishining cheksiz imkoni. Kundalik hayotimizga ommaviy kommunikatsiya shitob bilan kirib kelgandan keyin madaniyat va san'at sohasida aqlli, ziyrak ziyolilar o'rnini zamonasoz aktyorlar, fonogrammachi artistlar, sayoz qo'shiqchilar egallagani sir bo'lmay qoldi. ZO'R TVni qo'ysangiz, “Bojalar”, “Kuyovlar”, “Kelinlar”, “Qaynonalar” nomli ko'rsatuvlarda oilaviy aktyorlarning soxta kulgusi, sun'iy gaplarini eshitib qolasiz. Hiring-hiring kulish, bachkana qiliqlar... Mehirsiz qalb, yolg'on so'z xalqni saviyasini

ди, аммо тарбияламайди. Нега саҳнани “булар”га ишониб қўйдик?”, деган савол мени қийнайди.

Раҳбарликдан кетган одам. Энди у маълум вақт янгиша шароитга кўника олмайди. Карахт, маст одамга ўхшаб юради.

Раҳбарликдан кетган одам – оддий одамларга ўхшаб содда, камтарона яшашни билмайди.

Аммо уйда, кўчада салобатли қадамлар ташлайди ва йўғон овозда гапирди. Паст тушгиси келмайди-да.

– Сиз буйруқ берманг, бақирманг, лавозимда эмас экансиз, бунга зарурат йўқ, –деб хотини койиганда, бир оз зил кетади.

Ичида у бир гапни такрорлашни яхши кўради: “Мансаб курсисини эсон-омон эгасига топширдим, ярим тунгача топшириқни бажариш азобидан ҳам қутулдим. Ана, мазза бўлди. Худога минг қатла шукур”.

Сув. Сув ва сувсизлик нелигини ташналикни бошидан ўтказган кишилар билади. Бир замонлар Нурота ўлкасида тоғу тошлардан сизилиб келадиган оби ҳаётнинг йўли тўсилди. Халқ кўп жабру жафолар чекди. Юртда вабо тарқалиб, одамлар ўла бошлади. Фалокатнинг олдини тўсиш мақсадида халқнинг ўзи ер ости сув иншоати – кориз ирригация тизимини ўйлаб топди.

tushiradi, ammo tarbiyalamaydi. Nega sahnani “bular”ga ishonib qo‘ydik?”, degan savol meni qiynaydi.

Rahbarlikdan ketgan odam. Endi u ma‘lum vaqt yangicha sharoitga ko‘nika olmaydi. Karaxt, mast odamga o‘xshab yuradi.

Rahbarlikdan ketgan odam – oddiy odamlarga o‘xshab sodda, kamtarona yashashni bilmaydi.

Ammo uyda, ko‘chada salobatli qadamlar tashlaydi va yo‘g‘on ovozda gapiradi. Past tushgisi kelmaydi-da.

– Siz buyruq bermang, baqirmang, lavozimda emas ekansiz, bunga zarurat yo‘q, – deb xotini koyiganda, bir oz zil ketadi.

Ichida u bir gapni takrorlashni yaxshi ko‘radi: “Mansab kursisini eson-omon egasiga topshirdim, yarim tungacha topshiriqni bajarish azobidan ham qutuldim. Ana, mazza bo‘ldi. Xudoga ming qatla shukur”.

Suv. Suv va suvsizlik neligini tashnalikni boshidan o‘tkazgan kishilar biladi. Bir zamonlar Nurota o‘lkasida tog‘u toshlardan sizilib keladigan obi hayotning yo‘li to‘sildi. Xalq ko‘p jabru jafolar chekdi. Yurtda vabo tarqalib, odamlar o‘la boshladi. Falokatning oldini to‘shish maqsadida xalqning o‘zi yer osti suv inshoati – koriz irrigatsiya tizimini o‘ylab topdi.

Эллик йил ичида қалъа-ю, сардобалар, дала-даштларда тўрт юзга яқин коризлар қазилди.

Одамлар яна сувга ташналигини қондира бошлади. Ҳовлилар, томорқалар, полизлар ям-яшилликка бурканди. Гумбаз, Бўрикалла навли қовун-тарвузлар машина-машина шаҳарга ташила бошланди...

“Халқ – денгиз”, “халқ – куч” , деган сўзларнинг исботини биз коризлар мисолида кўрдик.

Тоғай. Табиатан камгап бўлса-да, ўзи кучли шахс эди у. Журналларга ҳарф териш цехида мусахҳиҳ бўлиб бирга ишлаганимизда оғзига талқон солган, соқов одамдай юргувчи эди. Давра-гаштакларда фикр билдирмасди, фақат эшитарди.

Ҳамкасбим қақшатқич ҳаёт синовларига чидаб яшади. Бўёқ ҳиди анқиб турган босмахонадан уйига келгани ҳамон дардини, аламини қоғоздан оларди. Инсоннинг чексиз-чегарасиз имконлари-ю, руҳий исёнларини ёзишдан тўхтамасди.

Ички туйғуларини одамизоддан яширар, фақат оппоқ қоғозга ишонар эди. Ёзганида қоғозлар ғижимланиб кетарди. Тунлари уйқуни билмасди. Умри ўлчоғлик эканини ичдан сезарди. Ахийри, кунларнинг бирида “Полвон” деган қиссаси “Садо”

Ellik yil ichida qal'a-yu, sardobalar, dala-dashtlarda to'rt yuzga yaqin korizlar qazildi.

Odamlar yana suvga tashnaligini qondira boshladi. Hovlilar, tomorqalar, polizlar yam-yashillikka burkandi. Gumbaz, Bo'rikalla navli qovun-tarvuzlar mashina-mashina shaharga tashila boshlandi...

"Xalq -dengiz", "xalq - kuch" , degan so'zlarning isbotini biz korizlar misolida ko'rdik.

Tog'ay. Tabiatan kamgap bo'lsa-da, o'zi kuchli shaxs edi u. Jurnallarga harf terish sexida musahhih bo'lib birga ishlaganimizda og'ziga talqon solgan, soqov odamday yurguvchi edi. Davra-gashtalarda fikr bildirmasdi, faqat eshitardi.

Hamkasbim qaqshatqich hayot sinovlariga chidab yashadi. Bo'yoq hidi anqib turgan bosmaxonadan uyiga kelgani hamon dardini, alamini qog'ozdan olardi. Insonning cheksiz-chegarasiz imkonlari-yu, ruhiy isyonlarini yozishdan to'xtamasdi.

Ichki tuyg'ularini odamizoddan yashirar, faqat oppoq qog'ozga ishonar edi. Yozganida qog'ozlar g'ijimlanib ketardi. Tunlari uyquni bilmasdi. Umri o'lchog'lik ekanini ichdan sezardi. Axiyri, kunlarning birida "Polvon"

журналида чиққандан кейин у ёшларнинг севимли адибига айланди-қолди.

Тоғай – ҳаёт куйчиси эди.

Тоғай – инсон дарду аламларини елкасига юклаган шоир!

Тоғай – кўнгли тоғдай юксак, ўзи ўта маъсум шахс!

Бекорчилик. Бундай кунга қолишдан Аллоҳнинг ўзи асрасин. Негаки, бекорчида кунлик режа, мақсад ва юмуш бўлмайди. Қадоқ кўллари, отни қувишга етгулик оёқлари ишнинг йўқлигидан зерикади, кўзини уйқу босади.

Кўчага чиқади. Уч-тўртта такасалтанг, ишёқмас йигитлар енгил-елпи гаплардан сўз очиб, бошини оғритади. Энсаси қотади. “Шу аҳволга тушиб қолдимми”, деб ўзини ёмон кўра бошлайди.

Шартта уйга кириб, “Ўткан кунлар”ни ўқий бошлайди. Отабек ва Кумушларнинг завқли ва аянчли ҳаётига қизиқади, гирд атрофидан уларга ўхшаш сиймоларни излайди, аммо тополмайди. Э, шунақа экан, китоб ўқиб нима қилади?!

Телевизор мурватини бурайди. “Дунё бўйлаб” каналидан Дубай, Қрим манзараларини кўриб, орзулар дарёсига ғарқ бўлади...

degan qissasi “Sado” jurnalida chiqqandan keyin u yoshlarning sevimli adibiga aylandiqoldi.

Tog‘ay – hayot kuychisi edi.

Tog‘ay – inson dardu alamlarini yelkasiga yuklagan shoir!

Tog‘ay – ko‘ngli tog‘day yuksak, o‘zi o‘ta ma‘sum shaxs!

Bekorchilik. Bunday kunga qolishdan Allohning o‘zi asrasin. Negaki, bekorchida kunlik reja, maqsad va yumush bo‘lmaydi. Qadoq qo‘llari, otni quvishga yetgulik oyoqlari ishning yo‘qligidan zerikadi, ko‘zini uyqu bosadi.

Ko‘chaga chiqadi. Uch-to‘rtta takasaltang, ishyoqmas yigitlar yengil-yelpi gaplardan so‘z ochib, boshini og‘ritadi. Ensasi qotadi. “Shu ahvolga tushib qoldimmi”, deb o‘zini yomon ko‘ra boshlaydi.

Shartta uyga kirib, “O‘tkan kunlar”ni o‘qiy boshlaydi. Otabek va Kumushlarning zavqli va ayanchli hayotiga qiziqadi, gird atrofidan ularga o‘xshash siymolarni izlaydi, ammo topolmaydi. E, shunaqa ekan, kitob o‘qib nima qiladi?!

Televizor murvatini buraydi. “Dunyo bo‘ylab” kanalidan Dubay, Qrim manzaralarini ko‘rib, orzular daryosiga g‘arq bo‘ladi...

Эрталаб кўзини очиб, кечаги воқеаларни эшлашга тушади. Шунда бирдан миясига “Ўқиш ва ишлаш керак!”, деган фикр келади. “Йўқса – ўламан”.

Интернет. Сирли, кутилмаган мўъжиза. Ихтирочи Бернерс Ли аломат одам экан. 1989 йилда у қитъалар, минтақалар ва одамларни бирлаштиришни уддалаб қўйди.

Бир ижодкор дўстимга ўғли интернетини WiFига улаб бергач, ҳаловати буткул йўқолди. Кечқурун ишдан ҳориб қайтган заҳоти, чой ичар-ичмас, интернетга шўнғийди. Facebookга кириб, янги дўстларни қидиради, улар ёзишмалар алмашади, электрон манзилига кириб, хатларни ўқийди.

Кундалик юмушлар эса ортга сурилаверади. Умр ҳам ўтаверади, ўтаверади...

Иш тополмаган зиёли. Мен бу одамни ўн йил олдин пўрим кийиниб, қизил галстук тақиб олган ҳолатда бир дўстимнинг тўйида кўрган эдим. Қайсидир республика идорасида иш бошқарувчи эди, назаримда. Бир гал учрашганимизда, саккиз ойдан бери иш тополмагани, танишлари қошига бориб, рад жавобини эшитгани, вақтида кимларгадир ёрдам қўлини чўзгани, энди узатган қўллари

Ertalab ko'zini ochib, kechagi voqealarni eslashga tushadi. Shunda birdan miyasiga "O'qish va ishlash kerak!", degan fikr keladi. "Yo'qsa - o'laman".

Internet. Sirli, kutilmagan mo'jiza. Ixtirochi Berners Li alomat odam ekan. 1989 yilda u qit'alar, mintaqalar va odamlarni birlashtirishni uddalab qo'ydi.

Bir ijodkor do'stinga o'g'li internetini WiFiga ulab bergach, halovati butkul yo'qoldi. Kechqurun ishdan horib qaytgan zahoti, choy ichar-ichmas, internetga sho'ng'iydi. Facebookga kirib, yangi do'stlarni qidiradi, ular yozishmalar almashadi, elektron manziliga kirib, xatlarni o'qiydi.

Kundalik yumushlar esa ortga surilaveradi. Umr ham o'taveradi, o'taveradi...

Ish topolmagan ziyoli. Men bu odamni o'n yil oldin po'rim kiyinib, qizil galstuk taqib olgan holatda bir do'stimning to'yida ko'rgan edim. Qaysidir respublika idorasida ish boshqaruvchi edi, nazarimda. Bir gal uchrashganimizda, sakkiz oydan beri ish topolmagani, tanishlari qoshiga borib, rad javobini eshitgani, vaqtida kimlargadir yordam qo'lini cho'zgani, endi uzatgan qo'llari

бўш қайтаётгани, ҳозирда ўғлини уйлаш учун маблағ тополмаётгани, хуллас, йўллари ёпилганидан қаттиқ нолиди.

Узоқ саргардонлик, кутишлардан сўнг, энди унда ишга аввалги қизиққонлик сўнган, абжирона табиатидан асар қолмаган эди.

– Нега бундай бўлди, жўра? Ишингни орқага кетишига сабаб борми? – деб сўрадим куйиниб.

– Очиқ одамман! Сирни ичимда сақлолмайман. Айбим шу, – деди у бошини эгиб.

Синфдошлар. Мактабдан сўнг, қирқ баҳор ва қиш, қирқ ёз ва куздан иборат шиддаткор умр фасллари ўтиб кетди. Унинг йигирмаси от суриб, уйқу билмаган майхонада, йигирмаси бола-чақани боқиш, турмуш ташвишлари билан ўтибди.

Биз яна мактабда, синфхонада учрашдик. Саксонга кирган устозимиз ҳаёт жумбоқлари ҳақида бир топишмоқни ўртага ташлади. Топа олмадик.

Ўн етти яшарлигида кўрганим синфдош қизларнинг сочига оқ тушибди, кўзларидаги нур сўнибди. Кимнингдир бошига ғам кўланка солган, кимнингдир юрагига дардчанг солган... Саккиз синфдошимиз ҳаёт билан видолашибди. Ўша болалик сиймолар бир-бир кўз олдимдан ўта бошлади.

bo'sh qaytayotgani, hozirda o'g'lini uylash uchun mablag' topolmayotgani, xullas, yo'llari yopilganidan qattiq nolidi.

Uzoq sargardonlik, kutishlardan so'ng, endi unda ishga avvalgi qiziqqonlik so'ngan, abjirona tabiatidan asar qolmagan edi.

– Nega bunday bo'ldi, jo'ra? Ishingni orqaga ketishiga sabab bormi? – deb so'radim kuyinib.

– Ochiq odamman! Sirni ichimda saqlolmayman. Aybim shu, – dedi u boshini egib.

Sinfdoshlar. Maktabdan so'ng, qirq bahor va qish, qirq yoz va kuzdan iborat shiddatkor umr fasllari o'tib ketdi. Uning yigirmasi ot surib, uyqu bilmagan mayxonada, yigirmasi bola-chaqani boqish, turmush tashvishlari bilan o'tibdi.

Biz yana maktabda, sinfxonada uchrashdik. Saksonga kirgan ustozimiz hayot jumboqlari haqida bir topishmoqni o'rtaga tashladi. Topa olmadik.

O'n yetti yasharligida ko'rganim sinfdosh qizlarning sochiga oq tushibdi, ko'zlaridagi nur so'nibdi. Kimningdir boshiga g'am ko'lanka solgan, kimningdir yuragiga dard chang solgan... Sakkiz sinfdoshimiz hayot bilan vidolashibdi. O'sha bolalik siymolar bir-bir ko'z oldimdan o'ta boshladi. Men jamalak

Мен жамалак сочларидан тортқилаган қизил кўйлакли қизча дунёдан кўз юмибди. Кўзларимга ёш қалқиди.

Хазонрезги кузнинг офтобли кунида ҳасратлашиш жуда оғир кечди. Ҳаяжон, дард, алам, ўкиниш, армон, ҳижронни ўзида жам қилган бу кун мени “ҳаёт – ўтқинчи”, “ҳаёт – жилвакор”, “ҳаёт – алдамчи” деган хулосаларга келишимга туртки берди, чамамда.

Кимлигингни билай. Мазкур саволга кўпинча жавоб тополмай қийналаман. Қодирий, Чўлпонларнинг ўлимига сабабчи бўлганлар, Усмон Носирни қамаганлар ўз ватандошлари эмасми? Бугун раҳбариятнинг оқил сўзларига қарсак чалган, эшикдан ташқарига чиққани ҳамон, раҳбарга қарши мағзава сўзлар, ифво гаплар ағдарган, ёлғон ахборот сотиб, ўзи сотилиб юрадиганлар ҳам ватандошлар эмасми?!

Одам қалби кирланди. Алдоқчи, ўғриваччанинг миллион сўм пулига учиб, тоза қалби айниган, бижғиган, ҳой одам, устингдаги филофингни еч – кимлигингни билай.

Истеъдоднинг сўниши. Яқинда ёзувчи дўстимнинг бир чиройли ташбиҳини ўқиб қолдим. “Гулга кирган истеъдодни – мансаб, тўқлик, сохта шон каби бемаврид совуқлар уриб кетиши мумкин. Манманлик,

sochlaridan tortqilagan qizil ko'ylakli qizcha dunyodan ko'z yumibdi. Ko'zlarimga yosh qalqidi.

Xazonrezgi kuzning oftobli kunida hasratlashish juda og'ir kechdi. Hayajon, dard, alam, o'kinish, armon, hijronni o'zida jam qilgan bu kun meni "hayot - o'tkinchi", "hayot - jilvakor", "hayot - aldamchi" degan xulosalarga kelishimga turtki berdi, chamamda.

Kimligingni bilay. Mazkur savolga ko'pincha javob topolmay qiynalaman. Qodiriy, Cho'lponlarning o'limiga sababchi bo'lganlar, Usmon Nosirni qamaganlar o'z vatandoshlari emasmi? Bugun rahbariyatning oqil so'zlariga qarsak chalgan, eshikdan tashqariga chiqqani hamon, rahbarga qarshi mag'zava so'zlar, ig'vo gaplar ag'dargan, yolg'on axborot sotib, o'zi sotilib yuradiganlar ham vatandoshlar emasmi?!

Odam qalbi kirlandi. Aldoqchi, o'g'rivachchaning million so'm puliga uchib, toza qalbi aynigan, bijg'igan, hoy odam, ustingdagi g'ilofingni yech - kimligingni bilay.

Iste'dodning so'nishi. Yaqinda yozuvchi do'stimning bir chiroyli tashbihini o'qib qoldim. "Gulga kirgan iste'dodni - mansab, to'qlik, soxta shon kabi bemavrid sovuqlar urib ketishi mumkin. Manmanlik, qo'rzoqlik,

кўрқоқлик, сотқинлик шамоллари юлқиб кетиши мумкин. Чамаси, улар ҳам истеъдоднинг нишона гулларига ўч бўлишади. Шунданмикан, халқ эрта гуллаган дарахтлардан умидини узади”.

Одатда, истеъдодли шахсларга мансабни бериб, истеъдодини ўлдиришади. Шунда илҳоми сўнади, руҳияти ўлади. Кейин ички туйғуларини тиклашга фурсат тополмайди. Уч-тўрт соатлик мажлисбозликдан сўнг, баённома тузиш, қарорлар, фармойишларнинг лойиҳаси устида ишлаш ижодкорни ҳолдан тойдиради.

Адабий гуруҳ ноёб истеъдодни тан олмайди. Мен билган шоир ва рассом йигитнинг бугунги ҳаёти фикримга гувоҳ: узоқ йиллар энг сара асарларни яратиб, жамоатга ҳавола қилди улар. Китоблари чиқди, кўргазмаларни уюштиришди. Ўша гап, ўша муносабат, ўша танқидлар камаймади, қайтанга кўпайди. Шунда икки дўст маслаҳатлашиб, салафлари тажрибасини қўллаган ҳолда, юқори идораларга ишга ўтиб кетишди.

Қаранг-е, имкон туғилди ўзини намоён этишга. Минбарлар ва давраларда расмий кўриниш бергач, халқ бу номларни таний бошлади.

Хаёл чечаклари. Турмуш ташвишларидан чарчаб қолган дамларда Валентин

sotqinlik shamollari yulqib ketishi mumkin. Chamasi, ular ham iste'dodning nishona gullariga o'ch bo'lishadi. Shundanmikan, xalq erta gullagan daraxtlardan umidini uzadi”.

Odatda, iste'dodli shaxslarga mansabni berib, iste'dodini o'ldirishadi. Shunda ilhomi so'nadi, ruhiyati o'ladi. Keyin ichki tuyg'ularini tiklashga fursat topolmaydi. Uch-to'rt soatlik majlisbozlikdan so'ng, bayonnoma tuzish, qarorlar, farmoyishlarning loyihasi ustida ishlash ijodkorni holdan toydiradi.

Adabiy guruh noyob iste'dodni tan olmaydi. Men bilgan shoir va rassom yigitning bugungi hayoti fikrimga guvoh: uzoq yillar eng sara asarlarni yaratib, jamoatga havola qildi ular. Kitoblari chiqdi, ko'rgazmalarni uyushtirishdi. O'sha gap, o'sha munosabat, o'sha tanqidlar kamaymadi, qaytangga ko'paydi. Shunda ikki do'st maslahatlashib, salafлари tajribasini qo'llagan holda, yuqori idoralarga ishga o'tib ketishdi.

Qarang-ye, imkon tug'ildi o'zini namoyon etishga. Minbarlar va davralarda rasmiy ko'rinish bergach, xalq bu nomlarni taniy boshladi.

Xayol chechaklari. Turmush tashvishlaridan charchab qolgan damlarda Valentin

Катаевнинг “Хаёл чечаклари” китобини оҳиста кўлимга оламан. Рус адиблари Иван Бунин ва Владимир Маяковскийнинг шахсий ҳаёти зарварақларини мазза қилиб ўқиймиз. Садоқатли шогирд устозларининг қувончли ва изтиробли дамлари, нозик ўй-хаёллари, чимдим гаплари, заҳаромуз кулгулари, дабдабали турмуш тарзи ҳақида бўямасдан самимий оҳангда ҳикоя қилади. Зукколик, донишмандликка йўғрилган фикрлар сизни ром қолдиради.

Бир куни Бунин шогирдига шундай ижодий топшириқ беради: “Анави, елкасига сочиқ ташлаб олган, кўлида балиқ пуфаги, денгиз томон чопиб кетаётган қизчанинг шиппаги остидан чиқаётган шағал овозини тасвирланг. Қанақа овоз бу? Ғичирлаш десангиз, ғичирлаш эмас. Жаранглаш десангиз, жаранглаш эмас, шитирлаш десангиз шитирлаш ҳам эмас. Бошқача – шағалнинг ўзига хос – ягона тўғри бир сўз топилиши зарур бўлган овоз”. Ва, шогирд завқ-шавқ ила боягиларни тасвирлашга тушади. Бундай ижодий лаборатория ёш адибнинг қаламини чархлаб боради.

В. Катаев устози портретини шундай тасвирлайди: “Бунин кўринишдан чорбоғчига ўхшар, лекин у похол шляпа, апаш кўйлак, порусин туфли кийган, лапашанг

Katayevning “Xayol chechaklari” kitobini ohista qo‘limga olaman. Rus adiblari Ivan Bunin va Vladimir Mayakovskiyning shaxsiy hayoti zarvaraqlarini mazza qilib o‘qiymiz. Sadoqatli shogird ustozlarining quvonchli va iztirobli damlari, nozik o‘y-xayollari, chimdim gaplari, zaharomuz kulgulari, dabdabali turmush tarzi haqida bo‘yamasdan samimiy ohangda hikoya qiladi. Zukkolik, donishmandlikka yo‘g‘rilgan fikrlar sizni rom qoldiradi.

Bir kuni Bunin shogirdiga shunday ijodiy topshiriq beradi: “Anavi, yelkasiga sochiq tashlab olgan, qo‘lida baliq pufagi, dengiz tomon chopib ketayotgan qizchaning shippagi ostidan chiqayotgan shag‘al ovozini tasvirlang. Qanaqa ovoz bu? G‘ichirlash desangiz, g‘ichirlash emas. Jaranglash desangiz, jaranglash emas, shitirlash desangiz shitirlash ham emas. Boshqacha – shag‘alning o‘ziga xos – yagona to‘g‘ri bir so‘z topilishi zarur bo‘lgan ovoz”. Va, shogird zavq-shavq ila boyagilarni tasvirlashga tushadi. Bunday ijodiy laboratoriya yosh adibning qalamini charxlab boradi.

V. Katayev ustozi portretini shunday tasvirlaydi: “Bunin ko‘rinishdan chorbog‘chiga o‘xshar, lekin u poxol shlyapa, apash ko‘ylak, porusin tufli kiygan, lapashang mahalliy

маҳаллий чорбоғчи эмас эди. У қимматбаҳо ёзлик шиппак, кенг, яхши дазмолланган, қайтарма ёқали бўз кўйлақда, пўлат пенсь-неси кичкина кўкрак чўнтагига икки буклаб солиб қўйилган, белига кўп кишилар, – масалан менинг отам, – боғлаб юрадиган, шокиласи титилиб кетган бемаза илон тасма эмас, оддий, лекин барибир, анча қимматбаҳолиги кўриниб турган чарм камар боғлаб, ҳар замонда Толстойга ўхшаб унинг орасига қўлини тиқиб юрадиган назокатли, зиёли пойтахтлик чорбоғчи эди”

Ўзимча ўйга толаман: бизда ҳам устоз-шоғирдлик анъанаси сақланиб қолганмикан? Адабиёт, матбуот, телевидениеда, ижтимоий ҳаётда мақтов ва танқиднинг ўрни алмашиб турадиган кунлар келармикан?

Бино қўйма. Машхур шайхнинг умр бўйи такрорлайдиган ҳикмати менга жуда ёқади: “Ўзингизга бино қўйманг, ўзингизга бино қўйманг, ўзингизга бино қўйманг!”.

Ул зот шу гапларни такрорлаб, жон таслим қилган экан. Бу сўзлар нақадар таъсирли, сеҳрли туюлади кишига.

Нафс. Ҳам хатарли, ҳам даҳшатли тусунча бу!

Нафс – инсон фожиасининг бошланиш нуқтаси.

chorbog'chi emas edi. U qimmatbaho yozlik shippak, keng, yaxshi dazmollangan, qaytarma yoqali bo'z ko'ylakda, po'lat pensnesi kichkina ko'krak cho'ntagiga ikki buklab solib qo'yilgan, beliga ko'p kishilar, – masalan mening otam, – bog'lab yuradigan, shokilasi titilib ketgan bemaza ilon tasma emas, oddiy, lekin baribir, ancha qimmatbaholigi ko'rinib turgan charm kamar bog'lab, har zamonda Tolstoyga o'xshab uning orasiga qo'lini tiqib yuradigan nazokatli, ziyoli poytaxtlik chorbog'chi edi”

O'zimcha o'ylarga tolaman: bizda ham ustozshogirdlik an'anasi saqlanib qolganmikan? Adabiyot, matbuot, televideniya, ijtimoiy hayotda maqto'v va tanqidning o'rnini almashib turadigan kunlar kelarmikan?

Bino qo'yma. Mashhur shayxning umr bo'yi takrorlaydigan hikmati menga juda yoqadi: “O'zingizga bino qo'ymang, o'zingizga bino qo'ymang, o'zingizga bino qo'ymang!”

Ul zot shu gaplarni takrorlab, jon taslim qilgan ekan. Bu so'zlar naqadar ta'sirli, sehrli tuyuladi kishiga.

Nafs. Ham xatarli, ham dahshatli tushuncha bu!

Nafs – inson fojiasining boshlanish nuqtasi.

Нафс – меҳр-оқибатнинг йўқолиши, худбинликнинг бошланиши.

Нафс – ота-бола, эр-хотин, ака-ука, опа-сингилларни бегона, қалбсиз қилиб қўядиган ёвуз куч.

Ёвузлик. Ҳар куни интернетга ёвузликни тарғиб этувчи минглаб видео, аудионинг қўйилиши – инсон меҳр-шафқатсиз бўлиб бораётганининг дараги. Кимнингдир ўзини-ўзи ўлдириши, тўққизинчи қават айвонидан ерга қулаши, йўлда нобуд бўлиши, боласини пичоқлаши, отасини ўлдириши...

Бу ёвузликлар – инсоннинг айниши, бузилиши даражаси, инсонда сифатий ўзгаришдан ботқоқлик сари қулашининг аломати.

Бу ёвузликлар – яхшилик, мурувват, меҳрибонликдан аста қайтиш, ўлимга бурилиш нуқтаси. Ёш умри хазон бўлган тиббиёт коллежи талабаси Жасурбекнинг қотиллари ҳам палид кимсалар ва уларнинг ёвуз тарбиячилари эди.

Бу ёвузликлар – ғарбда оила институтининг мағлубияти, шарқ одамининг глобаллашув, интернет олдида таслим бўлиш жараёни.

Одобсиз бола. Ота-онасига овозининг борича бақирган, гап қайтарган, алмойи-

Nafs – mehr-oqibatning yo‘qolishi, xudbinlikning boshlanishi.

Nafs – ota-bola, er-xotin, aka-uka, opa-singillarni begona, qalbsiz qilib qo‘yadigan yovuz kuch.

Yovuzlik. Har kuni internetga yovuzlikni targ‘ib etuvchi minglab video, audioning qo‘yilishi – inson mehr-shafqatsiz bo‘lib borayotganining daragi. Kimningdir o‘zini-o‘zi o‘ldirishi, to‘qqizinchi qavat ayvonidan yerga qulashi, yo‘lda nobud bo‘lishi, bolasini pichoqlashi, otasini o‘ldirishi...

Bu yovuzliklar – insonning aynishi, buzilishi darajasi, insonda sifatiy o‘zgarishdan botqoqlik sari qulashining alomati.

Bu yovuzliklar – yaxshilik, muruvvat, mehribonlikdan asta qaytish, o‘limga burilish nuqtasi. Yosh umri xazon bo‘lgan tibbiyot kolleji talabasi Jasurbekning qotillari ham palid kimsalar va ularning yovuz tarbiyachilari edi.

Bu yovuzliklar – g‘arbda oila institutining mag‘lubiyati, sharq odamining globallashuv, internet oldida taslim bo‘lish jarayoni.

Odobsiz bola. Ota-onasiga ovozinig boricha baqirgan, gap qaytargan, almoysi- aljoyi

алжойи сўзларни айтиб, юрагини парчалаган ёввойи болага бу сифат айтилади.

Қайтар дунёни кўрингки, оила қуриб, фарзандли бўлгач, отанинг ўзи шундай суҳбатнинг шоҳиди бўлади:

– Ишингизни бажармайман, дада. Дарсимни қиламан, кейин тўғаракка бораман, – жавоб беради ўғли.

– Сигирга бир қучоқ ўт ўришга ўн дақиқа вақтинг кетади, ахир, – дейди ота.

– Менда имкон йўқ, бекорчи бўлсангиз, марҳамат, ўзингиз қилаверинг, – дейди бола ва кетиб қолади.

Одобсиз боланинг гапидан ота тутоқиб кетади: бақиради, бўкиради, сўкинади. “Э, падарлаънат, ишёқмас, ярамас...”

Ё товба, йигирма йил олдин бўлиб ўтган саҳна кўриниши яна такрорланиб ўтирибди. Ўша диалог, ўша хатти-ҳаракат...

Ота болаликда ўзидан ўтган хатони англаб, оғир ўйга ботди. “Феъл-атвор ген билан кирар экан-да”.

Дўстимга деганларим. Сен: курашлардан чарчадим, пайғамбар ёшига етсам ҳам бирим икки бўлмади, дедингми? Гапларингни қайтариб ол, дўстим. Аллоҳ сенга оқила аёлни, ўғил ва қизларни берибди.

so'zlarni aytib, yuragini parchalagan yovvoyi bolaga bu sifat aytiladi.

Qaytar dunyoni ko'ringki, oila qurib, farzandli bo'lgach, otaning o'zi shunday suhbatning shohidi bo'ladi:

– Ishingizni bajarmayman, dada. Darsimni qilaman, keyin to'garakka boraman, –javob beradi o'g'li.

– Sigirga bir quchoq o't o'rishga o'n daqiqa vaqting ketadi, axir, – deydi ota.

– Menda imkon yo'q, bekorchi bo'lsangiz, marhamat, o'zingiz qilavering, – deydi bola va ketib qoladi.

Odobsiz bolaning gapidan ota tutoqib ketadi: baqiradi, bo'kiradi, so'kinadi. “E, padarla'nat, ishyoqmas, yaramas...”.

Yo tovba, yigirma yil oldin bo'lib o'tgan sahna ko'rinishi yana takrorlanib o'tiribdi. O'sha dialog, o'sha xatti-harakat...

Ota bolalikda o'zidan o'tgan xatoni anglab, og'ir o'yga botdi. “Fe'l-atvor gen bilan kirar ekan-da”.

Do'stinga deganlarim. Sen: kurashlardan charchadim, payg'ambar yoshiga yetsam ham birim ikki bo'lmadi, dedingmi? Gaplaringni qaytarib ol, do'stim. Alloh senga oqila ayolni, o'g'il va qizlarni beribdi. Sen

Сен жажжи болажонларнинг севимли журналида ўттиз йил ҳалол ишладинг. Курортларга бормаган, енгил машина минмаган, ресторанларда тўй бермаган бўлсангда, хотиржам, осойишта ҳаёт кечирмоқдасан.

Бу дунёда сенга ўхшаган одамлар камми?! Ўттиз икки йил ишлаб, икки хонали уйга эга бўлмаган, ота-онасининг танга тушгулик ҳовлисида сиқилиб яшаётган оилалар озмунчами, дўстим?!

Бечора ота тарбиясининг хотимаси:

Қиз – меҳрибон, суюкли, оқибатли, одобли.

Ўғил – тошбағир, калондимоғ, калтабин, шафқатсиз,

Қиз – ота-онанинг умрини узайтирувчи шарқ аёли.

Ўғил – ота асабларини қақшатиб, умрини қисқартирувчи телбавор европалик.

Бойваччанинг дегани. “Сергели машина бозоридан битта Lacetti олсам, уни яантириб, қимматроққа сотсам. Учта машинамни, иккита квартирамни ҳам сотиб, коробка ҳовлини қўлга киритсам, дизайнер, буёқчи-ю сувоқчи, том ёпувчиларни ишга солиб, уни гўзал ҳолга келтирсам, ўртасига бассейн қурсам, сўнг битта пулдорга беш юз минг кўкига пулласам, ўрнига иккита ўғлимга йигирма сотихдан қирқ сотих ерни

jajji bolajonlarning sevimli jurnalida o'ttiz yil halol ishlading. Kurortlarga bormagan, yengil mashina minmagan, restoranlarda to'y bermagan bo'lsangda, xotirjam, osoyishta hayot kechirmoqdasan.

Bu dunyoda senga o'xshagan odamlar kammi?! O'ttiz ikki yil ishlab, ikki xonali uyga ega bo'lmagan, ota-onasining tanga tushgulik hovlisida siqilib yashayotgan oilalar ozmunchami, do'stim?!

Bechora ota tarbiyasining xotimasi:

Qiz – mehribon, suyuqli, oqibatli, odobli.

O'g'il – toshbag'ir, kalondimog', kaltabin, shafqatsiz,

Qiz – ota-onaning umrini uzaytiruvchi sharq ayoli.

O'g'il – ota asablarini qaqshatib, umrini qisqartiruvchi telbavor yevropalik.

Boyvachchaning degani. “Sergeli mashina bozoridan bitta Lacetti olsam, uni yasantirib, qimmatroqqa sotsam. Uchta mashinamni, ikkita kvartiramni ham sotib, korobka hovlini qo'lga kiritsam, dizayner, buyoqchi-yu suvoqchi, tom yopuvchilarni ishga solib, uni go'zal holga keltirsam, o'rtasiga basseyn qursam, so'ng bitta puldorga besh yuz ming ko'kiga pullasam, o'rniga ikkita o'g'limga yigirma sotixdan qirq sotix yerni arzonrog'ga

арзонгаровга олиб, зўр лойиҳачи, бинокор усталар ёрдамида янгисини кўтарсам...”

Камбағал одамнинг дегани. “Бугун ҳам беҳудага эллик минг сўм харажатга тушдим. Иккита юбиляр чолга пул йиғилармиш. Эҳ, мен шу қароқчи чолларнинг ёшига (бири саксон, бири саксон иккига кинибди) етаманми – йўқми, билмадим. Маошимнинг камлиги, доимий етишмовчилик, асаббузарликнинг фиғонга чиқиши, боз устига, болаларим ҳақгўйлигимни юзимга солавериши мени адои тамом қилди...”

Илмий иш. Олим йигит эрталаб зўр ниётлар билан кўчага чиқди. Хужжатларини илмий кенгаш котибига топшириб, енгил нафас олди. Хайрият, саккиз йиллик меҳнати бугун охирлади.

Лекин уйдаги гап кўчага тўғри келавермаслигини у билмасди. Бир ҳафта ўтмасдан, ишини қайтариб беришди. Хорижий элда нашр этилган мақоласи “бегона” журналда босилган эмиш.

Навбатдаги дил хиралик. Яна югур-югур, кутиш, сарф-харажат. Олий аттестация вакилига тавозе, қуллуқлар... “Э, падарига қусур. Олим бўлганимга минг лаънат. Игна билан қудуқ қазиган олимга ҳам таъма кўзларини тикишганига ўлайми?!

olib, zo‘r loyihachi, binokor ustalar yordamida yangisini ko‘tarsam...”

Kambag‘al odamning degani. “Bugun ham behudaga ellik ming so‘m xarajatga tushdim. Ikkita yubilyar cholga pul yig‘ilarmish. Eh, men shu qaroqchi chollarning yoshiga (biri sakson, biri sakson ikkiga kiribdi) yetamanmi – yo‘qmi, bilmadim.

Maoshimning kamligi, doimiy yetishmovchilik, asabbuzarlikning fig‘onga chiqishi, boz ustiga, bolalarim haqgo‘yligimni yuzimga solaverishi meni adoyi tamom qildi...”

Ilmiy ish. Olim yigit ertalab zo‘r niyatlar bilan ko‘chaga chiqdi. Hujjatlarini ilmiy kengash kotibiga topshirib, yengil nafas oldi. Xayriyat, sakkiz yillik mehnati bugun oxirladi.

Lekin uydagi gap ko‘chaga to‘g‘ri kelavermasligini u bilmasdi. Bir hafta o‘tmasdan, ishini qaytarib berishdi. Xorijiy elda nashr etilgan maqolasi “begona” jurnalda bosilgan emish.

Navbatdagi dil xiralik. Yana yugur-yugur, kutish, sarf-xarajat. Oliy attestatsiya vakiliga tavoze, qulluqlar... “E, padariga qusur. Olim bo‘lganimga ming la‘nat. Igna bilan quduq qazigan olimga ham ta‘ma ko‘zlarini tikishganiga o‘laymi?! Tunlari

Тунлари мижжа қоқмасдан ишлаб, жамиятдаги бир муаммога энди ечим топганида, тадқиқотидан нуқсонларни қидириб, бошингни роса қотиришади.

Бир куни ақли расо, покдомон домлага шу саволни берди.

– Мен қийналганман, энди буям бир қийналиб кўрсин, дейишса керак-да, – жавоб берди домла. – Окоси, бундан хафа бўлманг, чиданг.

Олтмиш ёш – ёшлик билан хайр-хўшлашиш дамлари.

Олтмиш ёш – қариликка тайёргарлик кўриш палласи.

Олтмиш ёш – дунёни англашда бир поғона юксалиш сониялари.

Ўзимдан ўтгани. Бир дўстим яқин қариндошини оиласи билан шаҳарга кўчириб келди. Катталар илтимос қилгач, гапини қайтаролмади. Уйининг бир хонасини бўшатиб, расмий рўйхатга тиркаб қўйди. Сўнг, таниш-билишларни ўртага қўйиб, эр-хотинни ўзлари хоҳлаган муносиб ишга жойлаштирди.

Орадан ойлар, йиллар ўтиб, ўша йигит таниқли бир идоранинг бўлим бошлиғи даражасига етишди. Бўлим – давлат бюджети ҳисобига яхшигина таъминланар эди. “Қариндош”нинг пичоғи мой устида бўлди.

mijja qoqmasdan ishlab, jamiyatdagi bir muammoga endi yechim topganida, tadqiqotidan nuqsonlarni qidirib, boshingni rosa qotirishadi.

Bir kuni aqli raso, pokdomon domlaga shu savolni berdi.

- Men qiynalغانman, endi buyam bir qiynalib ko'rsin, deyishsa kerak-da, -javob berdi domla. - Okosi, bundan xafa bo'lmang, chidang.

Oltmish yosh - yoshlik bilan xayrxo'shlashish damlari.

Oltmish yosh - qarilikka tayyorgarlik ko'rish pallasi.

Oltmish yosh - dunyoni anglashda bir pog'ona yuksalish soniyalari.

O'zimdān o'tgani. Bir do'stim yaqin qarindoshini oilasi bilan shaharga ko'chirib keldi. Kattalar iltimos qilgach, gapini qaytarolmadi. Uyining bir xonasini bo'shatib, rasmiy ro'yxatga tirkab qo'ydi. So'ng, tanish-bilishlarni o'rtaga qo'yib, er-xotinni o'zlari xohlagan munosib ishga joylashtirdi.

Oradan oylar, yillar o'tib, o'sha yigit taniqli bir idoraning bo'lim boshlig'i darajasiga yetishdi. Bo'lim - davlat byudjeti hisobiga yaxshigina ta'minlanar edi. "Qarindosh"ning pichog'i moy ustida bo'ldi. Pishiq, ustomonligi

Пишиқ, устомонлиги туфайли қўша-қўша машина ва квартираларни қўлига киритди. Именинада эътироф этишича, “тоға”дан ҳам бойлиги беш баробарга ошиб кетибди...

“Пул, бойлик одамни диндан чиқаради”, дегани рост гап экан. Пул –қариндош-уруғлар орасига нифоқ солади. Укаxon билан хотини ўзларига тенг, бойроқ хонадон ва давраларни қўмсаб, хешларни аста унута бошлашди.

Бир куни тоға унга шундай насиҳат қилди:

– Ука, бу азим шаҳарда яна неча йил бирга яшашимизни билмайман-у, аммо сен кирадиган эшигингни тепасига қўнғироқча осиб қўйишни унутма!

Маърифат. Онг, дид, фаросат бўлиб, у жамиятнинг белгиси.

Маърифатли, эзгу фикрли, адолатли инсон – жамиятнинг устуни.

Ижод. Парвардигор қудратини англаш ҳисси.

Ижод – инсоннинг олам ичидаги одамни тасвирлаш сониялари.

Ижод – инсоннинг қадр-қимматини тушунишга интилиш имконлари.

Ижод – буюк Яратувчини қалбан ҳис этиш.

tufayli qo'sha-qo'sha mashina va kvartiralarni qo'liga kiritdi. Imeninada e'tirof etishicha, "tog'a"dan ham boyligi besh barobarga oshib ketibdi...

"Pul, boylik odamni dindand chiqaradi", degani rost gap ekan. Pul –qarindosh-urug'lar orasiga nifoq soladi. Ukaxon bilan xotini o'zlariga teng, boyroq xonadon va davralarni qo'msab, xeshlarni asta unuta boshlashdi.

Bir kuni tog'a unga shunday nasihat qildi:

– Uka, bu azim shaharda yana necha yil birga yashashimizni bilmayman-u, ammo sen kiradigan eshigingni tepasiga qo'ng'iroqcha osib qo'yishni unutma!

Ma'rifat. Ong, did, farosat bo'lib, u jamiyatning belgisi.

Ma'rifatli, ezgu fikrli, adolatli inson – jamiyatning ustuni.

Ijud. Parvardigor qudratini anglash hissi.

Ijud – insonning olam ichidagi odamni tasvirlash soniyalari.

Ijud – insonning qadr-qimmatini tushunishga intilish imkonlari.

Ijud – buyuk Yaratuvchini qalban his etish.

Ижод – инсоннинг ўзини тўла кашф этиш, намоён қила билиш санъатидир.

Янги адабиёт. XX асрда пайдо бўлган адабиёт – тафаккурни ёйиш, фикр, тасаввур, дард, изтироб тимсол (рамз)лари шодаси.

Янги адабиёт – инсонни майда-чуйдалардан кутқариб, юксак мақомларга кўтардиган қудрат кучи.

Янги адабиёт – қалбни тозалаш, поклаш, шахсни Шахс мақомига кўтаришга ҳозирлаш майдони.

Виртуал авлод. Бундай тушунча XXI асрнинг бошида пайдо бўлди. Интернет, мобил алоқа шахснинг янги имконларини кучайтириб юборди. Компьютерда тарбияланган, асрлик анъаналарни бузишга интилган авлод ўзини сирли қирраларини намоён қила бошлади.

Виртуал авлод – Ғарбнинг урф-одатлари, анъаналарига сажда қилувчи тўда.

Виртуал авлод – замонавийликка интилган бўлса-да, аммо қадимги маданиятидан маҳрумлар гуруҳи. аросатда қолган, муаллақ одамлар галаси.

Виртуал авлод – мобиль телефон, рок, рэп қўшиқларни севган, кийиниши ва машинаси модага мос, мумтоз қўшиқни, мил-

Ijod – insonning o‘zini to‘la kashf etish, namoyon qila bilish san’atidir.

Yangi adabiyot. XX asrda paydo bo‘lgan adabiyot – tafakkurni yoyish, fikr, tasavvur, dard, iztirob timsol (ramz)lari shodasi.

Yangi adabiyot – insonni mayda-chuydalardan qutqarib, yuksak maqomlarga ko‘taradigan qudrat kuchi.

Yangi adabiyot – qalbni tozalash, poklash, shaxsni Shaxs maqomiga ko‘tarishga hozirlash maydoni.

Virtual avlod. Bunday tushuncha XXI asrning boshida paydo bo‘ldi. Internet, mobil aloqa shaxsning yangi imkonlarini kuchaytirib yubordi. Kompyuterda tarbiyalangan, asrlik an’analarini buzishga intilgan avlod o‘zini sirli qirralarini namoyon qila boshladi.

Virtual avlod – G‘arbning urf-odatlarini, an’analariga sajda qiluvchi to‘da.

Virtual avlod – zamonaviylikka intilgan bo‘lsa-da, ammo qadimgi madaniyatidan mahrumlar guruhi. arosatda qolgan, muallaq odamlar galasi.

Virtual avlod – mobil telefon, rok, rep qo‘shiqlarni sevgan, kiyinishi va mashinasi modaga mos, mumtoz qo‘shiqni, milliy

лий либосни, андиша ва оқибатни унутган “чиройли” қавм.

Виртуал авлод – бағрикенглик, камтарлик, самимият, раҳм-шафқат, меҳр-оқибатдан маҳрум ёки уни менсимайдиган “янги” авлод.

Шундай экан, устоз, муаллимнинг асабларига тўзим, сабр-бардош берсин, дейман.

Компьютер. Ғарб одами ўйлаб топган ноёб ихтиро.

Компьютер – қитъалар ва одамларни “ўргимчак тўри”, ахборот олами билан боғловчи сиймо. Хоҳлаган мавзуда гапиради ва ёза олади у.

Компьютер – Ғарбга қарамлик воситаси.

“Хомсиз”. Ўттиз ёшимда қишлоқдаги маҳалла оқсоқоли олдига кирдим. Ҳол-аҳвол сўрашдим. Ўзаро мулоқот, мулоҳазалардан сўнг, гапларимдан қониқмади, шекилли, оқсоқол: “Ҳали анча хом экансиз”, деди.

Шаҳарга қайтдим. Ишга шўнғидим. Ни-магадир интилдим. Кунларнинг бирида қишлоққа келибоқ, оқсоқолнинг ҳузурига ошиқдим. Юз-кўзим, руҳим, гапим оҳангидан тасаввур уйғонди, чоғи, менга юзланиб, “Ҳалиям хомсиз, майли, ҳаёт пиширади”, деди.

libosni, andisha va oqibatni unutgan “chiroyli” qavm.

Virtual avlod – bag‘rikenglik, kamtarlik, samimiyat, rahm-shafqat, mehr-oqibatdan mahrum yoki uni mensimaydigan “yangi” avlod.

Shunday ekan, ustoz, muallimning asablariga to‘zim, sabr-bardosh bersin, deyman.

Kompyuter. G‘arb odami o‘ylab topgan noyob ixtiro.

Kompyuter – qit‘alar va odamlarni “o‘rgimchak to‘ri”, axborot olami bilan bog‘lovchi siymo. Xohlagan mavzuda gapiradi va yoza oladi u.

Kompyuter – G‘arbga qaramlik vositasi.

“Xomsiz”. O‘ttiz yoshimda qishloqdagi mahalla oqsoqoli oldiga kirdim. Hol-ahvol so‘rashdim. O‘zaro muloqot, mulohazalardan so‘ng, gaplarimdan qoniqmadi, shekilli, oqsoqol: “Hali ancha xom ekansiz”, dedi.

Shaharga qaytdim. Ishga sho‘ng‘idim. Nimagadir intildim. Kunlarning birida qishloqqa keliboq, oqsoqolning huzuriga oshiqdim. Yuz-ko‘zim, ruhim, gapim ohangidan tasavvur uyg‘ondi, chog‘i, menga yuzlanib, “Haliyam xomsiz, mayli, hayot pishiradi”, dedi.

Маъюс ҳолда, яна ортимга қайтдим. Ишга сидқидилдан ёндошдим. Тиним билмадим. Кам ухладим. Шаҳарда ошна-оғайниларим кўпайди. Хизмат даражам ҳам икки поғона кўтарилди. Орадан ўн беш йил ўтди.

Оқсоқол қариб қолган пайтлар эди. Умид ила олдига кирдим.

–Энди баҳо беринг жўрамга. Яқинда вазир бўлди! – деди бирга борган дўстим.

Устоз менга бошдан-оёқ қаради, кўзларимдаги маънони уққандай бўлди. Ҳаётим ва рўзгорим билан қизиқди. “Янглишмай жавоб бердим, –деб ғолиблардек турибман.

Оқсоқол бошини сарак-сарак қилиб: “Хомсиз, озгина бор пишишга”, деди.

–Нима қилсам, кўнглингиз тўлади, – деб сўрадим асабийлашиб.

–Буни ўзинг билишинг зарур, – жавоб берди у.

Бошим қотди. Узоқ ўйласам ҳам бу муаммонинг калитини тополмадим.

Йиллар ўтди. Устоз оғир касалланиб ётганини эшитиб, яна қошига бордим. Аниқроғи, ўзлари чақирди.

– Умрим тугаб бораяпти, – деди оқсоқол.
– Гапларимга қулоқ солгин.

–Устоз, гапиринг, қулоғим сизда...

Ma'yus holda, yana ortimga qaytdim. Ishga sidqidildan yondoshdim. Tinim bilmadim. Kam uxladim. Shaharda oshna-og'aynilarim ko'paydi. Xizmat darajam ham ikki pog'ona ko'tarildi. Oradan o'n besh yil o'tdi.

Oqsoqol qarib qolgan paytlar edi. Umid ila oldiga kirdim.

–Endi baho bering jo'ramga. Yaqinda vazir bo'ldi! – dedi birga borgan do'stim.

Ustoz menga boshdan-oyoq qaradi, ko'zlarimdagi ma'noni uqqanday bo'ldi. Hayotim va ro'zg'orim bilan qiziqdi. “Yanglishmay javob berdim, –deb g'oliblardek turibman.

Oqsoqol boshini sarak-sarak qilib: “Xomsiz, ozgina bor pishishga”, dedi.

–Nima qilsam, ko'nglingiz to'ladi, – deb so'radim asabiylashib.

–Buni o'zing bilishing zarur, – javob berdi u.

Boshim qotdi. Uzoq o'yilasam ham bu muammoning kalitini topolmadim.

Yillar o'tdi. Ustoz og'ir kasallanib yotganini eshitib, yana qoshiga bordim. Aniqrog'i, o'zlari chaqirdi.

– Umrim tugab borayapti, – dedi oqsoqol. – Gaplarimga quloq solgin.

–Ustoz, gapiring, qulog'im sizda...

–Биринчи насиҳатим шулки, амалга ошмайдиган ҳавойи орзулардан воз кеч. Ерга туш. Иккинчидан, кўп ўқимагин, чунки кўп ўқисанг, кўп фикрлар билан тўқнашасан ва янглишасан. Учинчидан, содда бўлма, кўп алдашади. Тўртинчидан, табиатинг очиқ бўлмасин, балки ёпиқ бўлсин, ишинг ва дардингни ҳаммага очаверма. Устингдан кулишади, фикрингни ҳам ўғирлашади.

–Тушундим... Бу сўзларни нега аввалроқ айтмадингиз?

– Буларни олдиндан айтиб бўлмасди, чунки ҳаётнинг ўзи инсонни пиштади, муаллимлик қилади. Илоҳим, тушунганинг рост бўлсин, болам. Омин!

Ҳикматлар сабоғидан мамнун бўлдим. Ҳаёт қозонида пишиб борганим сари, тажрибам ҳам, ишларим ҳам илдамлай бошлади. Устозга раҳмат айтишга чоғландим.

Бироқ оқсоқол вафот этган эди.

Етмиш ёш. Табаррук ёшга етганинда, қариликни бўйнингга олма. Оилада янги-янги неваралар туғилади. Сен уларни қўлингга олиб, лўппидек юз-кўзлари, ширин дудоқларидан ўпасан. Асабларинг ором олади.

-Birinchi nasihatim shulki, amalga oshmaydigan havoyi orzulardan voz kech. Yerga tush. Ikkinchidan, ko'p o'qimag'in, chunki ko'p o'qisang, ko'p fikrlar bilan to'qnashasan va yanglishasan. Uchinchidan, sodda bo'lma, ko'p aldashadi. To'rtinchidan, tabiatning ochiq bo'lmasin, balki yopiq bo'lsin, ishing va dardingni hammaga ochaverma. Ustingdan kulishadi, fikringni ham o'g'irlashadi.

-Tushundim... Bu so'zlarni nega avvalroq aytmadingiz?

- Bularni oldindan aytib bo'lmasdi, chunki hayotning o'zi insonni pishitadi, muallimlik qiladi. Ilohim, tushunganing rost bo'lsin, bolam. Omin!

Hikmatlar sabog'idan mamnun bo'ldim. Hayot qozonida pishib borganim sari, tajribam ham, ishlarim ham ildamlay boshladi. Ustozga rahmat aytishga chog'landim.

Biroq oqsoqol vafot etgan edi.

Yetmish yosh. Tabarruk yoshga yetganingda, qarilikni bo'yningga olma. Oilada yangi- yangi nevaralar tug'iladi. Sen ularni qo'lingga olib, lo'ppidek yuz-ko'zlari, shirin dudoqlaridan o'pasan. Asablaring orom oladi.

Етмиш ёшда жомеъ масжидига борасан, шунда ўткинчи умрнинг майда-чуйда ишларига ўралашмай, фақат Аллоҳга сажда қилиш, хатоларни қалбан англаш, ичдан разм солишга имкон туғилади...

Етмиш ёшда зиёфатлардан безиб, тоатибодат ва яхши амаллар билан ҳаётингни безай бошлайсан...

Биз. Биз, инсонлар – моддийлик ва маънавийликка эришиш, ҳаётда ўрнимизни топиш йўлида кўп қийинчиликлар дуч келамиз. Ожиз қолганимизда, давлатдан ненидир кутамиз.

Аммо қаршимиздаги инсон, жамият ва давлат, замон ва макон, бугун ва келажак ҳақидаги тасаввурларимиз ҳеч қачон тўлиқ бўлмайди. Шайх Хожа Аҳрор пиримиз уқтирганидек: “Сен бойликни узоқдан қидириб юрма, у ёнгинангда, гиламнинг тагида ётибди...”



Yetmish yoshda jome' masjidiga borasan, shunda o'tkinchi umrning mayda-chuyda ishlariga o'ralashmay, faqat Allohga sajda qilish, xatolarni qalban anglash, ichdan razm solishga imkon tug'iladi...

Yetmish yoshda ziyofatlardan bezib, toat-ibodat va yaxshi amallar bilan hayotingni bezay boshlaysan...

Biz. Biz, insonlar – moddiylik va ma'naviylikka erishish, hayotda o'rnimizni topish yo'lida ko'p qiyinchiliklar duch kelamiz. Ojiz qolganimizda, davlatdan nenidir kutamiz.

Ammo qarshimizdagi inson, jamiyat va davlat, zamon va makon, bugun va kelajak haqidagi tasavvurlarimiz hech qachon to'liq bo'lmaydi. Shayx Xoja Ahror pirimiz uqtirganidek: "Sen boylikni uzoqdan qidirib yurma, u yonginangda, gilamning tagida yotibdi..."



Амир Темур. Танбеҳлар. Тўпловчи ва таржимон Б. Аҳмедов. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси, 1996.

Аждодлар ўғити. Ҳикоятлар, ҳикматлар, тамсиллар. Тўпловчи ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. – Т.: Чўлпон, 1990.

Билқиз Аладдин. Муҳаммад пайғамбар алайҳиссалом қиссаси. –Т.: Камалак, 1991.

Жалолиддин Румий Қалб кўзингни оч. Мавлоно Румийдан ҳикматли сўзлар. –Т.: Сано-стандарт, 2011.

Кайковус. Қобуснома. – Т.: Ўқитувчи, 2002.

Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёки жавонмардлик тариқати. Н.Комилов таржимаси. – Т.: А.Қодирий, 1994.

Омон Б. Сиёсий етакчининг нотиклик маҳорати. – Т.: Ўзбекистон, 2000.

Қаюмов А., Исҳоқов М., Отахўжаев А., Содиқов Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.: Ёзувчи, 2000.

Ҳақиқат манзаралари. 99 файласуф. Тўпловчи ва таржимон С. Жўраева. –Т.: Янги аср авлоди, 2002.

Foydalanilgan adabiyotlar

Amir Temur. Tanbehlar. To'plovchi va tarjimon B. Ahmedov. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1996.

Ajdodlar o'giti. Hikoyatlar, hikmatlar, tamsillar. To'plovchi va izohlar muallifi B. Ahmedov. – T.: Cho'lpon, 1990.

Bilqiz Aladdin. Muhammad payg'ambar alayhissalom qissasi. –T.: Kamalak, 1991.

Jaloliddin Rumi Qalb ko'zingni och. Mavlono Rumiyan hikmatli so'zlar. –T.: Sano-standart, 2011.

Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O'qituvchi, 2002.

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniy yoki javonmardlik tariqati. N.Komilov tarjimasi. – T.: A.Qodiriy, 1994.

Omon B. Siyosiy yetakchining notqlik mahorati. – T.: O'zbekiston, 2000.

Qayumov A., Is'hoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.

Haqiqat manzaralari. 99 faylasuf. To'plovchi va tarjimon S. Jo'rayeva. –T.: Yangi asr avlodi, 2002.

МУНДАРИЖА

Инсон мўъжизалар яратишга қодир.....4

БИРИНЧИ ФАСЛ **Ўзини тарбиялаш одоби**

1.1. Ўзини англаш одоби	10
1.2. Ўзини сақлаш одоби	22
1.3. Ўзини тутиш одоби	36
1.4.Ўзини намоён этиш одоби	42

ИККИНЧИ ФАСЛ **Бошқарув ва суҳбат одоби**

2. 1. Раҳбарлик одоби	54
2.2. Нутқ одоби	62
2.3. Суҳбат одоби	70
2.4. Бошқарув одоби	78

УЧИНЧИ ФАСЛ **Фикрлашга ўрганиш одоби**

Нидолар.....	96
--------------	----

MUNDARIJA

Inson mo'jizalar yaratishga qodir..... 4

BIRINCHI FASL **o'zini tarbiyalash odobi**

1.1. O'zini anglash odobi	10
1.2. O'zini saqlash odobi	22
1.3. O'zini tutish odobi	36
1.4. O'zini namoyon etish odobi	42

IKKINCHI FASL **Boshqaruv va suhbat odobi**

2. 1. Rahbarlik odobi	54
2.2. Nutq odobi	62
2.3. Suhbat odobi	72
2.4. Boshqaruv odobi	78

UCHINCHI FASL **Fikrlashga o'rganish odobi**

Nidolar.....	96
--------------	----

Ўқув-маърифий нашр

Бахтиёр Омон

ИМКОНЛАРИМ

Ўзбек тилида

Кирил ва лотин алифбосида

Тошкент, “Global Books” нашриёти, 2018.
Нашриёт лицензияси AI № 295. 23.02.2017.

Муҳаррир *Музаффар Аҳмад*

Рассом *Уйғун Солиҳов*

Техмуҳаррир *Бахтиёр Хуррамов*

Мусахҳиҳ *Зарина Аҳтамова*

Саҳифаловчи *Азамат Жуманиёзов*

Босишга рухсат этилди 21.11.2018. Офсет босма
узулида босилди. Бичими 60x84¹/₃₂.
Тиражи 500 нусха. Нашр б.т. 10,5. Буюртма № 36.
Баҳоси келишилган нарҳда.

“Global Books” МЧЖ компьютер бўлимида
терилди ва саҳифаланди. 100053. Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани, Боғишамол кўчаси, 160-уй.

“Global Books” нашриёти, 100053, Тошкент шаҳри
Юнусобод тумани, Боғишамол кўчаси, 160-уй.

Шартнома № 8-18

Тел.:/Телеграм +99893-500-59-55.

ХК босмаҳонасида босилди.
Тошкент шаҳри, 8-март кўчаси, 57-уй.

O'quv-ma'rifiy nashr

Baxtiyor Omon

IMKONLARIM

O'zbek tilida

Kiril va lotin alifbosida

Toshkent, "Global Books" nashriyoti, 2018.
Nashriyot litsenziyasi AI № 295. 23.02.2017.

Muharrir *Muzaffar Ahmad*

Rassom *Uyg'un Solihov*

Texmuharrir *Baxtiyor Xurramov*

Musahhih *Zarina Ahtamova*

Sahifalovchi *Azamat Jumaniyozov*

Bosishga ruxsat etildi 21.11.2018. Ofset bosma
usulida bosildi. Bichimi 60x84 1/32.
Tiraji 500 nusxa. Nashr b.t. 10,5. Buyurtma № 36.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Global Books" MCHJ kompyuter bo'limida terildi va
sahifalandi. 100053. Toshkent shahri, Yunusobod
tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy.

"Global Books" nashriyoti, 100053, Toshkent shahri
Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy.

Shartnoma № 8-18

Tel.:/Telegram +99893-500-59-55.

XK bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.